

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**



# ***ISTIQLOL VA TIL***

**TOSHKENT - 2023**

Ushbu ilmiy to‘plamga o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘rganish hamda o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari, o‘qitish metodikasidagi yangi yo‘nalishlar va ularning samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarning ahamiyati, tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik muammolari, uslubshunoslikning nazariy va amaliy masalalariga oid maqolalar kiritilgan.

**Tahrir hay’ati:**

f.f.n., dotsent	N.Jiyanova
f.f.n., dotsent	S.Maksumova
f.f.f.d. (PhD), dotsent	M.Sharipova

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

@ O‘zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti

## RAQAMLI LINGVODIDAKTIKA VA O‘ZBEK TILINI O‘QITISH MASALALARI

**Sh.Sh.Yuldasheva, p.f.n., professor,**

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy raqamli vositalarning o‘rni, raqamli texnologiyalarning turlari haqida so‘z yuritiladi va sohaga raqamli lingvodidaktikaning kirib kelishi va uning o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi rivojiga ijobiy ta’siri yoritilgan. Tadqiqot maqsadi raqamli lingvodidaktikaning rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalarning ahamiyatini aniqlashdan iborat. Ishda raqamli lingvodidaktika masalalariga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar, o‘zbek tilini o‘qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va foydalanilishi bo‘yicha maqola muallifining uzoq yillik kuzatishlari material sifatida xizmat qildi. Unda ilmiy-nazariy adabiyotlarni o‘rganish, raqamli resurslarni tahlil qilish, tushunchalarni aniqlashtirish, raqamli lingvodidaktikaning rivojlanishini va til o‘qitishni raqamlashtirish jarayonini kuzatish metodlaridan foydalanildi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, raqamli vositalar, raqamli texnologiya, lingvodidaktika, raqamli lingvodidaktika.

**Kirish.** Ta’limda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishiga, til o‘qitish metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Singapur (Singapore Institute of Management), Janubiy Koreya (Hanyang Cyber University), Yaponiya (Kansai university, Osaka Jogkuin University), Ispaniya (Universidad National de Educacion A Distancia), Irlandiya (National Institute for Digital Learning (NIDL)), Isroil, Fransiya (CEND), Amerika Qo‘shma Shtatlari (Massachusetts Institute of Technology; The EdTech Genome Project), Rossiya Federatsiyasi (Qozon Federal universiteti EduTech raqamli ta’lim texnologiyalari markazi1), Turkiya

---

1 <https://kpfu.ru/philology-culture/edutech>

Respublikasi (“Fırsatları Artırma ve Teknolojiyi İyileştirme Hareketi (FATİH)”, “YÖK Dijitalleşiyor” loyihaları) raqamli ta’lim markazlari va laboratoriyalarida keng miqyosdagi loyihalar olib borilmoqda. Turkiyada turk tili ta’limiga raqamli texnologiyalar ilk bora 2011-yilda “FATİH” loyihasi” bilan kirib kelgan va keng tatbiq etila boshlagan. Mazkur loyiha tufayli kompyuterlar, planshetlar, aqlli doskalar kabi texnologik vositalar turk tilini o’qitishga joriy qilinishi jadallashgan.

**Adabiyotlarga sharh.** Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi va xorijiy mamlakatlarda elektron ta’lim, masofali ta’lim, raqamli ta’lim texnologiyalarini til o’qitish jarayonlariga tatbiq etish muammolari bo’yicha N.Sh.Kozlova<sup>2</sup>, V.N.Minina<sup>3</sup>, N.Y.Ignatova<sup>4</sup>, T.V.Suxanova<sup>5</sup>, D.Bern<sup>6</sup>, Yan van Ek<sup>7</sup>, A.Fandey<sup>8</sup>, A.Kukulnska-Xyum<sup>9</sup>, K.T.Magomedova<sup>10</sup> kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini ta’kidlab o’tish mumkin.

---

<sup>2</sup> Козлова Н.Ш. Цифровые технологии в образовании. DOI: 10.24411/2078-1024-2019-11008 <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-tehnologii-v-obrazovanii> (мурожаат вақти: 2021.08.03.)

<sup>3</sup> Минина В.Н. Цифровизация высшего образования и ее социальные результаты. <https://dspace.spbu.ru/bitstream/11701/17547/1/84-101.pdf> (мурожаат вақти: 2021.08.03.)

<sup>4</sup> Игнатова Н.Ю. Образование в цифровую эпоху. [https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf) (мурожаат вақти: 2021.08.03.)

<sup>5</sup> Суханова Т.В. Развитие цифровых образовательных ресурсов в зарубежных странах (США, Великобритания, Китай, Бразилия, Германия). Обзор. // Ценности и смыслы. 2021.№4 (74). С. 38-73.

<sup>6</sup> Declan Byrne, Blended learning. [http://www.trainingreference.co.uk/blended\\_learning/bldacg1.htm](http://www.trainingreference.co.uk/blended_learning/bldacg1.htm)

<sup>7</sup> Van Ek J. A. Objectives for foreign language learning. Vol. 1: Scope. Strasbourg, Council of Europe Press, 1986. 89 p.

<sup>8</sup> Фандей В.А. Теоретико-прагматические основы использования формы смешанного обучения иностранному (английскому) языку в языковом вузе. Дисс... кандидата педагогических наук. – М., 2012.

<sup>9</sup> Агнес Кукульска-Хьюм. Мобильное обучение. Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании. Аналитическая записка ИИТО. Декабрь 2010.

<sup>10</sup> Магомедова К.Т. Этапы развития электронного обучения и их влияние на появление новых технологических стандартов качества электронного обучения. Bulletin of the South Ural State University. Ser. Education. Educational Sciences. 2015, vol. 7, no. 2, pp. 22 – 29. <https://vestnik.susu.ru/ped/article/viewFile/3647/3335>

N.Y.Ignatova tomonidan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro munosabatlarining innovatsion tuzilmasi ishlab chiqilib, raqamli ta'lim muhitida maxsus vosita GitHub xizmati orqali o'qituvchilar va talabalar hamkorligini boshqarish masalalari tadqiq qilingan. I.Y.Travkin tomonidan pedagogik amaliyotda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishning nazariy jihatlari tahlil qilingan bo'lsa, M.N.Rakova tadqiqotlarida muayyan fanni o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xosliklari ilmiy o'rganilgan.

Oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitishga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarda zamonaviy elektron va axborot vositalarini tatbiq etishning ba'zi qirralari tadqiq qilingan. Rus guruhlarida o'zbek tilini o'qitish jarayonida taqdimot texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari (S.Adilova), texnika universiteti talabalarining yozma nutqini o'stirishda elektron o'quv qo'llanmalarni yaratishga qo'yiladigan talablar, elektron pochta xizmatidan foydalanishning afzalliklari (N.Umarova)<sup>11</sup>; qoraqalpoq guruhlarida o'zbek tilini o'qitish, elektron ta'lim, elektron ta'lim vositalari, pedagogik dasturiy vositalar, elektron adabiyotlar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyalari (Sh.Yuldasheva)<sup>12</sup>; o'zbek tilini aralash ta'lim muhitida o'qitish vosita va usullari (G.Yusupova) ma'lum darajada yoritib berilgan<sup>13</sup>.

**Tadqiqot maqsadi** raqamli lingvodidaktikaning rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlarini va o'zbek tilini o'qitish jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalarning ahamiyatini aniqlashdan iborat.

**Materiallar va metodlar.** Ishda raqamli lingvodidaktika masalalariga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar, o'zbek tilini o'qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va foydalanilishi bo'yicha

---

<sup>11</sup> Умарова Н. Талабаларнинг ўзбекча ёзма нутқини ўстиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш методикаси: пед. фан.номз. дисс... – Тошкент, 2007.

<sup>12</sup> Юлдашева Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилар саводхонлигини ўстиришнинг илмий-методик асослари (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган академик лицейлар мисолида): пед. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2008. – 135 б.

<sup>13</sup> Юсупова Г.А. Бўлажак педагогларнинг лингвистик компетенцияларини шакллантиришда аралаш таълимдан фойдаланиш методикаси (ўзбек тили машғулоти учун «savodxon» электрон-таълим ресурслари мисолида): пед. фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс... – Урганч, 2020. – 180 б.

maqola muallifining uzoq yillik kuzatishlari material sifatida xizmat qildi. Unda ilmiy-nazariy adabiyotlarni o‘rganish, raqamli resurslarni tahlil qilish, tushunchalarni aniqlashtirish, raqamli lingvodidaktikaning rivojlanishini va til o‘qitishni raqamlashtirish jarayonini kuzatish **metodlaridan** foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** O‘qituvchilarning o‘qituvchisi, ustozlarning ustози sanalgan Yan Amos Komenskiy yuzaki bilimga asoslangan “ichi bo‘sh” maktablar va ulardagi ta’limni butun insoniyatga xizmat qiluvchi inqilobiy o‘zgarishlarga boshlovchi yangi maktab va yangicha ta’limga aylantirgan. U yoshligida yetim qolib, bolaligida maktabga borish imkoni bo‘lmay, 16 yoshida eski maktabga borib, ta’limni muvaffaqiyatli ado qilib, Yevropa bo‘ylab ilm izlab uzoq yillik sayohat qilib, hayot maktabida tarbiya va ta’limga oid topganlarini, to‘plaganlarini “Buyuk Didaktika”ga jamlagan<sup>14</sup>. Bu kabi taqdir Sharq mutaffakirlaridan Sa’diy Sheroziy qismatida ham bo‘lgan: u ham boshlang‘ich ma’lumot olgach, Sharq mamlakatlari bo‘ylab taxminan 30 yillar davomida sayohat qilib, “Nizomiya”, “Mustansiriya” madrasalarida tahsil olib ma’rifatchilik g‘oyalarini “Guliston” va “Bo‘ston” asarlariga jamlagan edi<sup>15</sup>. Bu bebaho kitoblar necha asrlar davomida maktab-madrasalar ta’limida darsliklar sifatida, o‘zbek tilini o‘qitishda XX asr zamonaviy ta’lim muassasalarida ham muvaffaqiyatli foydalanib kelindi. Pedagogikada didaktikaning alohida soha sifatida shakllanishi chex pedagogi Y.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari (1657) bilan bog‘lanadi. Nemis pedagogi A.Distervegning “Nemis o‘qituvchilarini ma’lumotli qilishga rahbarlik” (1834-1835) asarida didaktika pedagogikada ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanishi ta’kidlangan. Albatta, didaktikaning rivojida, garchi bu termini qo‘llamagan bo‘lsalar ham, Sharq mutafakkirlari: Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Alisher Navoiy, Munis va shu kabi ajdodlarimizning ma’naviy merosi alohida qimmatga ega.

Lingvodidaktika (lotincha lingua, “til” + yunoncha didaktikos, “ta’lim”) til o‘rgatishning umumiy nazariyasi bilan shug‘ullanadi. “Lingvodidaktika” rus

---

<sup>14</sup> Коменский Я.А. Великая дидактика. – С-Петербург: Издание редакции журнала “Семья и школа”, 1875 – 1877. – 4 с.

<sup>15</sup> Sa’diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent, 1993.

pedagogikasiga (1969-yilda N.M. Shanskiy), soʻng xalqaro termin sifatida fanga kirib kelgandan buyon (1975-yil) asosan chet tillarni oʻqitishning nazariyasi, usullari va vositalarini tadqiq qiluvchi fan sifatida rivojlanib kelmoqda. Lingvodidaktika ikkinchi til oʻqitish, ona tili oʻqitishning nazariy va metodik masalalarini ham tadqiq qiluvchi fan deb qaralmoqda.

Oʻtgan asrning soʻnggi choragida elektron lingvodidaktika tushunchasi kirib keldi. E.G.Azimov, J.I.Feyzer, T.A. Dyakova, A.D.Garsov<sup>16</sup> kabi olimlar rus tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida oʻqitish jarayonida elektron lingvodidaktikaning oʻrni va rivojlanish bosqichlari aniqlab berishgan.

Maʼlumki, elektron lingvodidaktika – tilni oʻqitishda elektron vositalardan foydalanish nazariyasi va amaliyotini oʻrganadi. U tilni oʻqitish qonunlariga mos keladigan maqsadlar, yondashuvlar, prinsiplar, usullar, kontent komponentlari, vositalar, shakllar tizimi sanalib, talabalarning tilni oʻzlashtirish malakasi, lingvodidaktik vazifalarni innovatsion hal qilishga moʻljallangan.<sup>17</sup> Elektron lingvodidaktika dars jarayonida qoʻllaniladigan tarqatma materiallar, koʻrgazmali qurollarni elektron shaklda ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Lingvodidaktikada xorijiy tillarni oʻrgatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida katta tajriba toʻplangan. Oʻtgan asrda Computer Assisted Language Instruction (CALI), Computer-Assisted Language Learning (CALL), kompyuter lingvodidaktikasi oʻz davrida til oʻrgatish tizimiga kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish jarayoni mohiyatini toʻla ochib bergan boʻlsa ham, fan-texnikaning taraqqiyoti taʼsirida internet texnologiyalarining rivojlanishi, mobil ilovalarning til oʻqitish jarayonida faol foydalanilishi tufayli Electronic

---

<sup>16</sup> Азимов Э.Г. Теория и практика преподавания русского языка как иностранного с помощью компьютерных технологий: автореф. дисс. докт. пед. наук. – Москва, 1996. – 38 с.; Гарцов А.Д. Электронная лингводидактика в системе инновационного языкового образования: дисс. ...д-ра пед. наук. – М., 2009. – 398 с.; Фейзер Ж.И., Дьякова Т.А. Этапы развития цифровой лингводидактики русского языка как иностранного // Русистика. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/etapy-razvitiya-tsifrovoy-lingvodidaktiki-russkogo-yazyuka-kak-inostrannogo>.

<sup>17</sup> Гарцов А.Д. Электронная лингводидактика в системе инновационного языкового образования: дис. ...д-ра пед.наук. – М., 2009. – 398 с.

Learning (e-learning), Mobile Learning (m-learning) terminlarning kirib kelishi CALL konsepsiyasiga o'zgartirish kiritishni taqozo qildi. Technology-Assisted Foreign Language Learning (TAFL) butun arsenalni o'z ichiga qamrab oladigan termin sifatida foydalanila boshladi (Serostanova N.N., Choporova Y.I.).

Raqamli texnologiyalar didaktikaning rivojlanish yo'nalishlariga ham ta'sir qilmoqda. Endilikda raqamli didaktika, raqamli lingvodidaktika kabi yangi terminlar kirib keldi. Raqamli didaktika – pedagogikaning bir bo'limi, raqamli jamiyatda o'quv jarayonini tashkil etish haqidagi ilmiy fan. Raqamli didaktika an'anaviy (raqamgacha bo'lgan) didaktikaning asosiy tushunchalari va tamoyillarini raqamli muhit sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganish, to'ldirish va o'zgartirish haqidagi fan sifatida ketma-ket foydalanadi.

Raqamli lingvodidaktika, xorijiy tillarni o'qitishni raqamlashtirish ko'proq **lifelong-learning**, ya'ni umr bo'yi ta'lim olish va bir vaqtning o'zida ta'limni individuallashtirish nuqtayi nazaridan rivojlantirilayotgan bo'lsa, o'zbek tilini o'qitishda raqamlashtirish yana bir vazifa – o'zbek tilining jahondagi nufuzini oshirishda innovatsion raqamli ta'lim muhitini yaratish masalasi kun tartibida turibdi.

Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilganda uning afzalliklari qatorida elektron ta'lim o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati cheklangan aholi uchun potensial sharoit yaratishi mumkinligi alohida qayd etiladi (Journell W., Hillier M.)<sup>18</sup>.

Tilni o'qitishda raqamlashtirishga oid lingvometodik adabiyotlarni bir necha yo'nalishga ajratgan holda o'rganish raqamli lingvodidaktikaning rivojlanish xususiyatlarini, yo'nalishlarni oydinlashtiradi. Manbalarni dissertatsion va monografik tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, ilmiy konferensiyalar materiallari tarzida guruhlash (jami 47ta ish tahlilga tortildi) va diskurs-tahlil qilish til o'qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish bo'yicha trendlarni aniqlash

---

<sup>18</sup> Journell, W. The inequities of the digital divide: Is e-learning a solution?. E-Learning and Digital Media, 4(2), 2007. 138-149.; Hillier M. Bridging the digital divide with off-line e-learning //Distance education. – 2018. – T. 39. – №. 1. – C. 110 – 121.

imkonini berdi. Xorijiy mamlakatlarda: AQSH, Buyuk Britaniya, Braziliya, Germaniya, Rossiya, Turkiyada til ta'limi uchun raqamli ta'lim resurslarini yaratish va bunday xizmat ko'rsatishning holati bo'yicha keng tahlillar olib borilgan. Tilni o'qitish jarayoniga kompyuter, axborot texnologiyalarini joriy qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar va metodik materiallar jamg'armasi yetarli darajada to'plangan: dissertatsion va monografik tadqiqotlarda (Clark R.C., Mayer R.E.<sup>19</sup>), ilmiy maqolalarda masalaning turli qirralari yoritib berilgan.

O'zbek tilini o'qitish vositalarini takomillashtirishda jahonda raqamli lingvodidaktika erishgan yutuqlar "trend nisha"lar, ya'ni sharqona uy devoridagi bezakli tokcha kabi qiziqish uyg'otadigan sohalar (nisha – taxmon, javon, tokcha, o'yiq joy)<sup>20</sup> ni belgilab olish lozim.

Quyidagi trendlarning tavsifini berishga intilamiz:

**Ta'limiy kompyuter dasturlari:** elektron o'quv kurslari, elektron qo'llanmalar, elektron lug'atlardan foydalanish o'qitishni raqamlashtirishning uzviy qismi sanalmoqda. Ular leksikani o'rganish, to'g'ri talaffuz va fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish, monologik va dialogik og'zaki va yozma nutqni, asosiy grammatik hodisalarni o'rganishda keng qo'llanilishi mumkin.

Ko'pgina **kompyuter dasturlarining mobil versiyalari** mavjud. Bu til o'qitishda Mobile Assisted Language Learning (MALL) yondashuvi hisoblanib o'qitishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Foydalanuvchi teskari aloqa imkoniyati tufayli o'z xatolarini ko'ra oladi, tuzatadi. Duolingo, Lingualeo kabi mobil ilovalarning foydalanuvchilari ortib bormoqda. O'zbek tilini o'rganuvchilar uchun "Savodxon" mobil ilovasi yaratilgan bo'lib, leksik va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

---

<sup>19</sup> Clark R.C., Mayer R.E. E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning. – John Wiley & Sons, 2016.

<sup>20</sup> Бинокорликдан русча-ўзбекча атамалар луғати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994. – 90-бет

Til o'rganishga qulay **videomateriallar va ular asosida tuzilgan topshiriqlar jamlangan xizmatlarni** ham sanab o'tish joiz. YouTube va Utube bir qator ta'limiy resusrlarni taqdim qilmoqda.

Mobil ilovalarning multimediyaviyligi va gipermatnga asoslanganligi tufayli nutqiy qoliplarni, muloqot ko'nikmasi va grammatik qoidalarni o'zlashtirish jarayonini yaxshilaydi, osonlashtiradi. Eng ahamiyatlisi shundaki, mobil lug'atlarga transkripsiya va grammatikaga oid ma'lumotlardan tashqari til birliklarini ovozli yozish va ovozli xabarni tanish, aniqlash funksiyasi ham qo'shilgan.

Shu tariqa mobil ilovalar o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda, shu bilan birgalikda kichik guruhlarda tanish va qulay bo'lgan texnik vosita – qo'l telefonlari orqali mobil formatdagi o'quv kursini egallashga xizmat qiladi.

Mutaxassislar oldida o'zbek tilida gapirish ko'nikmalarini, o'zbek tilida muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan ilovalar yaratish bazifalari turibdi.

**Masofaviy ta'lim texnologiyalarini** alohida tilga olish zarur. Xususan, Skype, Zoom videoaloqa vositalari sifatida foydalanishning qulayligi, oddiyligi bilan jalb qiladi. Bu vositalar orqali individual, juftlikdagi darslar, suhbat klublari, seminarlar, konferensiyalar tashkil qilish, boshqa hududlar va mamlakatlardagi o'zbek tilini o'rganuvchilarni, o'zbek tilida gaplashuvchilarni jalb qilish mumkin. Bu texnologiyalar bir vaqtning o'zida tinglash, gapirishni mashq qilish imkoniyatini beradi, shuningdek chat orqali yozma savodxonlikni ham rivojlantirish mumkin. O'zbek tilini o'rganuvchilar va shu tilda gaplashuvchilarning onlayn muloqoti tufayli nafaqat fonetik, leksik, grammatik xususiyatlar bilan tanishish, balki o'zbek xalqiga xos hayot tarzi, madaniyat, mentalitet, o'zbekona lutfni namoyon qilish, shu tariqa o'zbek tilidagi onlayn muhitni yaratish uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

“Raqamli iqtisodiyot davridagi o'zgarishlar – transformatsiyaga tayyor bo'lmaganlarga shavqatsiz bo'lgan global inqilobiy texnologiya” (B.Bobrovnikov)

aksariyat hollarda an'anaviy metodikaning o'zi noo'rin foydalanilayotganini, bu holat esa deyarli "zanglagan" o'qitish metodikasini paydo qilganligini namoyon qilib turibdi. O'rganishning eng qiyin qismi yangi g'oyani o'zlashtirish emas, balki eskisidan voz kechishdir<sup>21</sup>.

**Xulosalar va tavsiyalar.** Oliy ta'limda muayyan fanlar, jumladan, informatika, ximiya, fizika, biologiya va turli tillar, xususan, rus, ingliz, nemis va h.k. xorijiy tillarni o'qitish amaliyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va istiqboliga bag'ishlangan tadqiqotlar miqdori va miqyosi kengaygani holda o'zbek tilini o'qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy qilish masalasi yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Tan olish kerakki, o'zbek tili ta'limi uchun raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv materiallari, ta'lim kontenti va metodik qo'llanmalar ishlab chiqishda jadallik yetishmayotgandek. O'zbek tilini qardosh tillardagi auditoriyada o'qitishning o'ziga xosligi e'tiborga olingan holda ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha muammolar o'z yechimini kutmoqda. Rus, ingliz, nemis va boshqa tillarni xorijiy til sifatida o'qitishda jahonda mavjud bo'lgan raqamli ta'lim resurslarini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida to'g'ridan-to'g'ri foydalanish yoki o'zbek tilini rus guruhlarida o'qitish jarayonida tayyor konstruktorlarning interfeys tilini o'zgartirmagan holda raqamli resurslarni takomillashtirish yoki yangidan yaratish imkoniyati katta. Aksincha, o'zbek tili darslarida ayni shu raqamli resurslardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkonsiz. O'zbek tili ta'limida elektron va raqamli texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan qator tadqiqot ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, onlayn platformalarda raqamli resurslarni ishlab chiqish, qardosh tillardagi guruhlariga mo'ljallangan ta'lim kontentlarini yaratish va foydalanish metodikasi bo'yicha muammolar yechimini kutib turibdi.

---

<sup>21</sup> Долой среднее! Новый манифест индивидуальности / Тодд Роуз; пер. с англ. И. Ющенко. – 2-е изд., испр. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2018. <https://litresp.ru/chitat/ru/%D0%A0/rouz-todd/doloy-srednee>.

## Adabiyotlar:

1. Agnes Kukulska-Xyum. Mobilnoye obucheniye. Institut YUNESKO po informatsionnym texnologiyam v obrazovanii. Analiticheskaya zapiska IITO. Dekabr 2010.
2. Azimov E.G. Teoriya i praktika prepodavaniya russkogo yazika kak inostrannogo s pomoshyu kompyuternix texnologiy: avtoref. diss. dokt. ped. nauk. – Moskva, 1996. – 38 s.
3. Binokorlikdan ruscha-o‘zbekcha atamalar lug‘ati. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1994. – 224 b.
4. Clark R.C., Mayer R.E. E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning. – John Wiley & Sons, 2016.
5. Declan Byrne, Blended learning. [http://www.trainingreference.co.uk/blended\\_learning/bldacg1.htm](http://www.trainingreference.co.uk/blended_learning/bldacg1.htm)
6. Doloy sredneye! Novyy manifest individualnosti / Todd Rouz; per. s angl. I. Yushchenko. – 2-ye izd., ispr. M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2018. <https://litresp.ru/chitat/ru/%D0%A0/rouz-todd/doloy-srednee>.
7. Fandey V.A. Teoretiko-pragmaticheskiye osnovi ispolzovaniya formi smeshannogo obucheniya inostrannomu (angliyskomu) yazыku v yazikovom vuze. Diss... kandidata pedagogicheskix nauk. – M., 2012.
8. Feyzer J.I., Dyakova T.A. Etapy razvitiya sifrovoy lingvodidaktiki russkogo yazika kak inostrannogo // Rusistika. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/etapy-razvitiya-tsifrovoy-lingvodidaktiki-russkogo-yazyka-kak-inostrannogo>.
9. Garsov A.D. Elektronnaya lingvodidaktika v sisteme innovatsionnogo yazыkovogo obrazovaniya: diss. ...d-ra ped. nauk. – M., 2009. – 398 s.
10. Garsov A.D. Elektronnaya lingvodidaktika v sisteme innovatsionnogo yazыkovogo obrazovaniya: diss. ...d-ra ped.nauk. – M., 2009. – 398 s.
11. Guliston. – Toshkent, 1993.

12. Ignatova N.Yu. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu. [https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)
13. Journell, W. The inequities of the digital divide: Is e-learning a solution?. *E-Learning and Digital Media*, 4(2), 2007. 138-149.; Hillier M. Bridging the digital divide with off-line e-learning // *Distance education*. – 2018. – T. 39. – №. 1. – S. 110 – 121.
14. Komenskiy Ya.A. Velikaya didaktika. – S-Peterburg: Izdaniye redaksii jurnala “Semya i shkola”, 1875 – 1877. 4 s. /292 s.
15. Kozlova N.Sh. Sifroviye texnologii v obrazovani. DOI: 10.24411/2078-1024-2019-11008 <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-tehnologii-v-obrazovani>
16. Magomedova K.T. Etapi razvitiya elektronnoy obucheniya i ix vliyaniye na poyavleniye novix texnologicheskix standartov kachestva elektronnoy obucheniya. *Bulletin of the South Ural State University. Ser. Education. Educational Sciences*. 2015, vol. 7, no. 2, pp. 22 – 29. <https://vestnik.susu.ru/ped/article/viewFile/3647/3335>
17. Minina V.N. Sifrovizatsiya visshego obrazovaniya i yeye sosialniye rezultaty. <https://dspace.spbu.ru/bitstream/11701/17547/1/84-101.pdf>
18. Suxanova T.V. Razvitiye sifrovix obarzovatelnix resursov v zarubejnih stranax (SSHA, Velikobritaniya, Kitay, Braziliya, Germaniya). *Obzor. // Syennosti i smisli*. 2021. №4 (74). S. 38-73.
19. Umarova N. Talabalarining o‘zbekcha yozma nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi: ped. fan.nomz. diss... – Toshkent, 2007.
20. Van Ek J. A. Objectives for foreign language learning. Vol. 1: Scope. Strasbourg, Council of Europe Press, 1986. 89 p.
21. Yuldasheva Sh. Davlat tili ta’limida o‘quvchilar savodxonligini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari (ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan akademik liseylar misolida): ped. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2008. – 135 b.

22. Yusupova G.A. Bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanish metodikasi (o'zbek tili mashg'ulotlari uchun «savodxon» elektron-ta'lim resurslari misolida): ped. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) diss... – Urganch, 2020. – 180 b.

## **ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЎЗЛАШМА ТЕРМИНЛАРНИНГ ПУБЛИЦИСТИК УСЛУБДА ВОҚЕАЛАНИШИ**

**Мукаддас Иргашевна Исраил,  
ЎзДЖТУ ва ЎзЖОКУ профессори**

**Аннотация.** Ижтимоий-сиёсий терминларни ўзлаштириш социолингвистик тадқиқотларнинг муҳим қисмидир, чунки у сиёсий, ижтимоий ва маданий жараёнларнинг тил тизимига таъсирини ва тилни янги лексик унсурлар билан бойитишни акс эттиради. Ушбу ҳодисани ўрганишнинг социолингвистик аспекти терминларни ўзлаштиришга қандай омиллар таъсир қилишини, қайси ижтимоий ва сиёсий гуруҳларга таъсир қилишини ва бу коммуникацияга ва умуман жамиятга қандай таъсир қилишини тушунишга имкон беради. Мақоланинг мақсади ижтимоий-сиёсий лексикадаги ўзлашмаларнинг публицистик услубда воқеаланишини тадқиқ этиш бўлиб, ушбу ёндашув маданий-тарихий диагностика усулини сиёсий лексикадаги вақт ўтиши билан содир бўладиган ўзгаришларни ўрганишнинг муҳим воситаси сифатида аниқлашга имкон берди.

**Аннотация.** Овладение социально-политическими терминами является важной частью социолингвистических исследований, поскольку отражает влияние политических, социальных и культурных процессов на языковую систему и обогащение языка новыми лексическими элементами. Социолингвистический аспект изучения этого явления позволяет понять, какие факторы влияют на усвоение терминов, на какие социальные и политические группы они влияют и как это влияет на коммуникацию и общество в целом. Целью статьи было исследование функционирования

заимствований в социально-политической лексике в публицистическом стиле, и этот подход позволил определить культурно-исторический метод диагностики как важный инструмент для изучения изменений, происходящих по истечении времени в политической лексике.

**Annotation.** Mastering socio-political terms is an important part of sociolinguistic research, as it reflects the influence of political, social and cultural processes on the language system and the enrichment of the language with new lexical elements. The sociolinguistic aspect of studying this phenomenon makes it possible to understand which factors influence the assimilation of terms, which social and political groups they affect and how this affects communication and society as a whole. The purpose of the article was to study the functioning of borrowings in socio-political vocabulary in a journalistic style, and this approach allowed us to identify the cultural and historical diagnostic method as an important tool for studying changes occurring after time in political vocabulary.

Сўнги ўн йилликда тилшунос-сиёсатшунослар ижтимоий-сиёсий лексикани социолингвистик нуқтаи назардан синчковлик билан ўрганмоқдалар. Жамиятнинг сиёсий ҳаётидаги муҳим ўзгаришлар ижтимоий-сиёсий лексиканинг барча фойдаланиш соҳаларида сезиларли ўзгаришларга олиб келди. Бу тил унсурларининг тузилмавий ва маъновий хусусиятларини аниқлашга эҳтиёжни келтириб чиқарди.

Тил соҳасидаги энг сезиларли ва динамик ҳодисалардан бири бу чет тиллардан ўзлаштириш жараёнидир. Ўзлаштириш унсурларнинг бир лисоний-маданий муҳитдан бошқасига кўчиб ўтишини назарда тутди. Илм-фан соҳасида биз янги усуллар ва илмий ишланмаларни, техника соҳасида — янги қуроллар ва қурилмаларни, компьютер технологиялари соҳасида — кодлар, дастурлар ва дастурлаш тилларини, таълимда — замонавий ёндашувлар ва услубиётларни ва бошқаларни ўзлаштирамиз. Ушбу рўйхатни чексиз давом эттириш мумкин. Турли соҳаларда ўзаро ҳамкорлик

жараёнлари кучаймоқда, тараққиёт тезлашмоқда ва, натижада, интенсив ахборот алмашинуви ва ўзлаштириш юзага келмоқда.

Ҳозирги вақтда илмий лингвистик адабиётларда сиёсий тилни нафақат сиёсий нутқнинг семиотик маконини ташкил этувчи тузилмавий белгилар тўплами" деб ҳисоблаш мумкин, деган фикр тобора кучайиб бормоқда. Динамик тараққиёт жараёнлари энг жадал намоён бўладиган замонавий адабий тилнинг лексик категориялари орасида Янги Ўзбекистон сиёсий тилида муҳим роль ўйнайдиган сиёсий лексика соҳасини ажратиб кўрсатиш мумкин. Г. Бакиева ва Д. Тешабаеванинг «Медиамаконда матн» номли монографиясида шундай фикрлар келтирилган: Медиаматнларни тадқиқ жараёнида янгича ёндашувлар фақат дунё тилшунослиги ривожланишининг умумий йўналишлари билангина боғлиқ эмас. Оммавий коммуникациянинг ўзгарувчан вазифалари, жамиятда рўй бераётган ўтиш даври жараёнлари ҳам бунга бевосита таъсир кўрсатади. Бу эса, жамиятда маданият, сиёсат ва мафкурада рўй бераётган жараёнларни инобатга олган ҳолда, оммавий коммуникация матнини англаш заруриятини келтириб чиқаради.[1; 8]

Замонавий лингвистик адабиётларда замонавий сиёсий тилни турли нуқтаи назардан таҳлил қилаётган илмий тадқиқотларни учратиш мумкин. Ушбу тадқиқотлар турли аспектларни ўз ичига олади, масалан:

1. Сиёсий тилнинг мавзувий ва ҳиссий тавсифларини аниқлаш билан шуғулланадиган мавзувий ва номинатив-баҳоловчи таҳлил.

2. Сиёсий иборалар ва конструкцияларнинг вазифасини ва тузилмавий семантикасини тадқиқ этувчи вазифавий-услубий ва тузилмавий-семантик ёндашув. [3; 41]

3. Сиёсий тил асосидаги асосий концептуал тоифалар ва мафкуравий аспектларни аниқлашга қаратилган концептуал таҳлил. [2; 85-86]

Ушбу тадқиқотлар замонавий ўзбек ва рус сиёсий тилини турли нуқтаи назардан чуқурроқ тушуниш ва таҳлил қилиш ҳамда унинг кўп қиррали табиатини очиб бериш имконини беради.

Бошқа тиллардан сўзларни ўзлаштириш жараёни лингвистик мунозараларнинг асосий мавзуларидан биридир. Инқилобдан кейин тилшуносларнинг назарий тадқиқотлари сиёсий лексикадаги хорижий сўзларни ўзлаштиришда нима учун ва қандай тенденциялар мавжудлигини тушунтиришга ҳаракат қилади. Бунинг учун улар номлашнинг ўзгариши ёки мафкуравий коннотациялар натижасида сўзнинг маъноси қандай ўзгаришини таҳлил қилиш учун лексикографик манбаларни ва газета матнларини ўрганишга киришдилар. Ушбу тарихий даврни тадқиқ қилишнинг муҳим жиҳатларидан бири ижтимоий омилларнинг сиёсий сўзларнинг семантик тузилишидаги мафкуравий таркибий қисмнинг ҳолати ва коммуникатив-прагматик имкониятига қандай таъсир қилишини тавсифлаш эди.

Публицистикада ижтимоий-сиёсий терминологиянинг акс этиши коммуникация ва жамоатчилик фикрини шакллантиришнинг муҳим жиҳати ҳисобланади. Публицистика — жамиятдаги воқеа ва ҳодисаларни, шу жумладан, сиёсий жараёнларни таҳлил қилиш ва шарҳлашни қамраб олувчи журналистика жанри. Шу нуқтаи назардан, тегишли терминологиядан фойдаланиш ахборотни узатиш ва нуқтаи назарни шакллантириш учун асосий восита ролини ўйнайди.

**Махсус терминлардан фойдаланиш:** Публицистика кўпинча воқеаларни тасвирлаш ва таҳлил қилиш учун сиёсат, иқтисодиёт ва социология соҳаларидаги терминлар ва тушунчалардан фойдаланади. Бу муаллифларга ўз фикрлари ва ғояларини аниқ ва равшан ифода этиш имконини беради.

**Образларни шакллантириш:** Публицистика ўқувчилар ёки тингловчиларнинг онгида маълум бир образлар ёки тасаввурларни яратиш учун терминлардан фойдаланиши мумкин. Масалан, «ислоҳот» ёки «коррупция» сўзлари маълум ҳис-туйғулар ва тасаввурларни уйғотиши мумкин.

**Сиёсий мунозаралар:** Публицистикада сиёсий жараёнлар ва мунозаралар билан боғлиқ терминлар фаол қўлланилади. Бу партиялар, номзодлар, платформалар ва сиёсий стратегияларни тавсифловчи терминларни ўз ичига олиши мумкин.

**Фрейминг ва манипуляция:** Баъзан публицистикада жамоатчилик фикрини бошқариш учун терминларни қўллаш мумкин. Бу воқеаларни идрок этишга таъсир қилиш учун ижобий ёки салбий маънога эга сўзлардан фойдаланишни ўз ичига олиши мумкин.

**Жамоатчилик фикрини шакллантириш:** Публицистика жамоатчилик фикрини шакллантириш воситаси бўлиб хизмат қилиши мумкин. Ўзлашган маълум бир терминлар ва далилларни қўллаш воқеаларни талқин қилишига ва аудиториянинг эътиқодига таъсир қилиши мумкин.

**Контекст ва талқин:** Публицистика, ўқувчилар учун контекст ва талқинни таъминлаган ҳолда, ўзлашган терминлар ва тушунчаларни тушунтиришга ёрдам бериши ҳам мумкин. Шунини таъкидлаш керакки, публицистикада турли хил қарашлар ва услублар бўлиши мумкин ва терминологиядан фойдаланиш муаллиф, нашр ва мақсадли аудиторияга кўра фарқланиши мумкин. Бу ўқувчиларга ижтимоий-сиёсий воқеалар ва жараёнларга турли истиқболларни белгилаш имконини беради.

Ижтимоий-сиёсий терминларни ўзлаштириш социолингвистик тадқиқотларнинг муҳим қисмидир, чунки у сиёсий, ижтимоий ва маданий жараёнларнинг тил тизимига таъсирини ва тилни янги лексик унсурлар билан бойитишни акс эттиради. Ушбу ҳодисани ўрганишнинг социолингвистик аспекти терминларни ўзлаштиришга қандай омиллар таъсир қилишини, қайси ижтимоий ва сиёсий гуруҳларга таъсир қилишини ва бу коммуникацияга ва умуман жамиятга қандай таъсир қилишини тушунишга имкон беради. Ижтимоий-сиёсий терминларни социолингвистик контекстда ўзлаштиришнинг баъзи асосий аспекти қуйидагилар:

**Ижтимоий-маданий контекст:** терминларни ўзлаштириш сиёсий воқеалар, миграция, маданий алмашинув ва медианинг таъсири каби ижтимоий-маданий омилларга боғлиқ. Масалан, сиёсий ўзгаришлар ёки инқилоблар даврида терминларни чет тилларидан интенсив ўзлаштириш амалга ошиши мумкин.

Ижтимоий-сиёсий терминларнинг ўзлаштирилиши тадқиқ этиш ижтимоий-сиёсий ўзгаришларни акс эттиради ва бу жараённинг маълум бир маданият ёки лисоний гуруҳ доирасидаги мулоқотга қандай таъсир қилишини кўрсатади.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Бакиева Г. Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. Монография. – Т.: Turon-Iqbol, 2019. 8-б.
2. Воробьева О.И. Политическая лексика. Ее функции в современной устной и письменной речи. — Архангельск, 2000.
3. Заварзина Г.А. Семантические изменения общественно-политической лексики в 80-90 годы XX века (по материалам словарей и газетной публицистики): дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 1998.
4. Какорина Е.В. Трансформация лексической семантики и сочетаемости (на материале языка газет). // Русский язык конца XX столетия (1985–1995). – М.: Языки русской культуры, 1996. — С. 67-89.
5. Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. — СПб.: Златоуст, 1999. — 320 с.
6. Курасова Е.В. Семантические неологизмы общественно-политической сферы в русском языке новейшего периода: дис. канд. филол. наук. – Воронеж, 2006. – 237 с.

#### **RUSIYZABON TALABALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY YOZMA ISHLAR AHAMIYATI**

Z.Salisheva,

O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedراسи dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola rus guruhi talabalarining bog‘lanishli nutqini rivojlantirish muammolariga bog‘ishlangan. Unda nutqiy faoliyat turining

murakkab shakllaridan biri hisoblangan yozma nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** til va nutq, bog'lanishli nutqni rivojlantirish, insho, bayon.

**Аннотация.** Статья посвящена актуальной проблеме развития связной узбекской речи студентов русских групп. Особое внимание уделяется развитию письменной речи, как наиболее сложной форме речевой деятельности.

**Ключевые слова:** язык и речь, развитие связной речи, методика обучения узбекскому языку, сочинение, изложение.

**Abstract.** The article is devoted to the actual problem of the development of coherent Uzbek speech among students of Russian groups. Special attention is paid to the development of written language, as the most difficult form of speech activity.

**Key words:** language and speech, development of the coherent speech, technique of teaching Uzbek language, composition, statement.

Rusiyzabon talabalar nutqini rivojlantirishda ijodiy matn (bayon, insho) yaratish muhim o'rin tutadi. Ushbu ish turlari talabani ko'rgan, eshitgan voqea-hodisani izchil bayon etish, unga o'z munosabatini bildirish va shu bilan bir qatorda o'z fikrini bog'lanishli, mazmunli ifodalashga ham o'rgatadi. Bunday ish turlari savodxonlik darajasini oshirishga, so'zlar va gaplarni bir-biriga bog'lovchi vositalarni to'g'ri tanlash va o'z o'rnida qo'llashga o'rgatadi, bir xil so'zlar va grammatik so'zlarni qayta-qayta takrorlash – tautologiyaning oldini olishga yordam beradi. Insho, avvalo, tafakkur mashqlaridir. Dastlabki fikrlash insho mashqlaridan boshlanadi. Inshoning mazmun-mohiyati muayyan mavzu doirasida fikr yuritish, har qanday mavzu to'g'risida erkin fikrlash va taassurotlarni izchil bayon qilishdan iborat. Insho yozishning asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini erkin mantiqiy izchil, chiroyli, savodli ifodalashga o'rgatishdir. Insho yozishda talaba ifodalar jamg'armasini yig'adi, o'zi uchun notanish yangi jummalarni, so'zning yangidan-yangi ma'no ifodalash

imkoniyatlarini qidirib topadi va qo‘llaydi. Ana shu tarzda talaba o‘zining so‘z boyligini orttirib boradi.

Odatda, rusiyzabon talabalarning deyarli ko‘pchiligi ruscha fikrlab, o‘zbekcha nutq so‘zlaydi. Agar inshoga e‘tibor maktab bosqichidanoq kuchaytirilsa, insho uchun tanlangan mavzular qiziqarli va xilma-xil bo‘lsa, bu o‘quvchi-talabalar nutqini o‘stirishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada ular nutq so‘zlashda qiynalmaydilar.

To‘g‘ri, darslarda o‘quvchi-talabalarga “Taassurotlaringiz asosida ijodiy ish yozing”, “Biror mavzu asosida ijodiy ish yozing”, “Taassurotlaringizni so‘zlab bering” kabi topshiriqlar ko‘p beriladi. Biroq o‘quvchi-talabalar tomonidan bajarib kelinadigan ushbu ijodiy ishlar, uy insholarini tahlil qilib chiqish shuni ko‘rsatdiki, ular aksariyat hollarda deyarli bir xil yoziladi. Ushbu insholarning ko‘pchiligi 5-6 gapdan 7-8 gapgacha bo‘lgan hajmdagi eng sodda konstruksiyali gaplardan tuziladi. Buning boisi, avvalo, mavzularning deyarli bir xil berilishida. Chunonchi, “Mening Vatanim”, “Mening oilam”, “Birinchi ustozim”, “Men tanlagan kasb”, “Men sevgan qahramon” kabi mavzular umumiy o‘rta ta‘lim bosqichida ham, keyingi ta‘lim bosqichlarida ham takrorlanib kelaveradi. Bu esa, albatta, o‘quvchi-talabalarning qiziqishlarini so‘ndiradi, ulardagi tafakkur, fikrlash jarayonini ham to‘xtatib qo‘yadi.

E‘tibor bilan qaraydigan bo‘lsak, birinchi sinfga qadam qo‘ygan o‘quvchi (birinchi bosqichga qabul qilingan talaba ham) ta‘lim dargohiga katta bir qiziqish, yuksak bir ishonch bilan kirib keladi. U har bir fandan, har bir darsdan yangilik kutadi. O‘qituvchi o‘z fani bo‘yicha beriladigan bilim va malakalarni sinfma-sinf, bosqichma-bosqich rivojlantirib borsa, ana shu qiziqish so‘nmaydi, aksincha kuchayib boraveradi. Shu bois o‘quvchi talabalarga ijodiy ishlar berishda, bayon va insholar yozdirishda ushbu erkin mavzularning sayqallashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Yuqori bosqichlarga chiqqan sari inshoning tasviriy, qiyosiy, muhokama insho turlarini tatbiq etish, o‘quvchi-talabalarning ko‘rgan, bilgan, eshitgan,

o'qiganlarini qiyosiy tahlil etishga, o'zi muhokama qilishga o'rgatib borish kerak bo'ladi. Ularning o'zbek tilida bemalol fikrlashi, erkin muloqot qilishi, turli uslublarda bog'lanishli matnlar tuzish va gapirib berish malakalarini shakllantirish uchun ko'proq adabiy o'qish materiallariga, ijtimoiy, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi mavzularga o'quvchi-talabalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda bosqichma-bosqich kengaytirib, murakkablashtirib borish ularning fikrlash hamda qiziqish doirasining ham kengayib borishiga, shunga mos holda lug'at boyligining o'sib borishiga olib keladi.

Ma'lumki, ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda insho va bayon yozishga o'rgatishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada qator qo'llanmalar va tadqiqot ishlari ham yuzaga kelgan bo'lib, O.Madayevning "Insho qanday yoziladi?", S.Dolimovning "Ta'limiy bayon va insho", S.Ismatovning "O'rta maktablarning yuqori sinflarida insho", R.Yo'ldoshevning "Insholardagi matniy xatolar, ularni bartaraf etish metodikasi" qo'llanmalari, N.Sattorovanning "O'quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish (5-sinfda ona tili o'qitish jarayonida)", M.R.Hazratqulovning "Adabiy ta'limda inshoning o'rni va uni tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari" mavzularidagi tadqiqot ishlari shular jumlasidandir. Ularda insho turlari, mavzulari, insho rejasini tuzish, insho yozishga o'rgatish usullari, insho nutqni to'g'ri qurish hamda fikrni aniq ifodalashga o'rgatish, voqealar rivojida ketma-ketlikni belgilash, insholardagi matniy xatolar va ularni bartaraf etish usullari, ona tili darslarida tashkil etiladigan insholarda bevosita o'quvchilarning yozma savodxonligini nazorat qilish, umumiy o'rta ta'limning yuqori bosqichida inshoni tashkil etish masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablar o'quv dasturlarida bayon va insho yozish standart talabalariga kiritilmagan, shu bois darsliklarda faqat ijodiy matn yaratish topshirig'i beriladi. OTMLar fan dasturida o'quv mashg'ulotlarida bayon yoki insho yozishga o'rgatish mavzular rejasiga kiritilmagan. Rus guruhlar

talabalarining monologik nutqini rivojlantirishda ushbu ish turlaridan foydalanishning samarasi katta.

Insho yozish sarlavhani to'g'ri belgilashdan boshlanadi. Inshoni to'g'ri nomlash uchun undagi asosiy fikrni ajrata olish kerak. Inshoga material to'plash ham uni to'g'ri yoritishda muhim ahamiyatga ega. Insho uchun asosiy material bu, avvalo, hayotning o'zi, uning kitoblardagi, san'atdagi ifodasidir. Insho uchun material to'plashda manba muhim ahamiyatga ega. Masalan, badiiy asar asosida material to'playotganda yozuvchining maqsadi, asarda ishtirok etgan shaxslar, yozuvchi yoki shoirning obraz yaratish mahorati, asardan chiqariladigan xulosa kabilar markaziy o'rinni egallaydi. To'plangan materialni tartibga solish va uni muayyan izchillikda bera olish ham talaba uchun o'ta zarur malakalardan biri sanaladi. Tartibga solish bu, avvalo, to'plangan materialni saralash, zarurini ajratish, ularni mantiqiy izchillikda joylashtirish demakdir. Bu ishda talabaga puxta o'ylab tuzilgan reja yaxshi yordam beradi. Yozilgan inshoni takomillashtirish, unda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bataraf etish ham talabalar uchun zarur malakalardan biridir. Monologik nutqni rivojlantirishda qo'llaniladigan bunday yozma ish turlari muayyan tizimga ega bo'lishi, izchillik, bir butun yaxlitlikni tashkil qilishi kerak.

Demak, ijodiy yozma ishlarning maqsadi savodxonlikni mustahkamlashgina emas, balki bog'lanishli nutq malakasining matn sintaksisi darajasida shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin yaratishdir.

## **ИНГЛИЗ, ЎЗБЕК ВА ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛЛАРИДА УНДАЛМАНИНГ КОММУНИКАТИВ ВАЗИФАЛАРИ**

Сейтжанов Жеткербай Елубаевич,  
филология фанлари номзоди,  
профессор

**Аннотация.** Ушбу мақолада инглиз, ўзбек ва қорақалпоқ тилларида ундалманинг турлари ва коммуникатив вазифалари ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** эркалаш, ижобий, салбий, нейтрал, ундалма, морфема, метофоризация.

Нутқ қаратилган шахс ёки нарса, яъни ундалма ифодалаган шахс ёки нарса сўзловчи нуқтаи назаридан ижобий, салбий ва нейтрал бўлади. Ижобий муносабатни иккига бўлиш мумкин: 1) эркалашни ифодаловчи сўзлар ва 2) хурматни ифодаловчи сўзлар. Ундалмада эркалашни ифодаловчи воситалар морфема, сўз ва сўз бирикмаси бўлиб келади.

Ўзбек ва қорақалпоқ тиллари инглиз тилидан эркалаш муносабат ифодаловчи морфемаларнинг кўплиги билан фарқ қилади.

Ўзбек тилида куйидаги морфемалар эркалаш муносабатини ифодалайди: **-хон/хан** (Жамилахон/хан), **-жон/жан** (амакижон, Аҳметжан), **-лоқ** (қизалоқ), **-ой/ай** (Турсуной/ай), **-биби** (Тошбиби), **-чок/шак** (кўзичок), **-ча** (йигитча), **-чак** (келинчак), **-нисо/ниса** (Кутбинисо), **-гина/кина/қина** (болагина), **-той/тай** (Хотамтой), **-пошша** (келинпошша), **-гул** (Бибигул), **-бону** (Халимабону), **-шо/шоҳ** (Акбаршоҳ), **-(и)м** (ўғлим). (Қаранг: Ўзбек тили изоҳли луғати. 5-жилд. 572-591-бетлар). Бу эркаловчи отларнинг барчаси ундалма бўлиб кела олади. Мисоллар:

Ҳазил, **Жамилахон**. (Мирмуҳсин, 22).

Таслап кетпең, **атажан**...

Бу морфемалар ёрдамида эркалаш маъносини ифодалаш қорақалпоқ халқининг миллий хусусиятига киради. Улар маълум турдаги отларга кўшилади ва лингвокультуремалар қаторига киради. Уларнинг кўпчилиги жинс (гендер) ифодалайди.

Инглиз тилида эркалаш морфемаси фақат битта **-y/ie** (aunty/auntie) ва у фақат қариндош уруғ ифодаловчи отларнинг айримларигагина кўшилади: Мисоллар:

Hang on a minute, **Aunty**. (Kidd, 10)

Better go home to your mother, **sonny**. (LDCE, 1005)

Учта тилда ҳам ширинлик ифодаловчи сўзлар одатта эркалашни ифодалайди. Инглиз тилида **honey, sweetie, sugar**. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларида **асалим, шакарим, набатым**.

**Honey**, that's a swell dress you've got on! (LDCE, 502)

It won't be against your will, **my sweet**. (Kidd, 143)

Йиғлама, **асалим**. (Мирмуҳсин, 95)

Кел қасыма, **набатым**.

Бундай ҳолатларда қандолатдаги ширинлик белгиси инсонга кўчирилган. Яъни метофоризация ҳодисаси рўй берган.

Инглиз тилида эркалаш маъноси love, darling, sweetheart, child, eagle, handsome, beautiful, true; ўзбек ва қорақалпоқ тилларида жаным, сўйиклим, баўырым, аппағым, периштем, маликам, айланай, ўргилай, тасаддуқ, хўжам, хоним, дўмбоғим, гўзал(им), буғирсоғим, кўзим/кўзичоғим, меҳрибоним, тентагим/тентакчам, гулим, ёрим, чироғим, полвон, эркам, бургутларим, қоракўз(им), шўнқорларим, яғонам, дўндуқчам, жонон ва ҳоказо каби сўзлар ёрдамида ҳам ифодаланади.

No, I won't hang on, **love**. (Kidd, 10)

Хош келипсен, **сўйиклим**.

Кўрқманг, **маликам**, мен сизнинг ёнингиздаман. (Азимий, 5)

Таниш ҳам гапми, айланай, у кишининг қайнағалари бизга амаки бўлади. (Мирмуҳсин, 50)

Эркалаш ифодаловчи сўз бирикмалар қорақалпоқ тилида ижобий муносабатни ифодаловчи сўз+қариндошлик ифодаловчи от+эғалик кўшимчаси орқали ясалади. Жан балам, жан эке, набат қызым, аппақ қызым ва ҳоказолар. Инглиз тилида: Old chap, Му+шахс ифодаловчи от, my friend, my boy, my dear boy, my love ва ҳоказолар. Мисол:

**Жан балам**, ол жаққа барма.

**Аппақ қызым**, мен қасындаман.

A toast to you, **my sweet sister**. (Wesker, 134)

Хурмат маъносини ифодаловчи ундалмаларга келсак, улар асосан сўз ва сўз биркмалари ёрдамида ифодаланади. Хурмат маъноси инглиз, ўзбек ва қорақалпоқ тилларида қуйидаги сўзлар ёрдамида ифодаланади: dear, dearest, sir, gentleman, lady, mister, madam, miss, missis, excellency, God, brave; азизлар, амаки, ота, ака, ука, иним, болам, ўғлим, синглим, қизим, хола, оғайни, келинойи/кеннойи, келинпошша, янга, хоним, хўжайин, биродар, жўралар, ўртоқ, таксир, ҳазратим, опоғойи, жигарлар, аллоҳ/оллоҳ, худо, жиян, парвордигор, олампаноҳ, эгам, кадрдон, ёронлар, қардошлар, қаҳрамон, паҳлавон, ботир, азамат, дадаси, онаси, опаси ва ҳоказолар. Мисоллар:

Looking for a waitress job, **dear**? (Adamson, 116)

**Sir**, I've been wanting to wear a Navy uniform since I was twelve years old.  
(Robbins, 33)

**Азизлар**, даштга юборилган қўшин пароканда бўлиб, орқага қайтиб келди. (Мирмуҳсин, 102)

Хой, **амаки**, уч яшар қизни кўрдингизми? (Мирмуҳсин, 19)

Қорақалпоқ тилида қариндошлик ифодаловчи сўзларни бегоналарга нисбатан ишлатганда ҳурмат маъноси пайдо бўлади. Масалан, дўконда сотувчи катта ёшли харидорга аға, апа, кише, ажаға ва ҳоказолар деб мурожаат қилади.

**Ажаға**, қайсысын сатып аласыз?

**Кише**, тўрт нан берип жибериң.

Инглиз тилида бундай ҳолат фақат **son** (ўғил) сўзидагина кўринади.

What are you doing out here, **son**? (Robbins, 21)

Хурмат сўз бирикмаси билан ифодаланганда бирикма таркибида қуйидаги сўзлар бўлади: Инглиз тилида: Dear, Sir, Lady (фахрий унвон маъносида), Your Excellency, His/Her Excellency, Your Majesty, His/Her Majesty Mr, Miss, Captain, Lieutenant, Mayor (ҳарбий унвонлар олдидан) My, My dear, Professor, Doctor, Gentle, Monsieur ва ҳоказо; Ўзбек тилида: ҳурматли, қадрли/қадрдон, мухтарам, атоқли, азиз, буюк, она (аниқловчи

вазифасида) улуғ, ота, опа, ака, ука, иним, синглим, болам, қизим, мовлоно, барака топгур ва ҳоказолар.

Tell me, **Mr Simon**, have you got any relatives or friends in England?  
(Shute, 36)

If you see that Wren, **Miss Wright**, would you remind her to be sure and feed my rabbit? (Shute, 146)

Elaine, **my dear**, this is Mr Colvin. (Shute, 137)

**Муҳтарам меҳмонлар**, ҳозир, мени сандиқ ичига жойлаб, қопқоғини ёпишади. Шундан кейин учгача сананглар ва истаган кимса келиб, сандиқни очиб кўрсин. Мен у ерда бўлмайман. (Азимий, 5)

Ассалауму-алейкум, **муҳтарам радио тингловчилар**, ҳаво тўлқинларида “Қишлоқ ҳаёти” эшиттириши. (“Келгинди куёв” фильмидан) Ишларингиз яхшими, **Жамила опа**? (Мирмуҳсин, 32)

**Асқарали ака**, эртага дам олиш куни бир эски шаҳарга бориб келайлик. (Мирмуҳсин, 69)

**Мардонқул болам**, йўлкада ётган эмиш, олиб кет, савоб бўлади. (Мирмуҳсин, 162)

Салбий муносабатлар ҳам сўз ва сўз биркмаси билан ифодаланади.

Қиёсланаётган тилларда салбий муносабат ифодаловчи ундалмаларда асаосан салбий маъно ва салбий эмоция ифодаловчи от, отга айланган сифатлар, сифатдошлар (Инглиз тилида: fool, buddy, idiot, moron, silly, mad, bullshit, stupid, bloody, crybaby, beast, ungrateful, dirty, filthy ва ҳоказо; Ўзбек тилида: иблис, жинни, номард, қотил, беномус, сатанг, шилқим, уятсиз, айёр, беадаб, бефаросат, аблах, нодон, бадбахт, тентак, ярамаслар, аҳмоқ, жувонмарг, кўрнамак, имонсиз, бетамиз, беномис, мишқи, маррас, ифлос, эшак, йиртқичлар, қирчанғи, боёвочча, пэс, бузук, ҳароми, шукирсиз, динсиз, шарманда, душман, ғаламус, лўттибоз, хотинбоз, қуморбоз, босқинчи, эсипаст/эсийўк, ҳайвон ва ҳоказо) ва метафоризацияга учровчи ҳайвонлар номлари (Инглиз тилида: ass, swine, pig, dog, fox, ape, baboon, cat ва ҳоказо;

Ўзбек тилида: эшак, чўчка, ит, тулки, маймун, мушик ва ҳакозо), диний атамалар (devil, witch, monster, жодигар, шайтон, ажина) ишлатилади.

What did you say to me, **fool**? (Robbins, 80)

Look, **pig**, I don't enjoy you. (Albee, 16)

**Мишки, маррас, котил**, шунақа ҳам бўладими? (“Сугдиёна” фильмидан)

**Эшак**, хей, **эшак**, ўзингнинг жойинга ўтирсанг-чи, эшаклар ҳам стулда ўтирадими? (Рахматиллаева, 45)

Одатда, инглиз тилида қорақалпоқ тилидан фарқли ўлароқ, салбий муносабат ифодаловчи сўзлар олдидан **you** олмоши ишлатилади: (you bastard, you swine, you idiot, you silly, you fool, you brute, you devil, you oaf, you ass, you rubbish) ва ҳоказо.

Listen, **you bastard**. (Segal, 91)

Бу сўз бирикмаларнинг айримлари клише (стеротип бирикмалар) бўлиб тайёр ҳолатда ишлатилади. Шу жиҳатдан уларни фразеологик бирикмалар деса ҳам бўлади.

Салбий муносабат ифодаловчи ундалмалар тўғрисида гапирганда шуни ҳам айтиш керакки, ҳар бир тилнинг оғзаки шаклида ўта вульгар сўзлар ишлатилади. Маълумки, улар бадий адабиётларда ва луғатларда акс этмайди.

Ундалмаларнинг кўпчилигида муносабат ифодаланмайди, шунинг учун улар нейтрал ундалмалар дейилади. Улар ҳам сўз ва сўз бирикмаси билан ифодаланади. Мисоллар:

Just do as I ask, please, **Sara**? (Kidd, 20)

Life strikes again, **diver man**? (Robbins, 127)

Ўзингдан ўтар гап йўқ, **Тошпўлат**,... (Мирмуҳсин, 30)

- Ҳой, **Жуман сўфининг қизи**, ёш болани кечаси кўрқитма. (Исмоил, 158)

Демак, муносабат ифодалаш бўйича инглиз, ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги ундалмалар бир-биридан кескин фарқ қилади. Бу фарқларнинг

сабаби инглиз, ўзбек ва қорақалпоқ халқларининг маданиятидаги фарқларга бориб такалади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. М., 1997.
2. Дорофеева И.В. Английское обращение в системе языка и в дискурсе. АКД. Тверь, 2005.
3. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. М., 2004.
4. Маъруфов З., Абдурахмонов Ф. Ўзбек тилидан қўлланма. Тошкент. 1956.
5. Мухин А.М. Структура предложений и их модели. Л., 1968.
6. Остин Дж. Слово как действие. //Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. Теория речевых актов. М., 1986. с. 22-129.
7. Печников А.Н. К вопросу о смысловых и грамматических связях обращения в предложении. //Уч. зап. Куйбышевск. гос. пед. инст. Вып. 40. Куйбышев, 1963. с. 81-84.
8. Проничев В.П. Синтаксис обращения. Л., 1971.
9. Рыжова Л.П. Обращение как компонент коммуникативного акта. АКД. М., 1982.
10. Сайфуллаев Р.Р. Обращение в современном узбекском литературном языке. Самарканд, 1959.

### **DARS JARAYONIDA “KEYS-STADI” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AMALIY O‘RNI**

S. Sultansaidova,  
O‘zDJTU Jahon adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n.,  
O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limia’lochisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dars jarayonida “Keys-stadi” pedagogik texnologiyasidan foydalanishning amaliy o‘rni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiya, “Keys-stadi”, muammoli vaziyat, talabalar, tajriba, metod, interfaol.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается практическая роль использования педагогической технологии тематического исследования в процессе урока.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, “Keys-stadi”, проблема, проблематичная ситуация, студенты, опыт, метод, интерактивный.

**Annotation.** This article reflects on the practical role of using the pedagogical technology “Keys-stadi” in the course of the lesson.

**Key words:** pedagogical technology, “Keys-stadi”, problem, problematic situation, students, experience, method, interactive.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Abdulla Qahhorning “Sarob” romani, mening nazarimda, avvalo, psixologik roman, qolaversa, optimistik roman. Unda garchi, asosan, salbiy obrazlar, salbiy situatsiyalar tasvirlangan bo‘lsa-da, ulardan odamning qalbini larzaga keltiradigan energiya ufurib turadi. Salbiy obrazlar psixologiyasi ular yashayotgan davrning psixologiyasidir. Bu ruhiyat ularning ajdodlaridan o‘tib kelyapti. Ularni nafaqat davrning, eng avvalo, genlarining turtkisi, diktovkasi harakatga keltiradi. Bu xususiyatni yaxshi tushungan yozuvchi ularni tasvirlaganda, aytish mumkinki, neytral holat bilan, bizningcha, hattoki ularning taqdiriga biroz achinib, biroz o‘ylanib, yozgan bo‘lsa kerak. Shuning uchun ham bu romanni o‘qigan odamda ulardan nafratlanish tuyg‘usi emas, qandaydir yorqin tuyg‘u qoladi. Bu tuyg‘u odamni noto‘g‘ri hayot kechirsa, oxir-oqibatda Saidiyning hayotidek sarobga olib borishini namoён қилади.

Bu romanda muammoli vaziyatlar juda ko‘p. Bu vaziyatlarnu hal qilish uchun “keys stadi” texnologiyasidan foydalanish qo‘l keladi. Xo‘sh, bu metodning mohiyati qanday? “Keys-stadi” (ingliz tilida “case” majmua, aniq vaziyat, “stadi”

– ta’lim) demakdir. Bu texnologiya o‘quvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan vaziyatning muammoli vaziyatini tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Texnologiyaning samaradorligi o‘quv jarayonini quyidagi texnologik bosqichlarda tashkil etilishiga bog‘liq: 1) keys echimini topish bo‘yicha individual ishlash; 2) keys yechimini topishda jamoaviy hamkorlikka erishish. Mazkur texnologiyani qo‘llashda individual ishlashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

1) o‘quvchining keys-stadi texnologiyasi mohiyati va undan foydalanish shartlari bilan tanishishi; 2) o‘quvchi tomonidan taqdim etilgan muammoning o‘rganilishi. Masalan, “Sarob” romanida muammoli vaziyatlardan biriga ko‘ra muammo shunday voqeani ifodalaydi: Romandagi bosh obraz Saidiy Munisxonni sevib qoladi. Munisxon ham uni sevadi, lekin u boy qiz. Saidiy ni pisand qilmaydi. Ammo u Saidiy ni qo‘yib yubormaydi. Saidiy nima qilishi kerak? Mana muammo. Uning yechimini topish uchun; muammo yuzasidan asosiy va ikkinchi darajali masalalarni ajratish, shakllantirish va asoslashga o‘rgatiladi, tadqiqot metodlarini tanlash va vaziyatni tahlil qilish uchun taqdim etilgan muammoning amaliy jihatlari o‘rgatiladi.

Bunda berilgan muammoni yechishning usul va vositalarini aniqlashadi. Demak, romandagi asosiy masalalar: ularning universitetda birga o‘qishlari, o‘qishdan keyin birga dars tayyorlashlari, har kuni, albatta, bir-biridan xabardor bo‘lishlari kabi holatlardir. Ikkinchi darajali xususiyatlar Saidiyning Munisxon bilan munosabatlari kamayadi va u Munisxohdan butunlay voz kichadi. Munisxon o‘zi xohlamagan odamga turmushga chiqadi va yomon yo‘lga kirib ketadi. Muammo yechildi. Bundan qanday xulosa chiqarganlari haqida talabalar o‘z taassurotlarini aytib yoki yozib beradilar va taqdim etilgan yechimni ta’lim amaliyotiga tadbiiq etish chora-tadbirlarini belgilashdan ogohlantiriladi.

Har bir badiiy asarda, har bir inson hayotida muammoli vaziyat yuz beradi. Talabalarga shunday muammoli holatlarda qanday yo‘llardan foydalanish kerakligi haqida o‘rganishi bo‘yicha maslahatlar beriladi. Masalan, A.Qahhorning “Sinchalak” qissasida juda ko‘p muammolar mavjud : Saida bilan Qalandarov o‘rtasida konflikt –muammo vujudga keladi: Qalandarov Saida uning ishlariga aralashishini istamaydi. Saida aralashaveradi, chunki uni topshiriq bilan yuborishgan. Ularning o‘rtalarida muammo vujudga kelgan, tortishuv boshlahadi. Qalandarov deydi: “Oyogim ipday ingichka bir qush bor, U osmon tushib ketsa, ushlab qolaman deb, oyog‘ini osmonga ko‘tarib yotar ekan.”. Mana muammo yechimiga yo‘l topila boshlandi. Saida ham jim turmaydi va unga shunday javob beradi: “Olamda bunday jonivorlar ko‘p. Xo‘roz ham men qichqirmasam tong otmaydi, der ekan “. Shu muloqotdan keyin Qalandarov stolda turgan Saidaning shlyapasini olib uch-to‘rt bo‘lakka bo‘lib, stolga qarsillatib bir uradi va chiqib ketadi. Shunday qilib, muammo yechiladi.

Shunday qilib, keyin stadining bir qancha variantlari mavjudki, ularning har birini bir talabaga topshiriq qilib berilsa, bu texnologiyalarning to‘la o‘zlashtirilishiga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ишмухамедов Р., Юлдошев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Тошкент. 2013.
2. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent. 2016, 184-b. 3. Ozod Sharafutdinov. Xalq yozuvchisi\ “Sarob”. 8-bet.
3. Qo‘shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. 232-b.
4. Хализев В.Е. Теория литературы.–М.: Высшая школа. 1999. 188-б.
5. <http://www.dslib.net/>
6. <https://kh-davron.uz>

# THEORETICAL ANALYSIS OF LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER TEXT

Toleubayeva A.O.,

senior teacher

Karakalpak State University

Faculty of Foreign Languages

**Annotation.** In the use of language in the media world, it is seen as a verbal tool for informing, covering events, and the nominative function creates the basis for the creation of an effective text. According to this feature, media language reflects nationality.

**Key words:** transfer of meaning, journalistic style, nationality, culture.

The phenomenon of meaning transfer is a product of the speech process, almost all of them are linguistic units, and are part of the literary norm. As a result of carrying out targeted reforms in various spheres of life through media text, it has its place in highlighting the national values inherited from our ancestors. After all, the linguistic and stylistic peculiarity of the transfer of meaning in the journalistic style of the newspaper is that "... the unit of speech is an effective means of persuading the reader and often summarizes the main content of the text. At the same time, the image of an event or event created by the author can be strengthened in the reader's mind by various types of repetition - stem, synonym, etc."<sup>22</sup>

Alternatively, there is another side to the matter. Despite the fact that the specific cultural characteristics of each nation form ethnic values, they embody not only the generality, but also the particularity. For example, the impact of a single metaphor on the imagination and emotional state of a person is especially important for the implementation of the information-influencing function in mass media.

---

<sup>22</sup> Anosova S.V. Voploshenie agressii v polemicheskix publikatsiyax sovremennoy pressi vestnik tgu, vipusk 7 (63), i ssn 1810-0201. 2008.

The history of the development of world civilization shows that no culture can exist separately from another. In fact, language is a tool capable of embodying the images characteristic of the national landscape of the world and making them come true.

The linguistic and cultural features of the phenomenon of meaning transfer, which is the object of the study, are especially vividly reflected in the nomination of language units that give a new meaning to the text. The special creation of the transfer of meaning by the speakers of language in the formation of media text shows their national-cultural character.

"Linguistics is a complex scientific science of a synthesizing type that studies the communication and interaction of language in culture and activity and reflects this process as an integrated structure of units in the harmony of linguistic and non-linguistic content using systematic methods and oriented to modern priorities and cultural laws."<sup>23</sup>

Of course, such aspects mentioned above can include the units created by the publicist-journalist or the portable units used in the political-social lexicon for society representatives. After all, in the study of the phenomenon of transfer of meaning in the printed media, it is important to study the interdependence of issues such as the national thinking, cultural views of the language owners, and their expression through language units. This indicates that studying them as one of the structural elements of the linguistic landscape of the world in a monographic aspect of linguistic and cultural analysis.

In fact, when it comes to linguo-cultural studies, it is impossible not to rely on the opinion of scientists about the role of language in society, its historical and cultural continuity. I.V. Rets indicates that the following factors should be relied upon in this regard:

---

<sup>23</sup> Vorob'ev V.V. Lingvokul'turologiya (Teoriya i metodi). – M.: Izd-vo RUDN, 1997. – S. 36-37.

- 1) language is constantly changing, and although its development is often related to social order, it is gradual and subject to the usual internal laws of language development;
- 2) the language has a rich reserve of means of expression, which together with internal compactness provide the most comprehensive content;
- 3) the language has a center and a periphery, and when necessary, it allows to use its active and passive reserves at once;
- 4) the language offers different forms of text correction, which determines the perception of information through visual and auditory means.<sup>24</sup>

In fact, the term "national-cultural component of meaning" means the semantic components of the language unit, which represent the cultural and national characteristics of the perception of reality by the members of a certain society<sup>25</sup>. After all, national language, religious beliefs, morals, mentality and traditions are included in the parts of culture. It is they who maintain nationalism in culture, do not allow it to disappear, due to their importance, not giving in to external influences, very careful approach to news.

Modern linguistics studies the mechanism of the speaker's linguistic behavior through the "language - culture - personality" triad<sup>26</sup>. The language itself is understood as a form of any culture, a part of it, a carrier of this kind of linguistic consciousness, a treasure of the nation's spiritual wealth. It is understood that language reflects knowledge as the main means of expression of thought. Therefore, language learning is recognized by cognitivists as indirect learning. The main part of the knowledge about the world is acquired by a person in a language, with the help of language, during the activities carried out through language.

---

<sup>24</sup> Rets I.V. Lingvokul'turologicheskie i ekolingvisticheskie aspekti neonomnatsii. Avtor.dis.kand..... filol.nauk. –Volgograd, 2014. – 24 c. -S.13.

<sup>25</sup> Rets I.V. Lingvokul'turologicheskie i ekolingvisticheskie aspekti neonomnatsii. Avtor.dis.kand..... filol.nauk. –Volgograd, 2014. – S.11.

<sup>26</sup> Vaysgerber Y.L. Yazik i filosofiya // Voprosi yazikoznaniya. – M., 1993. – №2; Zalevskaya A.A. Chelovecheskiy faktor v yazike: dinamika traktovki // Vestnik Tverskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya «Filologiya». Vip. 2. «Lingvistika i mejkul'turnaya kommunikatsiya». – Tver', 2005. – №1 (7). – S. 25–38.

People who speak different languages see the world differently, therefore, each language has its own logic of thinking. W. von Humboldt emphasized that every language surrounds its people. You can get out of this ring only by entering another one. Symbols in different languages are not only different expressions of the same object, but also the result of seeing it differently<sup>27</sup>.

Culture is formed in the process of long socio-historical development, it is complex, full of internal contradictions, colorful conflicts, discussion and development, research takes place in culture in accordance with the requirements of the time. Folk oral creativity, folk practical art, holidays and ceremonies, folk lifestyle, behavior culture, aesthetic culture, folk education, scientific and educational research are included in this layer, which in turn shows the influence of culture on language.

It is considered as "the unity of the collective mind, which has the characteristics of mentality and linguistic expression, and is distinguished by its ethno-cultural identity."<sup>28</sup>

The need to develop a linguistic and cultural approach is evidenced by the fact that the content of tropes is formed under the influence of not only linguistic but also cultural factors. Linguistic culture is considered as a national phenomenon according to the genesis of culture, and it is formed by the nation and manifests the cultural elements of this nation. Also, linguoculturalism is a system consisting of the unity of semantics, syntax and pragmatics as objects.

It should be noted that only one of the functions cannot work within a certain text in the language of the newspaper, because any information received by the reader forces him to come to a logical conclusion, that is, the influence effect is

---

<sup>27</sup> <https://www.proza.ru/2012/07/10/767>

<sup>28</sup> Xudoyberganova D. Lingvokul'turologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 25.

observed, even if it is indirect. At the same time, it is impossible to achieve an effect without receiving information.<sup>29</sup>

G.Kh. According to Boqieva, "The view of the world is reflected in the psyche of an individual or a community, regardless of whether it is an object of knowledge, an element of the material world, or a fragment of consciousness."<sup>30</sup>

It is noted that the current mass media is a "powerful tool" for influencing the audience. The reason for this is the change in the hierarchy of social priorities. Of course, many more views of the world are created with the help of language in the transmission of information. A person creates them during his cognitive activity.

The journalistic style includes informational and analytical texts that are widely distributed in mass communications, divided into two groups. The journalistic category corresponds only to the group of analytical texts that have expressive and evaluative features:

First, there are general principles, general functions, structure, stylistic variety and general stylistic features of the construction of newspaper speech: the implementation of the reaction to the impact, direct assessment, and at the same time, the correlation of these features with information, creating a combination of expression in various variations with the standard;

Secondly, stylistic features arise from the nature of the publishing body, the specialization of the newspaper, the subject of the content, the author's handwriting, as well as the degree of use of the popularization function.

It should be noted that only one of the functions cannot work within a certain text in the newspaper language, because any information received by the reader forces him to come to a logical conclusion, that is, the influence effect is observed, even if it is indirect. At the same time, it is impossible to achieve an effect without receiving information.

---

<sup>29</sup> Gal'perin I.R. Ocherki po stilistike angliyskogo yazika / I.R. Gal'perin. – M.: Izdatel'stvo literaturi na inostrannix yazikax, 1958. –S.97

<sup>30</sup> Bakieva G.X. Lingvisticheskie osnovi analiza xudojestvennogo teksta: Diss ... d-ra filol. nauk. –Tashkent, 1993 – S.7.

In journalistic style, "ideologeme is clearly manifested", its basis is the concept as a value component of the cognitive base of the native speaker. "Ideologema refers to a purposeful influence on the mind of the addressee with the help of a predetermined idea", which "is of a general nature and directs the mass consciousness in a certain direction"<sup>31</sup>.

Like any communication, communication in the media space is a complex cognitive process. The process of cognitive processing, which serves to understand the text, has its own aspects, and it is necessary to pay special attention to them.

Cultural traditions, way of life, and national mentality of society play a role in creating media text. The fact that the linguocultural problem of the media text is becoming more and more important is based on the principles of linguistic and cultural studies, which investigates the relationship between language behavior and mentality in the media, and the communication processes in the mass media and the connection of language tools with the national values and the state system.

#### **Literature:**

1. Anosova S.V. Voploshenie agressii v polemicheskix publikatsiyax sovremennoy pressy vestnik tgu, vipusk 7 (63), i ssn 1810-0201. 2008.
2. Bakieva G.X. Lingvisticheskie osnovi analiza xudojestvennogo teksta: Diss ... d-ra filol. nauk. –Tashkent, 1993 – S.7.
3. Gal'perin I.R. Ocherki po stilistike angliyskogo yazika / I.R. Gal'perin. – M.: Izdatel'stvo literaturi na inostrannix yazikax, 1958. –S.97
4. Klushina L.I. Obshie osobennosti publitsisticheskogo stilya //Yazik SMI kak ob'ekt mejdistsiplinarnogo issledovaniya. Uchebnoe posobie. – M.: Izd-vo MGU, 2003. – S. 269 – 280.
5. Rets I.V. Lingvokul'turologicheskie i ekolingvisticheskie aspekti neonominsii. Avtor.dis.kand..... filol.nauk. –Volgograd, 2014. – 24 c. -S.13.

---

<sup>31</sup> Klushina L.I. Obshie osobennosti publitsisticheskogo stilya //Yazik SMI kak ob'ekt mejdistsiplinarnogo issledovaniya. Uchebnoe posobie. – M.: Izd-vo MGU, 2003. – S. 269 – 280.

6. Vaysgerber Y.L. Yazik i filosofiya // Voprosi yazikoznaniya. – M., 1993. – №2;
7. Zalevskaya A.A. Chelovecheskiy faktor v yazike: dinamika traktovki // Vestnik Tverskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya «Filologiya». Vip. 2. «Lingvistika i mejkul'turnaya kommunikatsiya». – Tver', 2005. – №1 (7). – S. 25–38.
8. Vorob'ev V.V. Lingvokul'turologiya (Teoriya i metodi). – M.: Izd-vo RUDN, 1997. – S. 36-37.
9. Xudoyberganova D. Lingvokul'turologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 25.
10. <https://www.proza.ru/2012/07/10/767>

## **SHAKL YASOVCHI AFFIKSLAR ORQALI BAHO MUNOSABATINING IFODALANISHI**

Saida Maksumova,  
O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi dotsenti, f.f.n.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Erkin Vohidov va Muhammad Yusuf ijodida shakl yasovchi affikslar orqali baho munosabatining ifodalanishi xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** subyektiv baho, funksional forma, kichraytirish, erkalash affikslari, emotsional-ekspressiv ottenka.

Subyektiv baho (funksional forma) fikrga emotsionallik, so‘zga ta’sirchanlik, ya’ni baho berishi mumkin. Subyektiv baho formalari idrokning xilma-xil emotsional ottenkalari-erkalash, kamsitish, kinoya ma’nolarini ham ifoda etish qobiliyatiga ega.

Predmetlik-mantiqiy va grammatik ma’no orqali intellektual mazmun ifodalashdan tashqari til emotsional, ya’ni hissiyot va baho tushunchalarini ham ifodalaydiki, bu subyektning suhbatdoshga yoki obyektga munosabatida namoyon

bo'ladl.[1-115 ] Shakl yasovchi qo'shimchalar kichraytirish, kichraytirish-erkalash, erkalash, kinoya-kamsitish kabi ma'nolarni ifodalab keladi.[2-64 ]

Kichraytirish va erkalash affikslarining har biri nutqda o'ziga xos tarzda konnotativ xususiyat kasb etadi. Jumladan, E.Vohidov va Muhammad Yusuf she'rlarida shakl hosil qiluvchi -cha affiksi ma'noni kuchaytirish hamda nutq subyektining baho munosabatini ifoda etishga xizmat qilishi jihatidan konnotativ ma'noga ega bo'ladl. She'riyatida qo'llangan -cha affiksini erkalash va kichraytirish ma'nolarini qay darajada ifodalashiga ko'ra quyidagicha farqlash mumkin:

**a) kichraytirish ma'nosi:**

*Oy fonusin ko'tardi osmon*

*Yulduzchalar bo'ldi parvona* (E.Vohidov)

**b) erkalash ma'nosi:**

*Ayting, dadam meni yaxshi ko'radimi?*

*Kelganida toycha olib beradimi?* (E.Vohidov)

**v) kichraytirish-erkalash ma'nosi:**

*Kechagina bir qizchani o'ynatgandim!*

*Kuchugiga oqqand berib o'rgatgandim.* (Muhammad Yusuf)

**g) kichraytirish-achinish ma'nosi:**

Mushfiq qushday mushtipar,

Ko'ngil siri pinhonsan.

Sho'ring qursin singilcham,

O'z uyida mehmonsan...(Muhammad Yusuf)

Birinchi she'riy parchada qo'llangan -cha affiksi predmetning kichikligini ifodalash vazifasini bajargan. Ammo bu qo'llanishda -cha affiksi orqali nutq subyektining ijobiy baho munosabati (pragmatik sema) ham aks etgan. Ikkinchi she'riy parchada esa *toycha* so'zi ishtirok etgan. *Toy* so'zi aslida otning bolasi, ya'ni otning kichigi denotativ ma'nosiga ega. Ushbu so'zga -cha affiksini qo'shish bilan erkalash ma'nosi hamda nutq subyektining ijobiy baho munosabati hosil

qilingan. Uchinchi she'riy parchadagi *qizcha* so'zida -cha affiksi orqali shaxsning kichikligi, shuningdek, nutq subyektining erkalash munosabati qorishiq holda ifoda etilgan. Ushbu affiksning presuppozitsiyaga ishorasi asosida gapda "Bu qizning yoshi kichik" axboroti yashirin aks etgan. Bu o'rinda -cha affiksining pragmatik vazifasi yuzaga chiqqan. To'rtinchi she'riy parchada *singilcham* so'zida -cha hamda egalik affiksi orqali nutq subyektining achinish ma'nosi ifoda etilgan. Shunisi xarakterliki, -cha affiksi subyektiv baho ifodalaganda, boshqa shu shakldagi omoaffikslardan farqli ravishda, ba'zan sinonimiga ham ega bo'ladi. Taqqoslang: *qizcha* – *qizaloq*.

She'riyatida qo'llangan -choq, -chak, -chiq affikslari ham kichraytirish-erkalash ma'nosini hosil qilgan. Lekin bu shakllar turli xil ma'no nozikliklarini keltirib chiqarishda -cha affiksiga nisbatan faol qo'llangan emas.

Predmetni bildiruvchi so'zlar -chak, -choq, -chiq affikslarini qabul qilganda, shu so'zdan anglashilgan predmetning nisbatan kichikligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, nutq subyektining baho munosabatini ifoda etib, pragmatik xususiyat kasb etadi. Ushbu holat E.Vohidov va Muhammad Yusuf she'rlarida quyidagicha ifodaga ega:

**a) -chak affiksi** yosh jihatdan kichiklik ma'nosini hosil qilish bilan birga, nutq subyektining ijobiy baho munosabatini ham hosil qiladi:

*Kelinchagim, kulib-kulib ketdingizmi,*

*Yuragimni tilib-tilib ketdingizmi?* (Muhammad Yusuf)

**b) -choq affiksi** lug'aviy ma'nosida kichiklik semasi mavjud bo'lgan lug'aviy birlikka qo'shilganda, ma'noni kuchaytirish orqali konnotativ ifodani hosil qiladi. Shu bilan birga, nutq subyektining ijobiy baho munosabatini aks ettirib, pragmatik xususiyatga ega bo'ladi:

*Ko'chalarda toychog'imni yetaklatib,*

*Qo'llarimdan ushlab olib yuradimi?* (E.Vohidov)

v) **-choq affiksli** morfologik birlik metaforik xususiyat kasb etganda, asosan shaxsga ishora qiladi. Bunday vaziyatda -choq affiksli morfologik birlik orqali nutq subyektining shaxsga nisbatan ijobiy baho munosabati ham aks etadi:

*Qo'yning to'la bo'lsin deyman qo'zichoqlar,*

*O'tsam deyman bir to'p bolangga baxt tilay,*

*O'zim birov bolasiman, nima qilay? (Muhammad Yusuf)*

*Uxla, jonim erkam,*

*Uxla, ko'zim nuri,*

*Qo'zichog'im, ko'zlarimgni yum. (E.Vohidov)*

Ushbu she'riy parchadagi qo'zichog'im so'zi metaforik qo'llanish sanalib, shaxsga nisbatan murojaatni anglatgan. Bu o'rinda -choq affiksi orqali erkalash, suyish ma'nolari ifodalanib, nutq subyektining ijobiy baho munosabati hosil qilingan;

g) **-chiq affiksi** ot turkumiga mansub so'zlarga qo'shilib kichiklikni bo'rttiradi. Masalan: *Abdusalom –O', men to'y qilmoqchiman, to'ychiq emas. El –yurtning oshini yegan odamman. (E.Vohidov)*

Ushbu gapda to'ychiq so'ziga qo'shilgan -chiq affiksi o'zakdan anglashilgan voqelikning tor doirada o'tkazilishini, ya'ni kichik to'y ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan. Bu o'rinda ushbu affiks orqali so'zlovchining kamsitish, mazax qilish kabi subyektiv munosabatlari shu so'zning konnotativ ma'nosi sifatida yuzaga chiqqan.

O'zbek tilida juda ham kammahsul, ammo kichraytish-erkalash ottenkasiga ega bo'lgan -kay, -ka affikslari ham mavjudki, ularga ham shoirlar ijodidan misollar keltirish mumkin:

*Ey, siz mening yerevanlik do'stlarim,*

*Qora ko'zli bolakaylar hush qoling. (E.Vohidov)*

Ushbu she'riy parchada qo'llangan -kay affiksi orqali bolalarning kichikligi bo'rttirilgan. Shu bilan birga, bu affiks orqali nutq subyektining erkalashi, suyishi kabi baho munosabati ham aks etib, pragmatik xususiyat kasb etadi.

Lug‘aviy shakl hosil qiluvchilardan yana biri –vachcha qo‘shimchasi. Bu affiks asosan, ot so‘z turkumiga qo‘shilib qarindoshchilikni bildiradi. Ba‘zan salbiy ma‘noda keladi. Quyidagi misrada shoir so‘ziga qo‘shilib nutq subyektining kamsitish, kesatish kabi baho munosabatini aks ettirgan.

*Do‘stlarim takabbur shorvachchalar*

*O‘zlarin sevishar yoridan ko‘proq.* (Muhammad Yusuf)

O‘zbek tilida -gina affiksi erkalash ottenkasini ifodalovchi faol affiks hisoblanadi. Bu affiks, asosan, so‘zlashuv nutqida va badiiy nutqda faol ishlatiladi. “-gina affiksi – deb yozadi, A.Abdullayev, – qanday sharoitda qanaqa ma‘no anglatishini aniqroq qilib olish uchun uni so‘z turkumlari bo‘yicha ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir”. [3-73]

-gina affiksi nafaqat ot va sifatlarga balki ravish, olmosh, fe‘l, hatto undov va ko‘makchilarga ham qo‘shilib turli xil ma‘no nozikliklarini yuzaga chiqaradi.

*Qaro yerga qo‘yib bosh,*

*Bir qizgina uxlaydi.*

*Ko‘zlariga to‘lib yosh*

*Xur qizgina uxlaydi.* (Muhammad Yusuf)

Bu o‘rinda -gina affiksi orqali nutq subyektining baho munosabati (achinishi) ma‘nosi aks etgan. Quyidagi misrada esa -gina affiksi suyish, erkalash ma‘nosini yanada bo‘rttirishga xizmat qilgan:

*Xayr senga, xumor ko‘zli Azganush,*

*Xayr endi ko‘rishguncha, jonginam.* (E.Vohidov)

Ba‘zan -gina affiksining ravish turkumidagi so‘zlashuv nutqiga xos so‘zlarga qo‘shilib, kichraytirish ma‘nosini hosil qilishini kuzatish mumkin: *E, jindakkina joni bor-u turishini qarang.* (“Oltin devor”) Ushbu misrada qo‘llangan jindak so‘zi bir oz, ozgina, qittak degan ma‘nolarni anglatadi. Bu so‘zga -gina affiksi qo‘shilib predmet hajmining ozligi ma‘nosi bo‘rttirilgan va shu orqali subyektining salbiy baho munosabatini yuzaga chiqargan.

E.Vohidov asarlarida -loq affiksining ham kichraytish-erkalash (suyish) ma'nosini ifoda etish uchun qo'llanishi kuzatiladi:

*Halitdan onalik mehr-shafqatin*

*Dilingga soldingmi, erka qizaloq?* (E.Vohidov)

Bu misrada -aloq affiksi orqali shaxsning (qiz) yosh jihatdan kichikligiga ishora qilingan, shu bilan birga, nutq subyektining uni suyib erkalashi kabi baho munosabati ham aks etgan.

Ko'rinadiki, -loq affiksi so'zga qo'shimcha ma'no yuklash bilan birga, nutq subyektining baho munosabatini ifoda etib, pragmatik vazifa bajaradi. E.Vohidov ba'zi hollarda -aloq affiksini olgan so'zdan oldin jajji so'zini qo'llaydiki, bu holat nutq subyektining baho munosabatini yanada yorqinroq ifoda etishga xizmat qiladi.

*Shu jajji qizaloq tabiatida*

*Tabiatning buyuk kamolin ko'rdim.* (E.Vohidov)

Badiiy asarlarida qo'llangan erkalash ma'nosini ifodalovchi -jon, -xon, -oy, -niso, -boy, -voy, -bek, -toy, -bonu, -gul affiksoidlari orqali ham baho munosabatining ifodalanishi kuzatiladi.

*Yuzga ypa surmasdan*

*To'lin bo'ldi Zebijon.*

*O'n sakkizga kirmasdan,*

*Kelin bo'ldi Zebijon.* (Muhammad Yusuf)

Yuqoridagi she'riy parchada -jon affiksi orqali ijobiy baho munosabati ifodalanganini ko'ramiz.

Shoirlar bunday affiksoidlardan sevisish, erkalash, hurmat, hazil kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalashda foydalangan. Demak, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar matnda salbiy baho munosabatini ham ifodalab keladi.

Har qanday obyektiv baho subyektiv bahoga aylanadi. Nutqiy vaziyatda yuzaga keladigan baho xilma-xil bo'lishi mumkin. Baho til va nutq bo'linishda

o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi va obyektiv baho hamda subyektiv baho bo'lib ajraladi. Tilda obyektiv baho bo'lsa, nutqda subyektiv baho bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Чижи́п-Полейно́ А.И. Существительные с суффиксами оценки в русском языке // Материалы по русско-славянскому языкознанию. - Воронеж, 1963. – С.115.
2. Xadyatullayev R. O'zbek tilida subyektiv baho formalarining ma'nolari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. - 1969. -2-son. – B.62-64.
3. Abdullayev A. –gina intensivlik ifodalovchi affiks sifatida // O'zbek tili va adabiyoti.-T.,1973. 5-son. –B.73
4. Tohirov Z.T. O'zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo'lishi va ularda sub'yektiv munosabatning yuzaga chiqishi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – T.: 1994. – 22 b.
5. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. - T.: Fan, 1980. – 166 b

## **O'ZBEK TILI ONOMASTIK KO'LAMIGA MANSUB ERGONIMLAR MIKROKO'LAMI XUSUSIDA**

Y.I.Avlakulov,  
O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida  
dotsenti, f.f.n.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tili onomastik ko'lamiga mansub ergonimlar mikroko'lami haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, onomastik ko'lam, ergonimlar, mikroko'lam, atoqli ot.

Ma'lumki, ergonimlar ifoda qiluvchi onomastik obyektning ma'lum darajada o'zaro yaqinligi oykodomonimlarni eslatadi. Ammo oykodomonimlar moddiy obyektning nomini anglatsa (binoning nomi), ergonimlar (yun. ergon – “mehnat”, “faoliyat” + onoma – atoqli ot) o'sha obyektida mehnat qiluvchi kishilar

uyushmasini, jamoasi, guruhini anglatadi. Ergonimga misol tariqasida adabiyotlarda *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro Astronomiya Ittifoqi, Fanlar akademiyasi, "Spartak" jamiyati* nomlari keltiriladi. Demak, ko'p holda kishilar uyushmasining nomi bilan tashkilot, muassasa nomi bitta atoqli ot orqali ifodalanadi. Masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi deyilganda, avvalo, ilmiy dargoh anglashilsa, ikkinchidan, o'sha dargohda birgalikda faoliyat yurituvchi ilmiy jamoa tushuniladi.

Ergonimlarni tadqiq qilganda, uning doirasiga kiruvchi ikki hodisani farqlash lozim: a) ham tashkilot (muassasa, korxonalar, firma, korporatsiya va b.), ham kishilar uyushmasini anglatuvchi ergonimlar; b) faqat kishilar uyushmasining nomi bo'lgan ergonimlar. Ikkinchisi to'laonli ergonimlardir.

Hozirgi o'zbek tilida ergonimlarning quyidagi tiplari uchraydi:

### **1. Ishlab chiqarish jamoalari (tashkilotlari) atoqli oti:**

*"Boysun" naslchilik zavodi, "Toshkent traktor zavodi" ishlab chiqarish birlashmasi, "O'zbekqishloqmash" zavodi, "Toshqishloqmash" zavodi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Olmaliq kimyo zavodi, Toshkent kimyo farmasyevtika zavodi, Qizilqum fosforit kombinati, Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi.*

**2. Ilmiy-ijodiy jamoalar (tashkilotlar) atoqli oti:** *Bioorganik kimyo instituti, R.R.Shreder nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti, Gemotologiya va qon quyish ilmiy tadqiqot instituti, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiya instituti, Dermatologiya va venerologiya ilmiy tadqiqot instituti, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, "Fizika-Quyosh" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi.*

**3. Siyosiy-iqtisodiy, harbiy jamoa (tashkilotlar) nomi:** *O'zbekiston xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Fidokorlar" xalq demokratik partiyasi, Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi; O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari. Quruqlikdagi qo'shinlar, Harbiy havo kuchlari, Havo hujumidan*

*mudofaa qo‘shinlari, Maxsus vazifadagi qo‘shinlar, Muhandislik-qurilish qo‘shinlari.*

**4. Moliya, savdo-sotiq, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari (tashkilotlar) nomi:** a) **oziq-ovqat do‘koni, gastronom, supermarket, minimarket va b. nomi:** “Shohida elit”, “Inoyat”, “Beshyog‘och”, “Bonu”, “Zalina”, “Madadkor”, “Dilkusho” va b.; b) **restoran, oshxona, kafe, choyxonalar nomi:** “Shahrizoda”, “Oltin vodiy”, “Yunusobod”, “Diydor”, “Bobo”, “Feruza”, “Nur”, “Kishmish”, “Sayyor”, “Muborak”, “Navro‘z”, “Turon”, “Ko‘hinur”, “Afro‘z”, “Qo‘rg‘on”, “Shahriston”, “Istiqlol”, “Fayz”, “Oqsaroy”, “Anvarbek”, “Sarbon”, “Bahor”, “Tong”, “Sharq”, “Gulzor”, “Samara”; v) **mehmonxona, atele, salon, kimyoviy tozalash va boshqa shu tipdagi obyektlar nomi:** “Afrosiyob” mehmonxonasi, “Zarafshon” mehmonxonasi, “Samarqand” mehmonxonasi, “Bog‘ishamol” mehmonxonasi, “Prezident otel” mehmonxonasi, “Toshkent-Sheroton” mehmonxonasi, “Toshkent” mehmonxonasi, “Interkontinental” mehmonxonasi va b.; g) **dam olish maskanlari, tomoshagoh, oromgohlar nomi:** “Oqtosh”, “Zomin”, “Kosonsoy”, “Miroqi”, “Chimyon”, “Chortoq”, “Nihol”, “Chinobod”, “Turon”, “Bo‘ston”, “Botanika”, “Umid gulshani”, “Ona va bola”, “Qashqadaryo sohili”, “Marhamat”, “Xo‘jai pok”, “Boysun”; d) **bozorlar, yarmarkalar, savdo markazlari nomi:** *Qo‘ylik dehqon bozori, Oloy bozori, Yunusobod dehqon bozori, Mirobod dehqon bozori, Siyob dehqon bozori* va b.; ye) **banklar, firmalar, kompaniyalar, xayriya jamg‘armalari, aksiyadorlik jamiyatlari nomi:** “Do‘stlikdon” aksiyadorlik jamiyati, “Kafolat” sug‘urta kompaniyasi, “Toshkentvino kombinati” aksiyadorlik jamiyati, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi”, “Fayz” xolding kompaniyasi, “Nurotamarmar” aksiyadorlik jamiyati, Buxoro “Zardo‘z” aksiyadorlik jamiyati, “Paxtabank”, “O‘ztadbirkorbank”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Savdogarbank”, Respublika Markaziy banki, “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta milliy kompaniyasi, “O‘zoziqovqatta‘minot” davlat aksiyadorlik kompaniyasi,

“O‘zbeksavdo” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston pochta” davlat aksiyadorlik kompaniyasi, “Mahalliy telekom” aksiyadorlik jamiyati, “Xalqaro telekom” aksiyadorlik jamiyati, “O‘zbekavtotur” firmasi, “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi, “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasi, “Salomatlik va mehr-shafqat jamg‘armasi, Respublika nogironlar jamg‘armasi va b.; yo) **markazlar nomi:** Respublika baynalmilal madaniyat markazi, Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi, “To‘maris” kompyuter markazi, “Nuroni” jamoatchilik markazi, Buxoro “Jayron” ekologiya markazi.

**5. Madaniyat va san’at obyektlari.** Bunga teatr, kinoteatr, sirk, muzey, ko‘rgazma zallari va b. atoqli otlari kiradi: “O‘zbekkino”, “O‘zbeknavo”, “O‘zbekraqs”, “O‘zbekteatr”, “Badiiy akademiya”, “Anor” ansambli, O‘zbekiston davlat amaliy san’ati muzeyi, O‘zbekiston tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san’ati tarixi muzeyi, O‘zbekiston tabiat muzeyi, Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi, Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, “Ichan qal’a” muzey-qo‘riqxonasi, Olimpiya shuhrati muzeyi, Jangovar va mehnat shuhrati muzeyi, Kino san’ati muzeyi, “O‘zeksposmarkaz” ko‘rgazmalar zali va b.

Ushbu tip atoqli otlarga **qo‘riqxonalar** nomini ham kiritish mumkin: *Kitob davlat geologiya qo‘riqxonasi, “Zomin” qo‘riqxonasi, Chotqol tog‘- o‘rmon qo‘riqxonasi, Payg‘ambarorol qo‘riqxonasi, Qizilqum qo‘riqxonasi, Badayto‘qay qo‘riqxonasi, Nurota qo‘riqxonasi, Zarafshon qo‘riqxonasi, Xisor qo‘riqxonasi, Ko‘hitang qo‘riqxonasi, Oqbuloq buyurtma qo‘riqxonasi* va b.

**6. Kundalik maishiy iste’mol mollarining atoqli oti.** Kundalik maishiy iste’mol mollari nomi yozma matnlarda qo‘shirnoqqa olingan holda, katta harf bilan yozilmoqda. Bu jihatdan ular o‘simlik navlari yozilishini eslatadi. Kundalik maishiy iste’mol mollari nomi, masalan, “O‘zbekiston” vinosi yoki “Muskat” vinosi ushbu aroq yoki vinoning bir donasi nomi emas, balki ichimlikning ma’lum navi, o‘sha navga kiruvchi ko‘p miqdor (sonli) ichimliklarni anglatadi. Demak, ular ma’lum navga kiruvchi narsani umumshtirib ataydi. Mana shu jihatdan ular

tom ma'noda atoqli ot bo'la olmaydi. Ammo ular ko'p sonli navlardan birini nomlashi, navni navdan farqlashga yordam berishi jihatidan atoqli ot talablariga yaqindir. Qisqasi, bu nomlarni atoqli otlar sirasiga kiritish munozaralidir. Ularni shartli ravishdagina onomastik birlik qatoriga kiritish mumkin. Bular quyidagilar:

**1) oziq-ovqat mahsulotlarining firmaviy atoqli oti (tovar belgilari):** "Atlantika sardini", "Baliq termasi", "Volna" (pashtet), "Mayda seld baliq", "Sabzavotli baliq gazagi" (konservalar); **2) spirtli va chanqovbosti ichimliklar atoqli oti:** "O'zbekiston", "Qora go'zal", "Sijjak", "G'o'lakandoz", "Oq jilvon", "Qizil jilvon", "Kagor", "Oq musallas", "Qizil musallas", "Oqtosh", "Yumaloq", "Gulbuloq", "Portveyn" (vinolar nomi); "Zarafshon", "Toshkent", "Shifobaxsh", "Mastona", "Andijon", "Toshkent oqshomi", "Chimyon", "Turon" ( aroqlar nomi) va b.; "O'zbekiston", "Shodlik", "Anhor", "Samarqand", "Afrosiyob" "Tigr", "Napoleon", "Xennesi", "Martel", "Xayn"(konyaklar nomi) va b.; "O'zbekiston shampani", "Durdona", "Navro'z", "Gulshan", "Qora marvarid", "Kagor", "Lanson", "Payper", "Zarafshan", "Shirin", "Aleatiko", "O'zbekiston", "Farhod", "So'g'diyona" (shampan vinosi nomlari); "Shohrud", "Sansilk"( balzamlar nomi); **3) shirinliklar, desertlar va boshqa xil konditer mahsulotlari nomi:** "Napoleon", "Kucher bola", "Mazza", "Pahlava", "Qoraqum" va b.; **4) chekish mahsulotlarining firmaviy atoqli oti:** "Marlboro", "Kent", "Payn", "Kuba", "Parlament", "Esse", "Pal-mal", "Chestr", "Vouk", "Lendn" va b.; **5) parfumeriya mahsulotlarining atoqli otlari:** "Intim", "Dalal", "Silver", "Alfares", "Armani maniya", "Armani kod", "Eskada", "Versache", "Guchchi", "Mariya de Burbon", "Moskino", "Andjeno Morani", "Adidas pilk", "Kristian dior", "Belara", "Eling", "Koko Madmuazel", "Shanel Aklyur", "Dyukond", "Farengeyt", "Djast Kavalli", "Daymond", "Alabon" va b.; **6) kundalik turmushda ishlatiladigan uy-ro'zg'or anjomlari, asboblari atoqli oti (tovar belgilari):** "Indezit", "Bosh", "Toshiba", "Filips", "Samsung", "Jinlinku", "Ayva", "Sino", "Dnepr", "Biryusa", "Sharp", "Toshiba", "Hitachi"

(muzlatgichlar). “Turbo”, “Supra”, “Hippo”, “Skarlet”, “Magnit” (changyutgichlar); “Atlant”, “Nordus”, “Faya”, “Oka”, “Indesit”, “Sitronik” (kir yuvish mashinalari); “Boss”, “Panasonik”, “Jinlipu”, “Filips”, “Samsung”, “Vestel”, “Sharp”, “Roison” (telyevizorlar); “Tefal”, “Emerald” (go’sht qiymalagichlar); “Sanyo”, “Nova” (elektr qozonlar); “Klimo” (sovutgich); “Simfer”, “Gefest”, “Hansa”, “Kapsler”, “Tardo”, “Artel” (gaz plitalar); “Samarqand”, “Oqqush”, “Go’zal”, “Qaldirg’och”, “Joziba”, “Versal” (yumshoq mebellar to’plami), “Katya”, “Liza” (yotoqxona mebel to’plami).

## **XALQ OG’ZAKI IJODIDA VA ILK YOZMA YODGORLIKLARDA NUTQ MADANIYATI MASALALARI**

Sh.Sh.Nizomova,  
Buxoro davlat universiteti  
Sport faoliyati va pedagogik ta’lim fakulteti  
Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti,  
f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada insoniyat soʻzlash qobiliyatiga ega boʻlgan kundan boshlab maʼnoli nutq tuzishga harakat qilgan. Bu maʼlum maʼnoda xalq ogʻzaki ijodi janrlariga ham oʻz taʼsirini oʻtkazganligi xususida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** xalq ogʻzaki ijodi, badiiy soʻz sanʼati, maqol, rivoyat, ertak, hikmatli soʻz.

**Аннотация.** В этой статье человечество пытается произнести осмысленную речь с того дня, когда у него появилась способность говорить. В определенном смысле считалось, что это оказало влияние на жанры народного творчества.

**Ключевые слова:** народное искусство, художественное слово, пословица, повествование, сказка, мудрые слова

**Annotation.** In this article, mankind has been trying to make a meaningful speech since the day when it had the ability to speak. In a certain sense, it was thought that it had an impact on the genres of folk art.

**Key words:** folk art, artistic word art, proverb, narrative, fairy tale, wise words.

O`zbek xalqining tarixiy ildizi uzoq asrlar tarixiga borib taqaladi. Insoniyat so`zlash qobiliyatiga ega bo`lgan kundan boshlab ma`noli nutq tuzishga harakat qilgan. Bu ma`lum ma`noda xalq og`zaki ijodi janrlariga ham o`z ta`sirini o`tkazgan.

Jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyat hisoblanadi. Odamlar orasida fikr almashish bo`lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to`xtaydi. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo, uning o`zini to`la-to`kis o`rganib olishga harakat qilishi zarur. Shu ma`noda insoniyat so`z odobiga qo`yilgan talablarni xalq og`zaki ijodi janrlari-maqollar, rivoyatlar, ertaklar, hikmatli so`zlar shuningdek, xalq og`zaki ijodining kichik janrlari orqali kishi ongiga yetkazishga harakat qilgan. Chunki badiiy so`z san`ati madaniyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo`lgan bir sohasidir. Kishilar turmush tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarini obrazli so`z orqali tasvirlash, bayon etish ko`nikmalarini yarata boshlaganlar. Badiiy so`z tajribasining o`sishi, badiiy did va zavqning takomillashib rivojlanib borishi xilma-xil adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Mana shunday janrlardan biri xalq maqollaridir.

Maqollar, hikmatli so`zlar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o`tmish bilan hamnafaslik hissini uyg`otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko`prikdir. Xalqimizda o`z qadrini bilgan so`z qadrini biladi degan gap bor. O`z qadrini bilgan odam so`zni pala-partish ishlatmaydi, uning asl ma`nosini qidiradi, bilib o`rniga qo`yib gapiradi. Chunki, maqol-so`z ko`rki hisoblanadi. Xalq maqollarida ota-bobolarimiz so`zlash odobiga rioya qilish haqidagi o`gitlarini, pand-nasihatlarini bayon etganlar. Yaxshi so`zlash, shirin gapirish haqida ham bir qancha maqollar yuzaga kelgan:

Yaxshi so`z-ko`ngil podshosi.

\*\*\*

Yaxshi so`z filni ham yo`lga solar.

\*\*\*

Yaxshi so`zga uchar qushlar el bo`lar,  
Yomon so`zga pashsha kuchi fil bo`lar.

\*\*\*

Achchiq til-zahri ilon,  
Chuchuk tilga jon qurbon.

\*\*\*

So`zdan so`zni farqi bor,  
O`ttiz ikki narxi bor.

Hikmatni oltin deb bilgan dono xalqimiz kam so`zlab, ko`proq tinglash haqida ham chiroyli hikmatlar yaratgan:

Og`iz bir, quloq ikki,  
Bir so`zlab, tingla qirq ikki.

\*\*\*

Ko`p so`zning ozi yaxshi,  
Oz so`zning o`zi yaxshi.

\*\*\*

Gapning qisqasi yaxshi,  
Qisqasidan- hissasi .

\*\*\*

O`n qatim o`yla, bir qatim so`yla.

Shuningdek, xalqimiz do`sting ham til, dushmaning ham til deb uqtiradi.

Ko`pchilik odamlar orasida pichirlab gapirmaslik haqida “Gapning yomoni-pichir” deb aytilsa, yomon so`zning dilni jarohatlashi haqida “Tayoq etdan o`tar, so`z suyakdan” deb gapiriladi.

Jamiyat a`zolari o`zaro munosabatlarda so`zlashish odobiga qat`iy rioya qilishlari zarurligi ta`kidlanadi. Kishi aytadigan har bir gapini o`ylab olishi, so`ng so`zlashi lozim. O`ylamay aytilgan so`z kishini ko`pchilik orasida uyalib

qolishiga hatto fojiali ahvolga tushishiga sabab bo`lishi mumkin. Bu haqda shunday maqollar mavjud:

Dilda pishir, tilda gapir.

\*\*\*

O`ynab gapirsang ham, o`ylab gapir.

\*\*\*

Tez so`zlagan tez pushaymon bo`lar.

\*\*\*

Og`izga kelgan so`z arzon, ovulga kelgan bo`z arzon.

O`ylanmagan joydan tulki chiqar,

O`ylanmagan so`zdan kulki chiqar.

\*\*\*

O`ylamay aytgan tinglamay o`ylar,

Chaynamay yutgan kavshamay o`lar.

\*\*\*

O`ylamay so`zlagan og`rimay o`lar.

Epi bilan so`zlaganning qurboni bo`l.

Til odobiga bag`ishlangan maqollar xalqimiz tomonidan juda ko`plab yaratilgan. Ushbu maqollar xalqimizning so`zlash odobiga naqadar mas`uliyat bilan yondoshganligidan dalolat beradi.

Nutq masalasiga bag`ishlangan rivoyatlar, ertaklar yaratilgan. Bir rivoyatda aytilishicha, malika o`z o`g`liga avvalo, ona tilini o`rganmoqchi bo`lgan yigitga turmushga chiqmoqchi bo`ladi. Yana bir rivoyatda podsho vaziriga “boshga nima balo keltiradi?”-deb so`raganda, vazir tilni ko`rsatgan ekan.

Xullas, xalq og`zaki ijodi namunalari bo`lgan maqollar, rivoyatlar, ertaklarda ham so`zlash odobiga oid bo`lgan hikmatli fikrlar bayon qilingan. Xalqimiz qadim zamonlardan beri so`z odobiga rioya qilish zarurligini uqtirib kelgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mallayev N. O`zbek adabiyoti tarixi. T., 1976.
2. Qudratov N. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
3. Qadimiy hikmatlar. T., 1987.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. T., 1990.
5. Ahmad Yugnakiy. Hibbatul haqoyiq. T., 1971.
6. Mahmud Qoshg`ariy. Devonu lug`otit turk. T., 1963
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

### **KISHILIK OLMOSHLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

O.Mo`minova,  
O`zDJTU O`zbek tili va adabiyoti kafedrası  
dotsenti, f.f.n.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kishilik olmoshlarining uslubiy xususiyatlari badiiy adabiyotdagi misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** aniqlik, men, sen, biz, siz, mohiyat, emotsional-ekspressiv ottenka.

Til o`zida insonning jamiyki his-tuyg`ularini, aql-idrokini, imon-e`tiqodini va borlig`ini namoyon qiladi, mujassam qiladi va tafakkurini shakllantiradi. Adabiy tilning rivojlanishida qaysi til doirasida bo`lmasin, badiiy adabiyotning o`rni beqiyos. “Shoir - yozuvchi san`atkorlikda ko`tarila borgani sayin o`ziga maxsus uslub yarata boshlaydi, shoirning xayol, o`y, tushunish shakllari tugal, komil bo`lgach, ularga yarasha bir uslub ham borliqqa chiqqan bo`ladir” [1] Adabiy tilimizning rivojlanib, sayqallanib borishida badiiy adabiyotning o`rni beqiyos ekanligini hisobga olsak [2], badiiy asar har qanday tilning imkoniyatlari doirasini ko`rsatib beruvchi manbadir. So`zlovchi yoki yozuvchi biror shaxs, predmet, belgi, miqdor haqida yozar ekan, shu predmet, hodisa, miqdor yoki belgining nomini bildiruvchi so`zni takrorlay berishdan qochadi. Ularni ma`nodosh boshqa so`zlar bilan almashtiradi. Shunday hollarda ko`pincha ot, sifat, sonlarning

muqobili sifatida olmoshlar qoʻllaniladi. Demak, olmoshlar nutqiy ifodalilik va ravonlikka, ixchamlikka xizmat qiladi. Soʻzlovchi nutq jarayonida fikrning subyektiv yoki obyektiv boʻlishida, shaxsni aniq koʻrsatish, tinglovchida tushuncha hosil qilish maqsadida kishilik olmoshlaridan foydalanadi. U soʻzlovchi sifatida «men», «biz»; nutq qaratilgan shaxsga nisbatan sen, siz; nutq yoʻnaltirilgan, nutq adresati nazarda tutilgan shaxsga nisbatan «u», «ular» olmoshlarini qoʻllaydi. Kishilik olmoshlarining qoʻllanishida uslubiy mohiyatga ega boʻlgan holatlar birlik oʻrniga koʻplik shaklining qoʻllanishidir. Masalan: Ilmiy ishlarda, rasmiy hujjatlarda, yigʻilishlarda men olmoshining oʻrnida biz olmoshi kamtarlikni ifodalashda ishlatiladi: *Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda koʻrsatish olmoshlarining xususiyatlari haqida soʻz yuritiladi.*

*Bunaqa asarni mendan boshqasi yozolmaydi* gapida faxrlanish, *Biz endi nimani ham kiyardik* gapida «biz» tortinish, iymanishni ifodalasa, *Sen jim oʻtir, melisa bilan oʻzim* gaplashaman gapida buyruq, «*Siz ichkariga kirib turing!*» (*OʻHoshimov*) gapida «siz» poʻpisa maʼnosini koʻrsatishda ishlatilgan. Maʼnoni kuchaytirish uchun «biz» va «siz» olmoshlariga -lar qoʻshib ishlatilishi mumkin: *Nainki sen, ishlayversak bizlarning ham bil-*

*Ogʻimizga kelib qolar ONA SUTIMIZ* (A.Oripov)

*Navbat sizlarga!*

Soʻzlovchi tinglovchidan biron jihatdan ustun boʻlganda, shuningdek, hurmatsizlik, doʻq-poʻpisa, gʻazablanish kabi maʼnolar ifodasi uchun «sen»ga – larni qoʻshib ishlatadi: *Oʻlib ketsam qutulamanmi sanlardan.* (*OʻHoshimov*) Lekin nutq jarayonida soʻzlovchi maqtanish, gerdayish, ajratib koʻrsatish, taʼkidlash kabi ottenkalarni qoʻshib ifodalamoqchi boʻlganda, quyiidagi tip gaplarga «men», /«biz»/, «sen»/ «siz»/ olmoshlarini qoʻshib ishlatadi:

*Mening oʻgʻlim xoʻ-oʻ-p orzu-havasli chiqdi-da, baraka topgur! Saltanat xazinasida men uchun eng bebaho boylik – siz boʻlasiz!* (gʻurur, alohida taʼkid). (*OʻHoshimov*)

*Tepada bir ummon, pastda bir ummon,*

*Ikki dengiz aro kechar lahzalar.*

*Xayolga tolaman:men o`zi kimman?*

*Ojiz va notavon zarra... alhazar! (alohida ajratib murojaat etish). (A.Oripov)*

Bunday tuzilmalarda olmoshga alohida urg‘u berilsa, yuqorida aytilgan ma‘no yanada kuchaytirilishidan tashqari, keskinlik, kibr, po‘pisa, dag‘allik kabi ottenkalar ham ifodalanishi mumkin.

So‘zlovchining kamtarligini bo‘rttirish, kinoya qilish uchun pronominallash hodisasidan ham foydalaniladi. Bunda men olmoshi o‘rnida *kamina, faqir, banda* so‘zlari, siz o‘rnida *o‘zlari* so‘zi qo‘llanadi: *Muqaddas haj safari kaminaga ham nasib ayladi! So‘raganning aybi yo‘q, Hoji aka. Mabodo o‘zlariyam...(O‘Hoshimov)*

Nutq paytida «Men»dan boshqa hamma ishtirokchilar tinglovchi – II shaxsdir. Nutq ularning barchasiga teng bo‘ladi. Nutq mana shu guruh / tinglovchilar/dan ayrim shaxs yoki shaxslarga qaratilish zarurati tug‘ilganda, so‘zlovchi «sen» va «siz» /«sizlar»/ olmoshini qo‘llab nutq qaratilgan shaxslarni alohida ajratib oladi. Bunday chog‘da /«sen», «siz» qo‘llanganda/ tinglovchilarning bir qismi o‘zga III shaxs sifatida tasavvur etiladi va ko‘pincha tinglovchilardan biror shaxs nomi undalma sifatida qo‘llanib, nutqning ana shu shaxsga, shu shaxs tegishli bo‘lgan to‘da-guruhga aloqadorligi maxsus uqtiriladi: *Odiljon, siz(lar) to‘garak ishini uyushtirasizlar. Salima, sizga aytadigan gapim bor.*

Qarama-qarshi fikrni hayajonli ifodalsh maqsadida men va sen, biz va siz kishilik olmoshlari kontrast holatda qollaniladi: *-Kulishga haqqingiz bor domla, chunki o‘ch olasiz! - dedi Anvar. ...Faqat siz ifloslik natijasida kulasiz, men ... men to‘g‘rilik samarasini o‘raman; siz iflos vijdon bilan g‘olibsiz, men sof vijdon bilan mag‘lubman (A.Qodiriy). Bir tomonda sen tort, bir tomondan men tortay... Senam qutulasan, menam qutulaman, behiyam qutuladi!(O‘Hoshimov)*

Leksik-morfologik vositalar va kesim ham kishilar o'rtasidagi hurmatga zid ma'noni ifodalovchi shaqlda bo'ladi. Ana shu shakl matnning umumiy mazmuniga ko'ra hurmat, hurmatga zid va betaraf ma'nolarni ifodalaydi.

1. Jonlantirilgan predmet va xodisalar o'zaro ramziy nutqda:

Behisht aytur: «Ne dersan, so'zni bilmay aytursan»

Senda Fir'avn bor bo'lsa, menda Yusuf Ka'non bor.

Rahmat senga, olis hilqat, oliyhimmat zot. (A.Oripov)

2. Badiiy uslubda subyektning ichki, ya'ni o'ziga qaratilgan nutqi tarzida berilishi jamiyat a'zolari tomonidan hurmatga betaraf ma'no tarzida qabul qilinadi.

- Ey, Qul Ahmad, sen bu kun, qilgil ibodat tun-u kun.

3. She'riyatda subyekt bilan nutqiy jarayonda hozir, ya'ni bevosita ijtimoiy munosabatda (zamondosh yoki yuzma-yuz) bo'lmagan obyekt - ota-ona va boshqalarga nisbatan:

Bari, bari senga bo'lsin,

Senga bo'lsin onajon.

Senga bo'lsin bor hayotim

Nomim, shonim bir yo'la (A.Oripov).

4. Vatan, yer, zamin, tabiat, yoshlik, yor va boshqalarga nisbatan:

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun

Qiyosingni topmadim aslo! (A.Oripov)

5. She'riyatda sof kishilik olmoshlari jonlantirish vositasida narsalar o'rnida ham qo'llanilishi mumkin:

Binafsha senmisan, binafsha senmi,

Ko'chada aqchaga sotilgan.

Binafsha menmanmi, binafsha menmi,

Sevgingga, qayg'ungga tutilgan? (Cho'lpon).

Yuqoridagi tarzda sen olmoshining qo'llanishlari jamiyat a'zolari tomonidan hurmat ma'nosi sifatida qabul qilinadi.

Sen olmoshiga «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «1. O‘zidan kichiklarga yoki yaqin kishilarga murojaat tarzida yoki ulaning nomi o‘rnida ishlatiladigan so‘z. 2. (ko‘plik shaklida) Tinglovchiga nisbatan mensimaslik, bepisandlik kabi ma‘noni bildiradi» (3, 479) tarzida ushbu birlikning sub'yekt bilan bevosita yoki bilvosita ijtimoiy munosabatda bo‘lgan ob'yektga nisbatan ifodalaydigan ma'nolarigina berilgan.

Har qanday tilda ham voqelik ifodasi uchun shu til imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Aks holda, voqelik mazkur tilda yashay olmaydi. Barcha dinlarning o‘zbek tilidagi manbalarida Ollohga nisbatan sen leksemasi qo‘llanadi. (*Mashrab seni deb kechdi jahondin, Boshini qo‘ydi ostonalarga*); (*Sen bo‘lmaganingda falaklarni yaratmagan bo‘lur edim*) Inson mavjud ekan, qanday shaklda bo‘lmasin, Ollohdan najot tilaydi yoki unga shukronalik bildiradi, shaytonni la'natlaydi. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, siz olmoshiga nisbatan sen olmoshining qo‘llanish doirasi, semantik maydoni keng va hurmat ma‘no tizimida barqaror vosita ekanligini anglatadi. Demak, subyekt va obyekt munosabatlaridagi hurmat, hurmatga zid yoki betaraf ma‘nolar matnning umumiy mantig‘ida namoyon bo‘ladi. Ana shular, siz olmoshiga nisbatan sen olmoshining qo‘llanish doirasi, semantik maydoni keng va hurmat ma‘no tizimida barqaror vosita ekanligini anglatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fitrat. Adabiyot qoidalari. -T.: O‘qituvchi, 1995.
2. Qosimova M. Yozuvchi uslubining lingvistik omillari // Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. -Andijon, 2002.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -T.: O‘zME, -J.3. 2007.
4. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. -Samarqand.
5. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. –Toshkent: Sharq, 2011.

# **O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI XALQARO MIQYOSDA O‘RGANISH VA TARG‘IB QILISHDA MUHAMMAD SHAYBONIY IJODIGA MUNOSABATNING AHAMIYATI**

Munira Sharipova,  
O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası  
dotsenti  
f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada Muhammad Shayboniy ijodiga munosabat, o‘zbek mumtoz adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib etishda dunyo va o‘zbek adabiyotshunosligida shoh shoirning adabiy merosi va shaxsiyatiga munosabatning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shayboniy, adabiy meros, devon, ijodiy faoliyat, shaxsiyat, ilmiy-nazariy tadqiq

Jahon adabiyotshunosligida milliy va umumbashariy ezgu g‘oyalar targ‘ib qilingan, inson ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq azaliy qadriyatlar tarannum etilgan va badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilgan asarlar sharqshunoslarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu esa muayyan ijodkor hayoti va adabiy merosi manbalari, poetik tafakkuri tadriji, an’ana va yangilik, adabiy ta’sir kabi masalalarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek davlatchiligini yuz yil boshqargan shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon (1451 – 1510) “Devon”, “Bahr ul-hudo” nomli qasida, islom huquqshunosligiga oid risola va turkiy til qonun-qoidalari kabi asarlar muallifidir. Mazkur adabiy-ilmiy merosni shoir biografiyasi, dunyoqarashi, badiiy mahorati, o‘ziga xosligi nuqtai nazaridan yangicha yondashuv va tamoyillar asosida ilmiy-nazariy tadqiq etish zaruriy vazifalardandir.

Dunyo adabiyotshunosligida o‘tmish ijodkorlarining faoliyati va shaxsiyati masalasiga munosabatni davr kesimida baholash, adabiy merosining birlamchi manbalarini izlab topish va o‘rganish izchillik bilan davom etmoqda. Xorijlik tadqiqotchilar Shayboniyxon asarlarini turkiy adabiyotning o‘ziga xos bir namunasi sifatida e’tirof etganlar va diqqatga sazovor natijalarga erishganlar.

Ayniqsa, qardosh Turkiyada shoir ijodiyotiga xolisona baho berilgani, asarlari turli yoʻnalishlarda oʻrganilgani va yuksak nashriy saviyada chop etilgani muammoning naqadar dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Istiqlol davri oʻzbek adabiyotshunosligida tariximizdagi unutilgan siymolar, hukmdor shaxslar va tasavvuf namoyandalarning ijodini oʻrganish sari jiddiy qadam tashlandi. Mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar, adabiyot va maʼnaviyatga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratilayotganligi badiiy-ilmiy tafakkur durdonalarini yangicha inkishof etishni talab qilmoqda. Zero, “oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilish, koʻp qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bogʻliq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega”<sup>32</sup> boʻlib borayotgan hozirgi davrda Shayboniyxon faoliyati va ijodiy merosini tadqiq etish adabiyotshunosligimizni yangicha qarash va tahlillar bilan boyitishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon serqirra faoliyat olib borgan manbalardan maʼlum. Avvalambor, dastini dunyoga choʻzib, shohlik daʼvo qilishning oʻzi zoʻr jurʼatu jasoratni, shijoatu uquvni, bir umrlik tashvishu fidoyilikni talab qiladi. Shayboniyxon koʻp mashaqqatlar chekib “... butun Turkiston hududlari miqyosida markazlashgan qudratli davlat tuza bildi. Bu davlat bizkim, oʻzbeklarning Amir Temur saltanatidan keyingi eng kuchli davlatimiz edi”<sup>33</sup>. Qolaversa, Sharq hukmdorlarining koʻpiga nasib etgan shoirlik isteʼdodi va olimlik salohiyatidan Shayboniyxon ham bebahra emas edi. Undan avlodlarga nafaqat toju taxt, balki katta maʼnaviy-maʼrifiy boylik – “Devon”,

---

<sup>32</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yoʻllagan tabrigi // Xalq soʻzi. 2018-yil 8-avgust.

<sup>33</sup> Ibrohimov A. Bizkim, oʻzbeklar... . – Toshkent. Sharq. 1999. – B.33.

diniy-falsafiy ruhdagi “Bahr ul-hudo” nomli qasida, islom huquqshunosligiga oid risola va turkiy til qonun-qoidalariga doir kitob meros bo‘lib qoldi. Biroq Shayboniyxon asarlari o‘tmish qa’rida noma’lumligicha qolib unutilayozgan edi. Uning ijodi haqida tarixiy manba va adabiy tazkiralarda berilgan muxtasar ma’lumotlar va namunalar asosidagina fikr yuritilar edi. To‘g‘ri, Shayboniyxon tarixiy siymo – sulolaboshi, siyosatchi, sarkarda va hukmdor bo‘lganligi uchun o‘sha davrda bevosita o‘zining topshirig‘iga ko‘ra o‘zbek va fors tillarida ko‘plab tarixiy asarlar yaratilgan. Ularda asosan xonning muhorabalari, siyosiy-huquqiy, qonunchilik sohalaridagi faoliyati, arbob va homiy sifatidagi xizmatlari, davlat boshqaruvidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va boshqa muhim voqealar aks ettirilgan bo‘lib, “Devon”i haqida fikr-mulohazalar aytilmagan. Vaholanki, Shayboniyning 4000 misradan ortiq she’rni jamlagan “Devon”i tartib qilingan bo‘lib, uning yagona qo‘lyozma nusxasini taqdir to‘zonlari Turkiyaga eltib tashlagan ekan. Istanbul shahridagi To‘pqopi saroyi kutubxonasida 2436 inventar raqami bilan usmonli turk sultoni Ahmad III (1673 – 1736) muhri ostida saqlanayotgan Shayboniy “Devon”i fanga ma’lum bo‘lgach, jahon turkiyshunosligida mazkur “Devon” bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shayboniy “Devon”i haqida ilk bor professor Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on axborot bergan. Uning 1927-yilda “Yangi Turkiston” jurnalida e’lon qilingan “Shayboqxonning she’rlari”<sup>34</sup> nomli maqolasi shoir “Devon”ini ilm olamiga olib kirgan. Umuman, Shayboniyxonning ijtimoiy-siyosiy va ijodiy faoliyatiga xorijda, ayniqsa, Turkiyada bag‘rikenglik bilan yondashilgan, asarlari chop etilgan. Bizda esa e’tiborsizlik oqibatida uning adabiy merosi maxsus o‘rganilmagan, xalqimiz va adabiyotimiz tarixidagi o‘z munosib o‘rni yetarli belgilanmagan. Shu o‘rinda akademik A. Qayumovning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb hisoblaymiz: “Shayboniyxonning badiiy merosiga munosabatni uning mashhur temuriy hukmdorlaridan shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur bilan siyosiy va

---

<sup>34</sup> Togan A.Z. Velidi. Şaybak Han‘in şiirleri // Yeni Türkistan. Nu:1. – İstanbul: 1927. – S.21–25.

harbiy raqobatiga bog‘lamaslik kerak. Bu har ikkala arbob amaliy faoliyatda birlari bilan qancha ziddiyatda bo‘lmasinlar, ularning ijodiy merosi o‘zbek xalqining umumiy mulkidir. Bu merosga o‘z munosib o‘rnini egallashga imkon berilmog‘i lozim”<sup>35</sup>.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, an’anaviy devon talablariga javob bera oladigan, mumtoz she’riyatimizning g‘azal, masnaviy, ruboiy, tuyuq, ta’rix, muammo, chiston kabi 7 janrida bitilgan 412 ta she’rdan tarkib topgan Shayboniy “Devon”ini va asl nusxasi Londondagi Britaniya muzeyi kutubxonasining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida Add.7914 inventar raqami bilan qayd qilingan yirik majmua tarkibida saqlanuvchi “Bahr ul-hudo” (“Hidoyat dengizi”) qasidasini ilmiy tadqiqotga jalb etish shoirning ijodiy faoliyati va adabiy shaxsiyatiga baho berishda muhim ahamiyatga ega. Zero, filologiya fanlari doktori, professor N.Rahmonov ta’kidlaganidek: “Aksariyat holatlarda biz ma’lum bo‘lmagan shoir ijodini ahamiyatsiz deb baholashga o‘rganganmiz. Fanning taraqqiyoti esa ahamiyati katta bo‘lmagan shoirni ham ahamiyati bor deb qarashni talab qiladi va shoirning birgina she’ri ham ahamiyatli narsalarni yuzaga keltiradi”<sup>36</sup>.

Muhammad Shayboniyxonning faoliyati serqirra, adabiy va madaniy-ma’rifiy merosi salmoqlidir. Milliy davlatchiligimiz tarixida bir asr hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasining asoschisi tarixda faqat xongina emas, bunyodkor va ijodkor sifatida, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi // Xalq so‘zi. 2018-yil 8-avgust.

---

<sup>35</sup> Ko‘chirma A. Qayumovning O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlanayotgan maktubidan (29.11.1996. Inv.№118 ) olindi.

<sup>36</sup> Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi A.Qayumov, so‘z boshi muallifi N.Rahmonov). – Toshkent. O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi. Uch jildlik. 1-daftar. 1998. – B.8.

2. Ibrohimov A. Bizkim, o‘zbeklar... . – Toshkent. Sharq. 1999.
3. Togan A.Z. Velidi. Şaybak Han‘in şiirleri // Yeni Türkistan. Nu:1. – İstanbul: 1927.
4. Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi A.Qayumov, so‘z boshi muallifi N.Rahmonov). – Toshkent. O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi. Uch jildlik. 1-daftar. 1998.

## **RAUF PARFI SHE’RIYATIDA LEKSIK BIRLIKLARNING BERILISHIGA DOIR MULOHAZALAR**

Jiyanova Nazokat Eshquvvatovna,  
O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida  
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Rauf Parfi she’riyatida qo‘llanilgan leksik birliklarning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается употребление лексических единиц в поэзии Рауфа Парфи и их выражение в гармонии с сутью содержания и духом поэта.

**Abstract.** Abstract. This article discusses the use of lexical units in the poetry of Rauf Parfi and their expression in harmony with the essence of the content and the poet's spirit.

**Kalit so‘zlar:** she‘r, shoir, mahorat, ruhiyat, ilhom, ifoda, mazmun, teranlik, holat, kayfiyat, so‘z, leksik birlik, uslub.

**Ключевые слова:** стихотворение, поэт, мастерство, дух, вдохновение, выражение, содержание, глубина, состояние, настроение, слово, лексическая единица, стиль.

**Key words:** poem, poet, skill, spirit, inspiration, expression, content, depth, state, mood, word, lexical unit, style.

Rauf Parfi she'riyati haqida fikr yuritishdan oldin sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildik: "She'r shoir qalbida tug'ilgan hayotiy tuyg'ularni ifoda qiladi va shu bilan o'quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o'zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo'lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she'riy jimjimalardan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo'q".

Darhaqiqat, o'quvchi yuragini rom qila olish san'ati har bir shoirda o'zgacha bir shijoatni kuzatish mumkin. Shoirlarning o'zlari yonmasa o'quvchini ham yondira olmaydi. Shuning uchun ham shoirlar she'riyatida insonning estetik tuyg'ularini shakllantiruvchi jozibani, qalb hislarini junbushga keltiruvchi qandaydir issiq haroratni his qilish mumkin. Ana shu hislar ta'sirida biz shoir she'riyatini qayta-qayta o'qiymiz. Undan dillarimiz taskin topadi, orom oladi. Dardkash do'st kabi, mehribon ona kabi, maslahatgo'y ota kabi, yordamchi aka va ukalar kabi, dardingni tinglaguvchi opa, singillar kabi dilimizga yaqin she'rlarni izlaymiz. Topsak qayta-qayta o'qiymiz, izlagan narsamizni topgan kabi bir tin olib, uzun nafas olgan holda xo'rsinib qo'yamiz. Go'yo chanqagan bolaning suv ichishi kabi qoniqqan qalblarimiz bir oz tin oladi. O'quvchining bunday holatga tushushida shoir she'riyatidagi dard, tug'yon, aytmoqchi bo'lgan nimalardir sabab bo'ladi. Har bir shoir she'riyatini o'qiganingizda bir xil ohang, bir xil dard, bir xil haroratni tuymaysiz. Har birining o'z aytar so'zi, ovozi, dardi bor. Ulaning she'riyatida bir-biriga o'xshash hodisalarni kuzatmaysiz. O'qib chiqib bir xil tin olmaysiz. Agar shunday bo'lganida she'riyat olami bir xil qarashlardan iborat she'rlarning ko'payishiga sabab bo'lgan bo'lur edi. Ushbu maqolamizda shunday otashqalb shoirlarimizdan biri bu – Rauf Parfi she'riyati haqida fikr yuritmoqchimiz:

Yomg'ir emas, marvarid yog'ar,  
Yomg'ir — kecha shaklinda bu on.  
Suv singari jildirab oqar,  
Kecha kechar shod va bearmon.

Barglarda raqs etar shabboda.

O‘ynar sabo shaklinda kecha,

Tun bulutga ko‘tarib boda

Afsonalar aytar tonggacha.

Yomg‘irning yog‘ishini marvaridga o‘xshatish, suv singari jildirab oqishi, daraxt barglarida shabbodaning raqsga tushushi, kechaning shod va bearmonligi, xursandchilik timsoli sifatida berilishi, tonggacha aytilayotgan afsonalar bunday ifodalarning barchasi shoirning leksik birliklardan mohirona foydalanganligini kuzatish mumkin.

Rauf Parfi she‘riyatida hech bir shoir she‘riyatida uchramaydigan ilohiy bir dardni kuzatish qiyin emas. Bu dard shoirni qiynaydi, uning qalbiga ozor beradi. Uni hammaga aytgisi keladi, biroq aytishga iymonadi. Sezgir kitobxon qisman bo‘lsa-da shoir dardini sezadi, unga hamdard bo‘lishni istaydi, unga ko‘mak qo‘lini cho‘zgisi keladi, dardini tinglab tasalli bergisi keladi, biroq:

...Ochiq yotar tokchada kitob,

Ochiq yotar mening daftaram,

Unda kezar mangu iztirob.

Tubanlikda yosuman jari.

Sho‘rlik o‘g‘ling bir umr betob

Singan sozi, singan xanjari...

Shoirda ne hol, nega u ijod qilmaydi, nega tokchadagi kitobni varaqlamaydi, nega ijod daftariga marjon dur kabi she‘riy tizmalarni chizmaydi, nega shoir betob. Betoblik sababini izlashga tushasiz, balki boshqa she‘rlarida shoir sog‘man, omonman, bu dunyoda shodman, xursandman, mamnunman deganmikin. Afsiski..... Yo ‘q..... Bu kabi chizgilar faqat Rauf Parfi qalamiga xos.

Shoir she‘riyatida insonning estetik tuyg‘ularini shakllantiruvchi leksik birliklardan o‘rinli foydalana olish mahorati ham o‘zgachadir. Uning she‘rlarini o‘qir ekansiz shoir yuragini kemirayotgan o‘sha dard nima ekanligini bilgingiz

kelaveradi va yana qayta-qayta bilishga intilaverasiz, kitobini varaqlagan holda she'rlarini qayta-qayta o'qiyverasiz, ammo:

Tong otmoqda.

Tong o'qlar otar,

Tong otmoqda, quyosh — zambarak.

Yaralangan Yer shari yotar,

Boshlarida yashil chambarak.

Tong otmoqda, musaffo tongga

Yuragini tutar odamlar,

Shu tong uchun kelgan jahonga,

Shu tong deya o'tar odamlar.

Tong otmoqda...

Aslida tong musoffolik, yangi kun, yaxshi kun ma'nosini ifodalaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham bu so'zning ikki ma'nosi izohlangan. Birinchi ma'nosi kun chiqish payti, subhidam, sahar, azon. Ikkinchi ma'nosi esa tong qotib qolmoq (dong qotib qolmoq ma'nosida) qo'llanishi misollar asosida berilgan<sup>37</sup>. Shoir she'rida qo'llangan tong so'zi kun chiqish payti, subhidam, sahar, azon ma'nosini ifodalagan. Shoir bu o'rinda sinonimlik qatorni tashkil etuvchi kun chiqish payti, subhidam, sahar, azon so'zlariga sinonim bo'lgan tong so'zidan foydalangan.

Biroq shoir tongida u o'qlar otar, nega? degan savolning tug'ilishi tabiiy holat, aslida shu tong otishini istash har bir inson ko'nglida bor. Barchamiz yangi tong bilan bir-birimizni qutlaymiz. Biroq lirik qahramon uni o'q otar qurol deb qarshi olmoqda. Shoir keyingi misrasida quyosh — zambarak deya izoh beradi va shu zambarak tufayli yaralangan yer shari yotar deb izohni davom ettiradi. Yana o'z-o'zidan savol tug'iladi nega? O'yga tushasiz. Yaxshilik va yomonlik, oqlik va qoralik, beg'uborlik va g'am, shodlik va kulfat. Shoir qalbini qaysi biri tilka-pora qilmoqda, shodlikmi yoki uning orqasidan keladigan g'ammi? Kutilmaganda

---

<sup>37</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. - Москва: "Руский язык". 1981, 202-bet.

keladigan oqlikmi yoki qoralik? Qaysi biridan lirik qahramon aziyat chekmoqda? Yana she'rlarini o'qiysiz, o'qiyverasiz, biroq shodlik bor ammo g'am ko'proq, yaxshilik ko'p ammo yomonlik ustun, beg'uborlik bor, ammo kulfat ildamroq....Nega???. Antonimlik hodisalarni ketma-ketlikda marvarid donalari kabi chizish shoir mahoratining o'zgachaligidan dalolatdir.

...Ba'zan o'ylab qolasan, shoirning yuragini kemirayotgan narsa nima? Qanday dard bor uning ko'nglida? Unga taskin beruvchi so'zni topolmay qiynalasan. Taskin beruvchi so'zni topolmay shoir she'rlarini yana o'qishda davom etasan:

Daryo mavjlariga yozilmish g'azal,  
Maysalar egilib o'qiydir kitob.  
Shodlanib xandalar otar bir lahza,  
Bir lahza oh tortib qo'yadir oftob.  
Qamishlar shivirlar daryo tomonda,  
Ko'kda oq bulutlar kezar bemajol.  
Bir tirik nafasat borliq, jahonda,  
Kimgadir elanar, qilar iltijo.

Bu she'rni o'qir ekansiz, yuragingiz bir lahza bo'lsa ham xotirjamlikni, yengil tin olishini sezasiz. Xayriyat, shoir dunyoni bugun yaxshi kayfiyatda, xursand holda ko'rmoqda deb o'zingizga tasalli berasiz. Shoir qalbida esa sekin – asta, “maysalar egilib o'qiydir kitob”, “shodlanib xandalar otar bir lahza”. Endi shoir dunyoni yaxshi kayfiyat ko'zi bilan ko'ra boshlamoqda. Ammo birdaniga ko'kda oq bulutlar kezar bemajol. Ko'kda holsiz, bemajol kezayotgan oq bulutlar holati lirik qahramon holatiga hamomang holda ifodalangan. Bunday tasvir vositalaridan foydalanish faqat Rauf Parfi qalamiga mos va xosdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'z dardini she'rlarida terang ifodalay olgan Rauf Parfi she'riyati ko'p asrlar davomida yosh-avlodni to'g'ri tarbiyalashda muhim omil bo'ladi. She'riyat bo'stonida shoir ovozi hamma vaqt gohida shod, gohida g'amgin holatda jaranglayveradi. Avlodlar uning she'rlarini, shoir

ruhiyatini zamonga mos holda tahlil etaveradilar va hech shubhasiz asrlar o'tsa-da uning she'rlari o'qilishda davom etaveradi, etaveradi va yana etaveradi....

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
2. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
3. Rauf Parfi. She'rlar. - Toshkent. 2016.
4. Rauf Parfi. Qaytish. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1981.

## **ISPAN ADABIY TILINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI:**

### **NAZARIY TASNIF**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

**mustaqil izlanuvchisi (DSc)**

**PhD, Artikova Maxfuza Ravshanovna**

*Annotatsiya: Zamonaviy ispan tili bir necha variantlilikka ega til bo'lib, jo'g'rofiy jihatdan farqlanmoqda. Tilning millatlararo qo'llaniladigan yagona shakli – kastelyano global hisoblanib, davlat miqyosida uning rivoji uchun harakatlar siyosat darajasiga ko'rilgan. Maqolada ispanshunos olimlarning tilning variantliliigi va rivojiga oid ilmiy qarash va tahlillari keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** ispan tili, kastelyano, jo'g'rofiya, variantlilik, milliy til.*

Medialingvistik nuqtayi nazaridan ispan media tili tadqiqotning noyob obykti hisoblanadi. Zero, ispan tili ingliz va fransuz tillari kabi ko'plab xalqaro tashkilotlarning rasmiy ish yuritish tili bo'lishi bilan birga, dunyoda xorijiy til sifatida eng ko'p o'rganilayotgan tillardan biri hamdir.

BMT hamda YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy tili bo'lgan ispancha nafaqat demografik bazasining yuqoriligi (dunyoda eng ko'p aholi

so‘zlashadigan tillardan biri hisoblanadi), balki uning jug‘rofiy jihatdan keng tarqalgani bilan ham ahamiyatlidir.

Ispanshunos olim V.S. Vinogradov ispan tilining millatlararo qo‘llaniladigan shakli global hisoblanishini, uning hududiy va milliy shakl hamda variantlarining (masalan, La-Plata ispanchasi, ispan tilining meksikacha varianti, Kuba, Argentina, Pireney shevalari va h.k.) mavjudligi qayd etadi. (1; 120)

Ispan tilining yer sharining turli burchaklarida tarqalishi har bir hududga xos bo‘lgan lisoniy hodisalar hamda shakllarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan va mazkur turfa xil shakldagi til variantlari “ispan tili” nomi ostida birlashib, o‘z ichiga bir qator vazifaviy tizimlar – milliy variantlar, ispan tilida so‘zlashuvchi har bir mamlakatgagina xos bo‘lgan hududiy va ijtimoiy dialektlar (shevalar)ni oladi.

Rus ispanshunosligida G.V. Stepanov ispan tilining lingvistik o‘zgaruvchanlik muammosi hamda zamonaviy ispan tilining milliy variantlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga asos solgan. Uning tadqiqoti V.S. Vinogradov, N.M. Firsova va uning ispanshunoslik maktabi vakillari tomonidan davom ettirilgan.

N.M. Firsova ba’zi chet tillarini (xususan, ispan tilini) o‘rganishda nafaqat turli tillarga, balki bir tilning turli milliy variantlariga asoslangan qiyosiy kuzatuvlarni o‘tkazish zarurligi haqidagi qoidalarni ilgari surdi. (3; 4) Shuningdek, u turli xil lingvistik (xususan, diaxroniya va sinxronizatsiya nuqtayi nazaridan lisoniy aloqalari) va ekstralingvistik (masalan, madaniy-tarixiy, ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy, psixologik) omillar o‘rtasidagi tafovut tufayli ispan tilining o‘ziga xos variantlarini o‘rganishni taklif qildi. (2; 8)

Mazkur masalaga e’tibor qaratish, ayniqsa, Ispaniyada mavjud tillari xususiyati, kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qiluvchi turli tillarning tabiati va ichki omillarning o‘zi ham ta’sir qilishini hisobga olsak, muhimdir.

Zero, Ispaniyada to‘rtta asosiy adabiy til mavjud bo‘lib, kastelyano (ispan tili), euskera, katalan, galyego hisoblanadi. Undan tashqari mamlakatda bir qator lahjalarda ham so‘zlashiladi. Ushbu lahjalarning ayrimlari ham rasmiy til

maqomini olishga da'vogardir (masalan, Valensiya lahjasi). Bunday muhim madaniy va lingvistik xilma-xillik tufayli Ispaniyada til siyosati masalalari alohida ahamiyatga ega.

Ispaniyadagi mavjud milliy-madaniy sharoitda kastelyano (ispan) tili tarixan siyosiy hukmronlik vositasi sifatida qo'llanib kelingan va targ'ib etilgani alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy Ispaniyada ispan mintaqachiligining ochiq modelini shakllantirishga yordam beradigan o'ziga xos xususiyatlardan biri bu til huquqlarini mustahkamlashdir. Kataloniyaliklardan tashqari, Galisiya va Basklar mamlakati kabi boshqa tarixiy boy mintaqalar ham Ispaniya tarkibida alohida maqomni talab qilmoqdalar. Mazkur mintaqalar allaqachon Ispaniyani tashkil etuvchi o'n yettita avtonom jamiyat ichida alohida mavqega ega bo'lib ulgurgan.

Ispaniyada mintaqaviy til o'z taqdirini o'zi belgilash uchun kurashning asosiy elementiga aylanmoqda. Mamlakatda mavjud "millatchi" guruhlar o'z madaniyati va tilini rivojlantirish va himoya qilishga intilishadi va ular o'zlarining mintaqaviy tillarini o'zlarining avtonomiyalarida yagona "davlat" tili sifatida tan olinishini qo'llab-quvvatlaydilar, hatto bu ispan tilining maqomiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biroq, til birligi davlatning yaxlitligini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Kastiliya ispanchasi xalqaro maydonda ham, Iberiya yarim orolida ham davlat ehtiyojlariga muvaffaqiyatli xizmat qiladi. Shunday bo'lsa-da, kastelyano (ispan) tilini o'rganish mamlakatda majburiy hisoblanib, hatto dominant til bo'lmagan hududlarda ham rasmiy maqomga ega. (4)

Ispaniyadagi zamonaviy til holatining o'ziga xosligi asosan Iberiya yarim oroli xalqlarining turli etnik qatlamga mansubligi bilan bog'liq. Kastiliya, Kataloniya, Bask va Galisiya xalqlarining ijtimoiy, lisoniy hamda madaniy tabiati murakkab sotsiolingvistik vaziyatni keltirib chiqaradi. 1978-yilda qabul qilingan Ispaniya Konstitutsiyasiga ko'ra, kastelyano (ispan) mamlakatda davlat tili hisoblanadi, avtonom jamiyatlar esa o'zlarining milliy tilini rasmiy deb e'lon qilishlari mumkin.

Ichki siyosiy kurashning kuchayishi va separatistik tendensiyalarning kuchayishi tufayli hukumat darajasida Ispaniyaning milliy tillarini (davlat tili bilan birga) Yevropa Ittifoqining rasmiy tillari reestriga kiritish bo'yicha takliflar bildirildi.

Shuningdek, Kataloniyada ikki tillilikning sezilarli o'sishini alohida ta'kidlash kerak, bu hududda ispan tilining obro'sini pasaytirish va uni katalanlashtirish tendensiyasi mavjud. Alohida avtonom jamoalarning mintaqaviy hukumatlari (Kantar orollari, Aragon, Asturiya, Valensiya) ispan tilining ba'zi hududiy lahjalariga til maqomini berish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda. (6)

Adabiy ispancha ispan tilining tarixiy va zamonaviy mavjudligining ikkinchi asosiy shaklidir. Buning sababi shundaki, u ushbu shaklning eng muhim qismi sifatida milliy tilning bir qismi hisoblanadi. (5; 87)

Ispan tilining milliy versiyasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- 1) ispan tili rasmiy (davlat) tili darajasiga ega;
- 2) milliy adabiy normaning mavjudligi;
- 3) ispan tili mutlaq aholining ona tili yoki ispan tilida so'zlashuvchi aholining ulushi mamlakat umumiy aholisining 50% dan ortig'ini tashkil qilishi;
- 4) ispan tili jamoatchilik funksiyalarining to'liq hajmini bajarishi;
- 5) til taniqli lingvistik va madaniy o'ziga xoslikka ega. (2;19)

Ispan tilining Lotin Amerikacha milliy variantlari, eng avvalo, kelib chiqishi hindu bo'lgan hamda ispan tilli aholi tiliga ajraladi. Milliy variantlardagi bu farqlar ispan tilini tarqatishning turli sohalarida yashovchi etnik jamoalarning tillari katta ta'sir ko'rsatdi va ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ushbu ta'sir ma'lum bir hududda avtohton til maqomiga qarab belgilanadi.

Ispan va Lotin Amerikasi tilshunoslari va sotsiolingvistlari orasida ispan tilining mavjud shakllarining yagona differensial belgilari hali ishlab chiqilmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, bir qator davlatlarda ispan tilining sotsiolingvistik maqomini ko'rsatish jiddiy tortishuvlarga sabab bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ispan tilining milliy variantlari o'rtasida tilning

barcha darajalarida til me'yorlari bo'yicha farqlar mavjud. Har bir milliy adabiy me'yor doirasida tilning turli darajalari bilan muvofiqlashtirilgan bir qator sub-normalarni ajratish mumkin, xususan:

- 1) fonetik-intonatsiya (prosodik);
- 2) grammatik (bu darajada farqlar yeng kam darajada namoyon bo'ladi);
- 3) leksik-semantik;
- 4) frazeologik;
- 5) stilistik. (2; 12)

Xulosa qilib aytganda, Umuman olganda, til har doim ikkita asosiy prinsipga asoslangan me'yorni o'rnatishga intiladi: kommunikativ samaradorlik va lingvistik to'g'rilik. Biroq, ikkinchi tamoyilni qabul qilishda muammo yuzaga keladi, chunki bitta tilda boshqa variantlarda mavjud bo'lmagan mutlaqo sof va to'g'ri shakllar mavjud emas. Muayyan mintaqada qabul qilingan va boshqalardan farq qiladigan har bir shakl o'z me'yorlariga ega. Asosiysi quyidagicha: agar "maxsus" til shakllari umumiy qabul qilingan norma sifatida qabul qilinsa, bu madaniy, siyosiy yoki ijtimoiy sabablarga ko'ra boshqa shakllar hisobiga sodir bo'lmasligi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Виноградов В.С. Лексикология испанского языка. – М.: Высшая школа, 2003. – 192 с. – С. 120.
2. Фирсова Н.М. Грамматическая стилистика современного испанского языка. Имя существительное. Глагол: Учеб, пособие. - М.: Изд-во РУДН, 2002. - 352 с. –С. 19-20.
3. Фирсова Н.М., Чеснокова О.С. Обращение в современном испанском языке: Учеб, пособие. - М.: Изд-во УДН, 1987. - 92 с. –С.4.
4. Barbería J.L. La ideología de las lenguas. Available at: [https://elpais.com/politica/2015/09/21/actualidad/1442850079\\_347592.html](https://elpais.com/politica/2015/09/21/actualidad/1442850079_347592.html);

5. Guitarte G.L. Del español de España al español de veinte naciones: la integración de América al concepto de lengua española. — Salamanca: Junta de Castilla y León, 1991.

El español: una lengua viva: Informe 2018 Instituto Cervantes. Available at:  
[https://cvc.cervantes.es/lengua/espanol\\_lengua\\_viva/pdf/espanol\\_lengua\\_viva\\_2018.pdf](https://cvc.cervantes.es/lengua/espanol_lengua_viva/pdf/espanol_lengua_viva_2018.pdf)

6. El español: una lengua viva: Informe 2018 Instituto Cervantes. Available at:  
[https://cvc.cervantes.es/lengua/espanol\\_lengua\\_viva/pdf/espanol\\_lengua\\_viva\\_2018.pdf](https://cvc.cervantes.es/lengua/espanol_lengua_viva/pdf/espanol_lengua_viva_2018.pdf)

## **SO‘ZLARNING MATN TARKIBIDAGI KO‘CHMA MA’NOLARINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

M.Fozilova,  
O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedراسي dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tilining amaliy uslubiyati fanini o‘qitishda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o‘quv jarayonini tashkil etishning samarasi haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация.** Использование интерактивных и современных методов обучения практической методике узбекского языка является эффективной основой организации учебного процесса.

**Abstract.** The use of interactive and modern methods of teaching practical methods of the Uzbek language is an effective basis for organizing the educational process.

**Kalit so‘zlar:** “T -chizmasi”, leksik uslubiyat, badiiy tasvir vositalari, konnotativ, sinekdoxa, zamonaviy metodlar, metonimiya, metafora, denotativ, axborot texnologiyalari.

**Ключевые слова:** “Т-рисунок”, лексическая методология, средства художественного изображения, коннотатив, синекдоха, современные методы, метонимия, метафора, денотатив, информационные технологии.

**Key words:** "T-drawing", lexical methodology, means of artistic representation, connotative, synecdoche, modern methods, metonymy, metaphor, denotative, information technologies.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga turli yangi interfaol metodlar tatbiq qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator yangi tipdagi metod va topshiriqlar amaliyotda sinab ko'rilmoqda. Y.S.Antonovning fikricha, o'qituvchi o'qitish ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun shuni tushunib olishi kerakki, o'zi darsda o'quvchiga uzatayotgan ma'lumotlar axborot, ya'ni kelgusidagi bilim yoki malaka uchun ashyo hisoblanadi, xolos. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati o'quvchilarda olinayotgan axborotlarni bilimga aylantirish malakasini shakllantirish bilan shartlanadi [Антонова, 2007: 10]. Bu o'rinda har bir o'qituvchi dars mashg'ulotlariga ijodiy yondashgan holda tashkil etilishi talabalarning ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilmog'i muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ilg'or fikrli o'qituvchilarning ijodiy izlanishlari natijasida bir qancha zamonaviy ta'lim usullari ishlab chiqildi. [Karimov, 2008:72] Bu usullardan samarali foydalanish – o'qituvchidan o'z fanini puxta bilishni, ilg'or zamonaviy o'qitish usullaridan samarali foydalanish yo'llarini kashf etish va uni amalda qo'llay olishni talab qiladi. Har bir darsga alohida mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish o'qituvchining muqaddas burchidir. O'qituvchining dars o'tishdagi mahorati mavzuga mos metodlar va usullarni to'g'ri tanlay olishiga ham bog'liqdir. Tanlanadigan metod va usullar yalpi darsning o'ziga yoki uning ma'lum bir bosqichiga tatbiq etilishi joiz. Shundagina o'qituvchi darsning ham qiziqarli o'tishiga, ham talabaning darsga va fanga nisbatan qiziqishini oshirishga erishadi.

O'zbek tilining amaliy uslubiyati fanining ishchi fan dasturidagi "Leksik uslubiyat. So'zlarning matn tarkibidagi o'z va ko'chma ma'nolari va ularning uslubiy vazifalari" mavzusini o'tish bo'yicha quyidagi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Biz bilamiz, ko‘chma ma’noli so‘zlar qanday ma’no asosida ko‘chayotganligiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi: metafora, metonimiya, senekdoxa va vazifadoshlikdir. Interfaol usullarda ko‘chma ma’noli so‘zlarni o‘rgatish talabalarga majoziy tildan foydalanishnin tushunish va amaliyotda foydalanishga yaxshi samara beradi. Badiiy tasvir vositalari tushunchasini o‘rganishda adabiyotdagi badiiy matnlar yoki hayotdan misollar keltirishdan boshlash lozim. “T – chizma” metodidan foydalanilish, talabalarga badiiy matnlardagi ko‘chma ma’noli so‘zlarni bir-biridan farqlagan holda shakllantirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidan olingan parchani o‘qing va ko‘chimlarni aniqlang, keltirilgan jadvalga joylashtiring. Ularning ifodalilik jihatini izohlang.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiradigan tanlariga iliq qon yugurdi....

Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalar-da, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash‘asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi. Birinchi ko‘ringan ko‘klarni qushi birinchi yorilgan bodroq mash‘asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi....

“T – chizma” metodi	
Ko‘chma ma’no	O‘z ma’no
Suvlarning g‘amil yuzlari	Insonlarning g‘amil yuzlari

Talabalarning eshitib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun mavzuga mos audio matnlar eshittiriladi va video lavhalar ham namoyish etiladi. “Yurtimning buguni” deb nomlangan video lavha talabalarga ko‘rsatiladi. Talabalar video lavhada uchragan ko‘chma ma’noli so‘zlarni topadilar va ularning

uslubiy vazifasini izohlaydilar. Audio matnlar va video lavhalar orqali o‘qitish talabalarda o‘rganilgan ma’lumotlarni oson o‘zlashtirishga va uzoqroq eslab qolishga yordam beradi.

O‘zbek tilida konnotativ ma’noni yuzaga chiqaruvchi ko‘chimlardan yana biri metonimiyadir.

Tilshunoslikda mazmunan aloqador bo‘lgan voqea-hodisa, predmet va ularning muayyan belgisi o‘rtasida ma’no ko‘chishi metonimiya hodisasi sifatida qaraladi.

1. Predmetning hajmini ifodalovchi so‘z shu predmet ma’nosini anglatadi:

Boshlig‘ing ko‘nglini bil sen,

Ketma pinjidan nari,

Paytini topsang mabodo,

Birga yuzta-yuzta qil. (E.Vohidov)

Ma'lumki, so‘zlashuv nutqida spirtli ichimlik yuz gramm nomi bilan ko‘chma ma'noda ishlatiladi. Bu o‘rinda hajmni ifodalovchi yuzta-yuzta so‘zining qo‘llanishi (gramm so‘zi ellipsisga uchragan) ichimlikni oz-ozdan ichish kerakligiga ishorani anglatadi. Bunday so‘zni qo‘llovchi kishilarning, odatda, oz-ozdan, ya'ni yuzta-yuzta qilib ichishi uchrashuvning tugab qolmasligini istashlari, shuningdek, dildan suhbatlashishlarida qo‘l keladi. Shoir so‘zlashuv jarayonidagi mazkur metonimik ifodani ayni shu maqsadda, ya'ni dildan dardlashib olishga undash ma'nosida qo‘llaydi.

Talabalar uchun badiiy matn namuna beriladi va “Aslini top” metodidan foydalaniladi.

### **Go‘zal tarbiya**

Go‘zal tarbiya-hayo qudratidan, ibo haroratidan, tafakkur mag‘zidan, samimiyat va xushxulqlik bog‘ining adl, sabr, qadr mevalaridan barpo bo‘ladi. U fazilat sohiblarining nafis va pokiza hayot bog‘ida gurkirab voyaga yetadi, donishmand ahlining fayzli suhbatlarida ko‘rkamlashadi, zukko aql egalari qo‘lida tobiga yetadi. Fazilat go‘zal tarbiya anhorining yoqasida parvarishlanib, iqbol

daraxti bo‘lib voyaga yetgan, so‘ng inoyat quyoshli taftidan bahra olib, o‘zida zukko aql, teran idrok, nodir farosat mevalarini jam qilgan sharif zotlardir.

Berilgan fikrlarni matn asosida to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tegishli ustunda ko‘rsating.

T/r	Tushunchalar	To‘g‘ri (A)	Noto‘g‘ri (B)
1	Matnda metaforalardan o‘rinli Foydalanilgan		
2.	Tafakkur donishmand ahlining fayzli suhbatlarida ko‘rkamlashadi		
3.	Fazilat ahli sharif zotlar hisoblanadi		
4.	Go‘zal tarbiya pokiza hayot bog‘ida voyaga yetadi		

O‘zbek tilida konnotativ ma‘noni yuzaga chiqaruvchi ko‘chimlardan yana biri sinekdoxadir. Sinekdoxada narsalarning son yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi. Sinekdoxaning quyidagi ko‘rinishlari mavjud.

1.	Butun bilan qismni ifodalash	Besh qo‘l barobar emas. Olma archayotib qo‘lini kesib oldi.
2.	Qism orqali butunni ifodalash	Ertalabdan buyon tuz totganim yo‘q. Shu bitta tuyoq bilan oltita bolani boqdim.

“Ijodkor talaba” metodi. Ushbu metoddan foydalanishda talabalar uchun to‘liq bo‘lmagan gaplar beriladi. Talabalardan ushbu gaplardagi bo‘shliqni iboralar bilan to‘ldirishi va ushbu iboralarda ma‘no ko‘chish hodisasining qaysi turi ishtirok etayotganligini izohlashi so‘raladi.

1. Sekinroq gapiring, aylanay, ... (birov eshitib qolmasin ma'nosida) J: devorning ham qulog'i bor.

2. Ba'zan davon oshishingga ... (ishonmay, qo'rqib ketasan) J: ko'zing yetmay, yuraging orqaga tortib ketadi.

3. Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning ... (yutdi) J: qo'li baland keldi.

4. Xushxabarni Solijonning onasiga yetkazish uchun .... (tez yugurdi). J: oyoq bo'lib yugurdim.

Talabalar mazkur metodlar bilan ishlashda birinchi ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'zlerining nazariy bilimlarini doimo chuqurlashtirib va amaliy ko'nikmalarini doimo takomillashtirib boradilar. Barcha o'quv fanlarida dars o'tish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarda o'zbek tilining amaliy uslubiyati fanini o'qitishda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonini tashkil etishning samarali asosidir. Zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish talabarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda dars mashg'ulotiga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim dasturlaridan xabardor bo'lish imkonini beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim- tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Тошкент, Ўқитувчи 1992.
2. Ишмухамедов Р., М.Юлдошев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Тошкент, 2013.
2. Jiyanova N. O'zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent, 2018.
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANINI O‘QITISHDA KINO VA VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Umar Choriyev,  
O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanini o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar beriladi hamda dars davomida videotasvirlardan foydalanishning ahamiyati haqida ba‘zi mulohazalar keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** metodika, ko‘rgazmalilik, videotasvir, audiovizual.

Ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya hamma davrlar uchun ham dolzarb bo‘lib kelgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda “2019-yilda mamlakatni rivojlantirishning eng muhim ustivor vazifalari to‘g‘risida” parlamentga Murojaatnomasida ta‘lim-tarbiya va o‘qitish tizimi haqida gapirar ekan, ilm-ma‘rifat va texnologiyalar rivojiga ham alohida ahamiyat qaratdi. “Sharq donishmandlari aytganidek, – Eng katta boylik– bu aql –zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bilimsizlikdir<sup>38</sup>. Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma‘rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”, – deb ta‘kidladilar yurtboshimiz o‘z ma‘ruzalarida. Murojaatnomada yana ona tili va adabiyotni qaytadan isloh qilish, ona tili tizimini shakllantirish, adabiyotga alohida e‘tibor berish masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tdilar. Jadid adabiyoti vakillari ijodini chuqur o‘rganib, yoshlarni ularning asarlari, yashagan adabiy muhiti bilan yaqindan tanishtirish haqida so‘z yuritdilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta‘lim bosqichlarida jadid adabiyotiga kengroq o‘rin ajratilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, umumta‘lim maktablarida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi 5-, 7-, 10-sinflarda 1 soatdan o‘tiladi. Xo‘sh, bu sinflarda yozuvchi hayoti va ijodi bir

---

<sup>38</sup> Turdaliyev Sh., Eng katta boylik – bu ilm, yaxshi tarbiya, o‘ta qashshoqlik bu bilimsizlikdir.// Xalq so‘zi. 2022, aprel.

xilda o'rganiladimi? Biz ushbu masalaga o'z imkoniyatimiz darajasida to'xtalmoqchimiz. Shu o'rinda, metodist olim Q. Yo'ldoshev "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" nomli qo'llanmasida, shu to'g'ridagi fikrlarni keltirishni lozim ko'rdik: "...adabiyot darslarida hamisha yozuvchilarning tarjimai hollariga oid ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar, ko'pincha, bir necha sinflarda takror-takror keltiriladi va biri biridan jiddiy farq qilmaydi. Yuqori sinflarda esa tarjimai holga juda katta o'rin ajratilib, adibning hayoti va ijod yo'liga ancha batafsil to'xtalinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarimiz adiblarni faqat ism-u sharifi va yozgan asarlaridagina farqlay olishardi, xolos," – deb yozgan va barchaning diqqatini yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatishdagi asosiy kamchiliklarga tortgan. Adabiyotshunos olim B. To'xliyev esa, "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida ham yozuvchi tarjimai holini o'rgatish masalasiga tegishli quyidagi mulohazalarni bayon qilgan: "Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayricha ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pincha, asarning g'oyaviy, badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qayerlardan olinadi? Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollaridan, adib haqida aytilgan zamondoshlari, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari yoki yozma holida yetib kelgan manbalardan olinishi mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir".

Shuningdek, Abdulla Qodiriyning o'g'li Habibullo Qodiriyning "Otam haqida", shoir Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" kabi tarixiy asarlaridan ham ba'zi qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tish joizdir. Xullas, dars jihozlari sifatida adibning hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy albom, matbuot materiallari, adabiyotshunos olimlar asarlari tanlanadi. Ular sinfda yaxshigina ko'rgazma holida qo'yilib, o'quvchilarga taqdim etiladi.

"O'tgan kunlar" romanida turli ijtimoiy guruh vakillarining obrazlari mavjud. Hech kimga sir emaski, obraz yaratish murakkab jarayondir. Har bir obraz tarixiy,

hayotiy voqea va badiiy to‘qima faktlarning tajassumidir. Otabek, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Ziyo shohichi, Homidlar – davlamand va savdogarlar muhiti vakillari; Azizbek, Musulmonqul, Xudoyorxon, O‘tabboy qushbegilar – hukmdor sinf vakillari bo‘lib, adib bu obrazlarni yaratar ekan, real prototiplarga va tarixiy xronikal materialga tayangan; Usta olim, Hasanali – fuqarolar sinfidan bo‘lishsa, xilma-xil xarakterdagi xotin-qizlar obrazi: Kumush, Oftoboyim, Xushro‘y, O‘zbek oyim timsolini yoritish yozuvchidan ancha mahorat talab qilgan va shuni e‘tirof etmoq joizki, buni adib uddasidan chiqqan. Yozuvchining shu mahoratidan kelib chiqib, dars jarayonida asarni tahlil qilishda “Teskari test” metodidan foydalanish ham asar qahramonlarining portretini chizishda juda qo‘l keladi. Bunda testning javobi belgilanadi va o‘quvchilar shu javobga muvofiq savol tuzadilar va bu metod javobga nisbatan qanday fikrlar borligini ko‘rsatadi.

### ***“TESKARI TEST” METODI***

1. .... ?

A) Ziyo shohichi B) Raxmat C) Otabek D) Homid

(savol variantlari quyidagicha bo‘lishi mumkin).

1. Kumushga g‘oyibona oshiq bo‘lib yurgan, ammo unga erisholmagan qahramon kim?

2. Otabek va Mirzakarim qutidorga tuhmat qilib, ularni dor oldiga boshlab borishga harakat qilgan obraz?

3. Ayollarga past nazar bilan qaraydigan, ularni Yaratganning xatosi deb biladigan qahramon nomi keltirilgan qatorni toping.

4. “Qamchingdan qon tomib tursa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan” so‘zlari kim tomonidan aytilgan?

5. Otabek va Kumush orasiga nifoq solishga harakat qilib, o‘z umriga zomin bo‘lgan salbiy qahramon kim?

Bu metod bir tushunchaga kengroq yondashishda, kam vaqt ichida katta natijaga erishishga yordam beradi. Asar qahramonlari haqida to‘xtalar ekanmiz,

ularga qo'yilgan ismlar ham o'ziga xos ramziylik kasb etganining guvohi bo'lamiz. Mirzakarim qutidor oilasiga nazar tashlasak, Oftoboyim va Kumushbibi obrazlarida ham o'ziga xoslik mavjud. Darsda "Tarmoqlash" metodini qo'llash orqali ham o'quvchilar "O'tgan kunlar" romani xususidagi tushunchalarini shakllantiradilar. "Tarmoqlash" metodi asosida romandagi har bir obrazga tavsif berar ekanlar, o'quvchilar erkin fikrlashga o'rganish bilan birga, ularga xos xususiyatlardan kelib chiqib, milliylik – tashqi belgi emas, balki u ichki holat ekanligini ham tahlillar asosida ochib berishadi. "O'tgan kunlar" romani milliy ruh juda bo'rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi. Bu xususan, Otabekning ota-onasi bilan Qutidor va Oftoboyimlarning qudalari hamda kuyovlari bilan munosobatlari tasvirlangan o'rinlarda faqat o'zbekkagina xos fikrlash va ta'sirlanish yo'sini juda go'zal ko'rsatilgan. Bir so'z bilan aytganda, "O'tgan kunlar" romanini ta'lim bosqichlarida o'tish o'qituvchidan mahorat, o'quvchidan matonat talab qiladi. Hozirgi kunning o'quvchisi oqni oq, qorani qora deydigan, kim nima desa ortidan ergashib ketaveradigan o'quvchi emas. Uning o'z dunyoqarashi, zamonaviy olami, fikri va tasavvuri bor. U asarni to'g'ri va xolis baholaydigan, yangi ko'rinishlarini ko'ra oladigan, uni yangicha talqin qila oladigan iqtidorga ega.

#### **"Ikki tomonlama kundalik" metodi**

Bu metodda ikki qismdan iborat bo'lgan jadval tuziladi. Jadvalning birinchi qismiga "O'tgan kunlar" romanidagi o'quvchilarga notanish bo'lgan so'zlar yoziladi. Ikkinchi qismi ochiq qoldiriladi. O'quvchilar esa ochiq qolgan qismga shu so'zning bugungi kundagi ma'nosini topib yozadilar va izohlaydilar. O'qituvchi javoblarni tinglab natijalarni to'plab boradi. Bu metod o'quvchilarga romanni yaxshi tushunishiga katta yordam beradi. O'quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida "O'tgan kunlar" romanidagi notanish bo'lgan so'zlar lug'ati hosil bo'ladi.

Yarlaqash      *Kechirmoq*  
Alvaddayn     *Va'dasiz bo'lmayin*

Jonso‘z            *Jon o‘rtovchi, azob beruvchi*

Mavzun            *Benuqson, Xushbichim*

Binti                *Qiz*

Hannos            *Shayton*

Itob                *Ta‘na, Malomat*

“O‘tgan kunlar” romanini o‘rganishda videomateriallardan foydalangan holda o‘quvchilarga quyidagicha topshiriqlar berishimiz mumkin, romanning o‘zi va kinosini solishtirib chiqish, ikkalasidagi farqlarni topib kelish. Kelasi darsda esa mana shu farqlar asosida tahlil jarayoni olib boriladi.

Asar tahlilida videomateriallardan foydalanib o‘rganish nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini oshiradi, balki ularning darsga bo‘lgan munosabati, dars davomida aktiv qatnashishida yaxshi samaralar beradi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga asardan videolavha ko‘rsatadi, o‘quvchilar qo‘yilgan lavha asosida bahs-munozaraga kirishib, tahlil qiladilar.

“O‘tgan kunlar” filmi bizning o‘zbek milliy klassik asarimiz hisoblanadi. Bu film yoki asar yana qayta-qayta chop etiladi. Kitobxonlar bu asarni qayta-qayta o‘qiydi. Bizga ma‘lumki, ushbu asarni o‘qigan yoki filmi ko‘rgan inson borki, har biri shu asardagi yoki bo‘lmasa filmdagi Otabek va Kumushni tasavvur qilmaslikni iloji yo‘q. “O‘tgan kunlar” filmi 1969-yili Abdulla Qodiriyning shu nomli romani asosida Yo‘ldosh A‘zamov rejissorligida suratga olingan. Filmda bosh rollarni O‘lmas Alixo‘jayev (Otabek) va Gulchehra Jamilova (Kumush) ijro etishgan. “O‘tgan kunlar” tariximizdagi xon zamonlari haqida hikoya qiladi. Ularning ilk uchrashuvlari asarda ham, filmda ham visol oqshomlarigacha yoritilmagan. Otabek Mirzakarim qutidor tomonidan kuyov deb aytilib fotiha qilingandan so‘ng to‘y kuni aniq bo‘ladi va to‘y tugagach, Kumush va Otabek chimildiqda uchrashadi. Asarning eng kulminatsion nuqtalaridan biri shu yerda, desak, adashmagan bo‘lamiz. Negaki, Kumush va Otabekning ilk uchrashuvi ularning muhabbatlari debochasi bo‘lgan ariq bo‘yidagi uchrashuv shu yerda chimildiqdagi uchrashuvdan so‘ng ochib beriladi. Otabek va Kumush uchrashuvi,

Otabekning o‘z sevikli yoriga yetishganiga ishongisi kelmagandek, “Jonim!” deya barcha hayajonini, barcha jozibasini o‘z ichiga olgan bu so‘z inson qalbini larzaga solishi hech gap emas. Kumush esa qo‘rquv ichida “Ushlanmangiz...” deyishi va shu holatni tasvirlashda aktyor va aktrisa juda katta talab qo‘yilgan. Kumush qo‘rquv aralash yer ostidan asta Otabekka qarashi va undagi qo‘rquv baxtga aylanishi ekranda juda ta’sirli qilib ochib berilgan. Shuningdek, dars davomida ko‘rgazmalilik asosida asar qahramonlarini ta’riflash ham o‘quvchilar mavzuni yaxshi o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Videotasvirlar o‘quvchilar tasavvurini oson yuzaga chiqaradi. Qahramonlarning ruhiy kechinmalarini yaqqol ko‘radi va yana-da aniqroq his qilishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // Xalq so‘zi, 2016 yil, 16 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisdagi ma‘ruzasi// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 16-yanvar.
3. Rizayev Sh. Jadid ma’rifatchiligi va teatr. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchilik tarixiga chizgilar). – Davriy to‘plam. – №1. – Toshkent: Universitet, 1999. –199-203 b.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K., Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik, –T.: Respublika ta’lim markazi, 2022.

## O‘ZBEK TILIDA INSON TANA A‘ZOLARI HARAKATINI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING O‘RGANILISHI

Avezova Nigora Safarovna,

Oz‘DJTU

Ikkinchi chet tili kafedrası katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Leksik birliklarda ifodalanadigan turli xususiyatlar xalqning milliy mentaliteti, qadriyatlarini aks ettiradi. Tipologik tadqiqotlar ma’lum bir guruhdagi leksik birliklar semantikasi, o‘zaro tarjiması va leksikografik talqinining mukammallashuviga xizmat qiladi.

**Аннотация.** различные характеристики, выраженные в лексических единицах, отражают национальный менталитет, ценности народа. Типологические исследования служат совершенствованию семантики, взаимного перевода и лексикографического толкования лексических единиц определенной группы.

**Abstract.** various features expressed in lexical units reflect the national mentality, values of the people. Typological studies serve to perfect the semantics, mutual translation, and lexicographic interpretation of lexical units in a given group.

Ma’lumki, tipologik aspektdagi ishlarda solishtirilayotgan tillardagi fonema va fonetik hodisa, leksik va frazeologik birlik, grammatik birlik va ular o‘rtasidagi sintaktik aloqalarni o‘zaro chog‘ishtirish natijasida xulosalarga kelinadi. Xususan, tillardagi leksik birliklar qiyosan o‘rganilganda bu til tashuvchisi sanalgan xalqlarning milliy madaniyati, tarixi, urf-odat va an‘analari aniq namoyon bo‘ladi. M.Gadoyevaning yozishicha, “dunyo tilshunosligida somatizmlar alohida leksik-semantik guruh sifatida tan olinib, ularning struktur-semantik hamda kommunikativ-pragmatik jihatlari, nutqda voqelanish mexanizmlari, ularning translologik xossalari keng ko‘lamli tadqiqotlarda yoritilgan. Shu asosda ingliz va o‘zbek tillarida ham somatizmlarning milliy-madaniy, gender, stilistik-funksional, kognitiv-pragmatik, denotativ va konnotativ xususiyatlarini belgilash, folklorga aloqador maqol, topishmoq, olqish, qarg‘ish kabi kichik janrlar tarkibida

tipologik, differensial, konseptual talqinini lingvokulturologiya, ideostilistika doirasida amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar chog‘ishtirma folklorshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslikning ilmiy-amaliy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, til va nutq, xalq tili va adabiy til, bir tildan boshqa tilga somatizmlarni o‘g‘irish tamoyillarini aniqlash imkonini beradi”.

Somatik leksika tarkibiy qismlari sifatida inson tanasining qismlari, hayvonlar tanasining qismlaridan tashkil topgan birliklar tushuniladi. Bu atama biologiyada, tibbiyotda “inson tanasi bilan bog‘liq narsa” ma’nosida ishlatilishi mumkin. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida tilshunoslar somatik leksikaga alohida e’tibor berib, madaniyatlararo muloqot muammolarining kerakli yechimlarini topishga, tilning leksik tarkibini o‘rganish samaradorligini oshirishga harakat qilmoqdalar. Somatizm atamasi birinchi marta F.O. Vakk tomonidan kiritilgan.

Somatizmlar inson tana a’zolarining nomlarini o‘zida aks ettiruvchi leksik birlik bo‘lib, ular mustaqil ma’no anglatuvchi otlar sifatida o‘rganiladi. Asosan, otlarga xos so‘roq, grammatik ko‘rsatkichlar, ya’ni egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qilib kelib, otlar kabi predmet tushunchasini anglatib, turlanadi. Aniq otlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo bizning tadqiq obyektimiz somatizmlar emas, balki somatizmlar harakatini ifodalovchi leksemalar – fe’llardir.

Barcha tillardagi somatik so‘zlar umumlashtirilgan holda “somonimik so‘zlar”, ularni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi “Somonimiya” deb yuritiladi. “Somonimiya” deganda, asosan, qiyoslanayotgan tillardagi somatik so‘zlar tushuniladi. Ular inson tana qismlarining joylashuvini anglatadi:

1. Bosh va uning qismlari nomlari.
2. Bo‘yin va tomoq qism a‘zolari.
3. Osteonemik so‘zlar (bunday so‘zlar sohasiga inson tanasidagi suyak va bo‘g‘inlarni ifodalovchi so‘zlar kiradi.
4. Yuqori qo‘l qismi nomlari.
5. Pastki qo‘l qismi nomlari.
6. Ko‘krakqismi nomlari.

7. Bel qismi nomlari.
8. Beldan past qism nomlari.
9. Oyoq qism nomlari.

Bularning hammasi barcha xalqlarning til tizimida yaxlit sistema sifatida mavjud. Shu tarzda somatizmlarning makro va mikro maydoni miqyosini tasavvur qilish va anglash mumkin. Somatizmlarni mazkur mikro va makro maydonlari asosida ular ifodalovchi harakatni bildiruvchi leksemalar semantik guruhini o'rganish mumkin. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, inson tana a'zolari harakatini ifodalovchi fe'llar somatizmlardan farqli ravishda o'ziga xos guruhlariga bo'linadi.

O'zbek tilida somatizmlar, ular vositasida shakllangan frazeologik birliklar va maqollar tadqiqiga oid ishlar talaygina. Quyida mazkur ishlarning mazmuni, tadqiq obyekti va predmeti, xulosalarining umumiy sharhini keltiramiz.

Ta'kidlash joizki, turli tillarning leksik tizimiga oid somatik frazeologizmlarni o'rganish yuzasidan A.Isayev, O.Nazarov, Sh.Usmonova, Sh.Nazirova, H.Alimova, U.Rashidovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tilda frazeologik birliklarning lingvistik va ontologik tabiatini o'rganishga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Somatik iboralarni tadqiq etishning dolzarbligi haqida U.Rashidova shunday yozadi: "O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik va grammatik tabiatini to'g'ri anglash, ularning miqdorini, xususiyatlarini chuqur o'rganish asosida tuziladigan frazeologik lug'atlarda ularning yangi ma'nolarini keyingi asr va mustaqillik yillarda yaratilgan materiallar asosida ochib berish o'zbek frazeologiyasi, leksikografiyasi hamda frazeografiyasi oldida turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi".

U.Rashidovaning "O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida)" sarlavhali monografik tadqiqotida o'zbek tilida faol qo'llanuvchi ko'z, qo'l va yurak komponentli somatik frazemalarning pragmatik, lingvokulturologik, kognitologik, paradigmatic

va sintagmatik xususiyatlari ochib berilgan; ko‘z, qo‘l va yurak komponentli somatik frazemalarning milliy-madaniy mohiyati hamda so‘zlashuv, badiiy-publisistik matndagi semantik-pragmatik va funksional-stilistik xususiyatlari asoslangan; inson tana a‘zolari bilan bog‘liq somatik frazemalarning o‘z semantik maydonining kengligi, emotsional-ekspressiv jihatdan rang-barangligi bilan o‘z qatlamidagi iboralardan jiddiy farqlanishi, nisbiy kommunikativ ustunligi hamda faolligi aniqlangan; ko‘z, qo‘l va yurak komponentli somatik frazemalarning badiiy-publisistik matnlardagi eksplitsit va implitsit ifodalanish usullari aniqlanib, ularning konseptual belgilarni ifodalovchi leksikografik xususiyatlari dalillangan.

M.Gadoyeva esa somatizmlarning til leksik tizimidagi o‘rnini quyidagicha izohlaydi: “Somatizmlar tilda o‘z o‘rniga ega lisoniy birliklar bo‘lib, muayyan leksik tizimni tashkil etadi. Ularning til va nutqdagi o‘rni yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Somatizmlar barcha xalqlarning til tizimida inson tana a‘zolarini ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, ingliz va o‘zbek tilida ham ular yaxlit tizim sifatida mavjud bo‘lib, makro va mikro semantik maydonlarni hosil qiladi” degan o‘rinli xulosaga keladi. Haqiqatan ham, somatizmlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil qiluvchi birliklar bo‘lib, lisoniy tizimda o‘z o‘rniga ega. Bu LMG mansub birliklar semantik jihatdan mustaqil paradigma tashkil qiladi.

M.Gadoyevaning ta’kidlashiga ko‘ra, “Barcha xalqlarning tilida tug‘ilish, bola parvarishi, uylanish, oila qurish bilan bog‘liq to‘y, o‘lim hodisasiga aloqador motam marosimi va ularga daxldor turli-tuman urf-odatlarining nomi shakllanishida somatizmlarning alohida o‘rni va ta’siri borligi kuzatiladi. Lekin bu haqda haligacha maxsus tadqiqotlar yaratilmagan. Marosim, urf-odatlar nomining shakllantirilishida somatizmlarning xalq madaniy hayoti, milliy psixologiyasi ta’sirida qo‘llanishi anglashilib turadi. Buni har bir xalqning marosim va urf-odatlarida nomida somatizmlarning faol qo‘llangani ham dalillaydi. Masalan, bolalar hayoti bilan bog‘liq “Soch to‘yi”, “Tish to‘yi”, “Oyoq bosdi” yoki “Oyoq chiqardi”, Sunnat to‘yiga oid “Qo‘lini halollash”, “Quloq cho‘zma”, nikoh to‘yi bilan bog‘liq “Oyoq bosdi”, “Qo‘l ushlatar”, “Soch siypatar”, “Yuz ochdi”,

“Boshini bog‘lamoq” va hokozolar shular jumlasidandir”. Bundan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham inson tana a‘zolari harakatini ifodalovchi leksemalar faol ishtirok etadi. Demak, insonning maishiy hayotida mazkur leksemalarning qo‘llanish chastotasi yuqori. Bu esa somatizmlar hamda inson tana a‘zolari harakatini ifodalovchi leksemalarning folklor asarlarida ham yorqin namoyon bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 60 б.
2. Gadoyeva M.I. Somatik leksikaning xususiyatlari // Scientific progress. – 2021, T.2. № 6. – P. 1749-1754.
3. Назаров О. Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов русского и туркменского языков: Автореф. дисс. канд. филол.наук. – Ашхабад, 1973. – С.16-17.; Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка. Дисс. канд. филол.наук. – Ташкент, 1976. – 196 с.; Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик иборалар. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1998. –162 б; Назирова Ш.О. Семантическая структура и сочетаемость соматизмов в английском, узбекском и русском языках. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 2004. – 145 с.; Алимова Х.З. Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – 139 б.
4. Рашидова У.М. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – 50 б.
5. Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): филология

фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 60 б. – 15-б.

## **RADIOPUBLITSISTIKA: EFIRNING AXBOROT KUCHI (FRANSIYA RADIOLARI MISOLIDA)**

Jumayeva Dilnoza Mirjonovna,  
O‘zbekiston Davlat  
Jahon Tillari Universiteti o‘qituvchisi

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются различные аспекты радиопублицистики и ее роль в обеспечении доступа к информации, обмене идеями и формировании общественного мнения. Также обсуждаются важные форматы и жанры новостей, интервью, дебатов и документальных программ, а также ряд аналогичных видов радиопублицистики.

**Ключевые слова:** радиопублицистика, публицисты, интервью, радиоочерк, радиорасска, радиофельтон, радиокomпозиции.

**Abstract.** This article examines various aspects of radiopublicistics and its role in ensuring access to information, exchanging ideas and shaping public opinion. Important formats and genres of news, interviews, debates and documentary programmes and a number of similar radiojournalism are also discussed.

**Key words:** Radio journalism, publicists, interviews, radio essay, radio story, radio feuilleton, radio compositions.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada radiopublitsistikaning turli jihatlari va uning axborot olish imkoniyatini ta’minlash, fikr almashish va jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yangiliklar, intervyular, munozaralar va hujjatli dasturlar hamda shu kabi bir qator radiopublitsistikaning muhim formatlari va janrlari muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Radiopublitsistika, publitsistlar, intervyu, radioocherk, radiohikoya, radiofeleton, radiokompozitsiyalar.

**Kirish.** Radiopublitsistikaning kelib chiqishi 20 asr boshlarida radiojurnalistikaning rivojlanishi bilan birga sodir bo'lgan. Radio ommaviy nutq so'zlash, dolzarb masalalarni muhokama qilish va voqealarni sharhlash uchun muhim platformaga aylandi. Radiopublitsistikaning ahamiyati bugungi kunda bir necha sabablarga ko'ra muhim bo'lib qolmoqda:

Radiopublitsistika tinglovchilarga dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni chuqur tahlil qilish va talqin qilishni ta'minlaydi. Radio publitsistlari turli sohalarda tajriba va bilimga ega bo'lib, tinglovchilar boshqa manbaalardan ololmaydigan ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin. Ular voqealarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini tahlil qiladi va tinglovchilarga ularning mazmuni va oqibatlarini tushunishga yordam beradi.

Radiopublitsistik janrdagi dasturlar tinglovchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Publitsistlar voqealarning rasmiy versiyalariga savol berishadi, turli nuqtai nazar va dalillarni o'rganishadi, dalillar va faktlarni tahlil qilishadi. Ular esa albatta, tinglovchini tanqidiy fikrlashga undaydi.

Umuman olganda, radiopublitsistika ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik muhokamasi vositasi sifatida juda muhimdir. Bu tinglovchilarga chuqur tahlil, ma'lumot va o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini beradi. Radiopublitsistika xabardor va tanqidiy jamoatchilik fikrini shakllantirishga yordam beribgina qolmay, demokratik jarayonlar va ochiq jamiyat rivojiga hissa qo'shadi.

**Radiopublitsistikaning janrlari: turli formatlar va ularning xususiyatlari.** Radiopublitsistikasi radioeshittirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, tinglovchilarga jamoat va siyosiy hayotning turli mavzularida ma'lumot, tahlil va sharhlar beradi. Asosiy maqsad esa jamoatchilik muloqotini xabardor qilish, o'qitish va rag'batlantirishdir.

Radiopublitsistika xususiyatlari va maqsadlari bilan farq qiluvchi turli janrlar va formatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu guruhning janrlari badiiy va publitsistik deb ham ataladi, chunki ular informatsion boshlanish, muallifning shaxsiy va hissiy bahosi va shaxs yoki voqea haqidagi xayoliy g'oyani birlashtiradi. Ushbu turdagi eshittirishlarga, birinchi navbatda, radioocherk, radiohikoya, radiofeleton, hujjatli drama nomi ostida jahon radioeshittirishida keng tarqalgan janr va radiokompozitsiyalar kiradi. Ularning barchasi radiojurnalistikasi va radiodramaturgiyasi o'rtasida yuz beradi. Qoida tariqasida, bunday radioeshittirishlar juda yorqin va g'ayrioddiy holatlar, faktlar va hayotiy to'qnashuvlarga asoslanadi, ammo markazda, jurnalistik va shuning uchun tinglovchilarning diqqat markazida har doim voqeani yaratgan shaxs, uning ishlari qoladi - istaklar, ishlar, harakatlar orqali ular his-tuyg'ular va fikrlarni yetkazadilar.

Radioocherk, radiohikoya va hujjatli dramada hayotning tashqi, hatto juda muhim holatlari emas, balki uning chuqur, ichki ziddiyatlari ko'rsatiladi. Va radioga xos vositalardan foydalanish, jonli ovozlari, haqiqiy shovqinlar va asar qahramoni o'zining haqiqiy hayotida yashaydigan o'ziga xos tovush muhitining parchalarini birlashtirish nafaqat materialning ma'lumotlilikini oshiradi, balki uni birlashtiradi hamda akustik muhit, voqealar, dialoglar va adabiy tavsiflar muallifning sharhlari bitta badiiy asarda jonlanadi.

Bugungi kunda axborot va fikrlarni yetkazish uchun radiopublitsistikada turli formatlardan keng foydalanib kelinmoqda. Ushbu maqolada biz ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

Yangiliklar va tegishli sharhlar: bu formatdagi eshittirishlar taqdim etuvchi radiostantsiyalar o'z tinglovchilariga turli mavzulardagi dolzarb voqealar va ishlanmalarni yorituvchi yangiliklarni yetkazib berishadi. Mutaxassislar yoki jurnalistlarning sharhlari va tahlillari tinglovchilarga nima bo'layotganini yaxshiroq tushunish va analiz qilishda yordam berish uchun yangiliklarga hamroh bo'lishi mumkin;

Hujjatli dasturlar: hujjatli dasturlar doirasida muayyan mavzular yoki voqealarni tadqiq qilish va yoritish jarayoni amalga oshiriladi. Ular ekspertlar,

guvohlar bilan suhbatlar, shuningdek arxiv materiallaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin;

Intervyu va suhbatlar: mutaxassislar, siyosatchilar, olimlar, yozuvchilar va boshqa qiziqarli shaxslar bilan suhbatlar radiopublitsistikaning muhim qismidir. Bunday suhbatlarning maqsadi ekspert xulosasi va tahlilini olish, shuningdek tinglovchilarga dastlabki ma'lumotlarni taqdim etishdir;

Munozara dasturlari va tok-shoular: ushbu dasturlar turli masalalar va muammolarni muhokama qilish uchun platforma yaratadi. Dastur boshlovchisi muloqotni rag'batlantirish va tinglovchilarga muammo bo'yicha turli nuqtai nazarlarni taqdim etish uchun mehmonlarni taklif qiladi va munozarani boshqaradi;

Tahliliy dasturlar: tahliliy dasturlar doirasida jurnalistlar va ekspertlar dolzarb voqealar, siyosiy va ijtimoiy tendensiyalarni tahlil qilib, tinglovchilarga chuqur tahlil va sharhlar berishadi. Bu tinglovchilarga murakkab masalalarni yaxshiroq tushunishga va asosli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Ushbu janrlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega va radiopublitsistikasi doirasida ma'lum maqsadlarga erishish uchun ishlatiladi.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, radiopublitsistikaning o'ziga xos formatlari va janrlari mahalliy ommaviy axborot vositalari an'analari, Qonunchilik va auditoriya ehtiyojlariga qarab turli mamlakatlarda va turli radiostansiyalarda farq qilishi mumkin.

Shu o'rinda Fransiya davlati radiostansiyalarida radiopublitsistik dasturlarining ahamiyatli jihatlarini tahlil qilsak. Bu davlatda ushbu ko'rinishdagi radioeshittirishlarni taqdim qiladigan ko'pgina radiostansiyalar mavjud. Fransiyadagi publitsistik tarkibga ixtisoslashgan eng taniqli radiostansiyalarning ba'zilariga to'xtalamiz:

France Inter: "France Inter" Fransiyadagi yetakchi radiostantsiyalardan biri bo'lib, keng ko'lamlı publitsistik dasturlarni taklif etadi. Shunday radio dasturlaridan ba'zilarida " Le 7/9 " (7/9), "Le Grand entretien " (Katta intervyu) va

" Affaires Sensibles " (Jiddiy holatlar) joriy voqealar va masalalar muhokama va tahlil qilinadi.

France Culture: "France Culture" madaniy va intellektual mavzularga qaratilgan. Bu yerda adabiyot, falsafa, san'at, tarix, fan va boshqa mavzulardagi dasturlarni tinglashingiz mumkin. Shuningdek, hujjatli dasturlar va taniqli shaxslar bilan intervyular tashkil etiladi. Xususan, "Fransiya madaniyati" bo'yicha ba'zi taniqli dasturlarga "Les Matins" (Ertalab), "La Grande Table " (Katta stol) va "La Fabrique de l'Histoire " (Tarix fabrikasi) kabi bir qator dasturlar bo'lib, ularda turli mavzular tahlil qilinadi va munozaralar olib boriladi.

France Info: "France Info" yangiliklar va axborot dasturlariga ixtisoslashgan radiostansiya. Ular yangiliklarni, eksklyuziv intervyular, tahliliy dasturlar va dolzarb voqealar haqida munozaralarni taqdim etadilar. Shu jumladan, "Le 6/9" (6/9) va "Le Téléphone Sonne" (Telefon jiringladi) dasturlari orqali muhim mavzular va masalalar muhokama qilinadi. Bu Fransiyada publitsistik formatidan foydalanadigan taniqli radio dasturlaridan ba'zi misollar. Fransuz radiostansiyalarida turli mavzularda tahlil, sharh va intervyular taqdim etadigan ko'plab boshqa dasturlar ham mavjud.

**Xulosa.** Radiopublitsistikaning janrlarini o'rganish va tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Radiodagi publitsistika janrlari radiojurnalistikaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, axborot makonida muhim rol o'ynaydi. Ular yangiliklarni uzatish, voqealarni tahlil qilish, dolzarb masalalarni sharhlash va jamoatchilik fikrini shakllantirishga yordam beradi;

Maqolani yozish davomida radioda publitsistikaning turli janrlari, jumladan yangiliklar, sharhlar, intervyular va reportajlar ko'rib chiqildi. Ushbu janrlarning har biri o'ziga xos xususiyat va maqsadlarga ega, shuningdek, radio o'z publitsistidan ma'lum mahorat talab qiladi;

Maqolada axborotning maksimal qiymatiga erishish va tinglovchilar e'tiborini jalb qilish uchun radioda publitsistikaning janrlaridan unumli foydalanish

muhimligi ta'kidlangan. Radioda publitsistika janrlari bilan ishlashda axborot uzatishning to'g'riligi, xolisligi va ravshanligi asosiy tamoyillardir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Audiovizual jurnalistika. J.6.- Toshkent., 2019.
2. Телерадиоэфир: История и современность. Под.ред. Ya.N.Zasurskogo. -M.:Aspekt Press, 2005.
3. Fixtelius E. Radio va televideniye jurnalistikasi asoslari.-T.: Sharq.-2002.

### **QORAXONIYLAR DAVRIDA TIL VA MADANIYAT**

Eshanqulov Dilmurod Xurramovich,

O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qarluq davlati va qarluqlar, ularning tili, madaniy hayoti, o'sha davrlarda yaratilgan adabiy asarlar hamda o'zbek elatining shakllanishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qarluq-chigil, dialekt, o'g'uz, qipchoq, etnos.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается карлукское государство и карлуки, их язык, культурная жизнь, литературные произведения, созданные в то время, а также формирование узбекского населения.

**Ключевые слова:** карлук-чигиль, диалект, огузы, кыпчаки, этнос.

**Abstract.** This article discusses the Qarluq state and the Qarluqs, their language, cultural life, literary works created in those times, and the formation of the Uzbek population.

**Key words:** Qarluq-chigil, dialect, O'guz, Kipchak, ethnos.

**Kirish.** Elatning shakllanishida til ham muhim ahamiyati ega. O'zbek elatining tashkil topishida qarluq-chigil tili yetakchi ro'l o'ynagan. Qarluq-chigil dialekti VIII-X asrlarda Yettisuvda Sharqiy Turkistonning g'arbiy qismida,

Sirdaryoning o'rtta oqimlarida, Movarounnahrda keng tarqalgan. Bu til Qoraxoniylar davlatining asosiy tili bo'lgan.

Shu davrlarda Sirdaryoning quyi oqimlarida, Nurato tog' etaklarida o'g'uz tili dialekti ham qat'iylashib borgan. XI asr boshlarida Sirdaryoning quyi oqimlariga qipchoqlarning katta guruhi kelib o'rnashadi va shu asr davomida qipchoq tili Movarounnahrning ayrim hududlariga tarqaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qipchoq tili qipchoq bo'lmagan, Dashti qipchoqda yashovchi qabilalar tiliga ham ta'sir qiladi. Demak, XI-XII asrlarda G'arbiy qoraxonlilar davlati hududida turkey tilning uch yirik (qarluq-chigil, o'g'uz va qipchoq) dialekti mavjud bo'lgan. Bu dialektlardan tashqari qabilaviy hamda hududiy dialektlar ham bo'lgan. Biroq, tilga olingan uch yirik dialektning ta'sir doirasi keng juda bo'lgan.

Dialektlarning ichida qarluq yoki qarluq-chigil dialekti Movarounnahr va unga tutash bo'lgan hududlar aholisi orasida qat'iy o'rnashib, G'arbiy qoraxonlilar davlatining tili bo'lib qolgan. Shuni aytib o'tish kerakki, X asrning ikkinchi yarmi va XI asrlarda qoraxoniylar davlati hududida mavjud til bundan oldingi asrlardagi (VIII-X asr o'rtalarigacha) qarluq-chigil tilidan biroz farq qilgan.

U davrda bu tilga qarluq qabila ittifoqi va keyin davlati tarkibidagi qabilalarning ta'siri kuchli bo'lgan [1].

Qarluqlar davrida (IX-X), ular hukmronlik qilgan katta hududda bir qancha o'troq (turk, tojik) yarim o'troq va yarim ko'chmanchi etnik guruhlar yashaganlar. Bu hududda yashovchi turkiyzabon aholining lahjalarida farq bo'lganligini Mahmud Qoshg'ariy o'z asarlarida ko'rsatib o'tgan. Shu bilan bir vaqtda olim ularning barchasi tushunadigan umumiy til (elat tili) mavjud bo'lganligini ham qayd qilgan [2].

Ana shu ko'pchilikka tushunarli bo'lgan tilni Mahmud Qoshg'ariy "hoqoniya" tili deb atagan. Mazkur til IX-X asrlar davomida shakllangan bo'lib, keyingi asrlarda yana ham takomillashib borgan. Qarluqlardan keyingi yirik etnos chigillar bo'lgan [3].

Har ikkala qardosh qabilalarning tillarida farq bo'lmagan, ularning lahjalari ( qarluq chigil) lahjasi IX-X asrlarda o'zbek elatining asosiy tili bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz. O'sha davrlarda qarluq va unga qardosh qabilalarning ko'pchiligi o'troqlashib, qadimdan turg'un yashab kelayotgan turkiy aholi bilan aralashib, keyingilarning ta'siri bilan qarluq-chigil tiliga arab-fors so'zlarining kirishi tobora ko'paygan edi.

Ma'lumki, Somoniylar davrida Movarounnahrda va unga tutashgan hududlarda ilm-fan keng taraqqiy etgan. Katta shaharlarda, masalan, Buxoro va Samarqandda ilmning bir necha sohalaridagi mutaxassislar (tibbiyot, falsafa, tarix, mantiq, astronomiya, geografiya va boshqa.) yashab ijod qilganlar. Ularning ayrimlari (masalan, Ibn Sino) arab, fors va turkiy xalqlar hududida ma'lum bo'lgan. Movarounnahr va Xuroson shaharlarida o'nlab shoirlar yashab ijod qilib kelar edilar. Buxoro va Samarqandda yirik kutubxonalar bo'lib, ularda arab-fors dunyosida ma'lum bo'lgan turli sohalardagi kitoblar to'plangan. Kitoblar shahar bozorlarida ham sotilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Arab va fors tillarida asar yozish G'arbiy qoraxoniylar davrida ham davom etgan. Bu tilda XI-XII asrlar davomida Buxoro, Samarqand, Shosh va Farg'ona shaharlarida shoirlar , adiblar, tarixchilar, faylasuflar va boshqa soha mutaxassislari tomonidan o'nlab asarlar yozilgan. Demak qoraxoniylar davrida ilm-fan so'nmagan, u davom etib, taraqqiy etib borgan. Olimu shoirlarga xoqonlar homiylik qilib kelganlar.

Qarluq-qoraxoniylar davrida arab, fors tillarida yozilgan kitoblar bilan bir vaqtda turkiy tilda yozilgan asarlar ham paydo bo'la boshlagan. Lekin ularning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan. IX asr boshlarida Misrda Abbosiylar xalifaligida yashagan ayrim turkiylar tomonidan she'r va qasidalar yozilganligi ma'lum. Ana shundan qiyos qilib, Movarounnahrda ham bu tilda asarlar yozilgan bo'lishi kerak desak xat6 bo'lmaydi. XI-XII asrlar davomida xalq og'zaki ijodi ham keng rivojlangan. "Doda qo'rqu" va O'g'uzxon haqidagi xalq dostonlari shu asrlarga kelib nafaqat ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va yarim o'troq

qabilalarda, balki turg'un yashovchi turkiy aholi orasida ham keng tarqalgan. Balki shu davrlarda turkiy xalqlarning sevimli dostoni "Alpomish" ham ommalashib ketgandir.

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, XI asr o'rtalarida qoraxoniylar hududida o'zbek elati o'z adabiy tiliga va yozma hamda og'zaki adabiyotiga ega bo'ladi. O'zbek ajdodlariga xos umumelat madaniyati shakllanishi jadal taraqqiy etib boradi. N. A. Baskakov qarluq til guruhi X-XI asrlarda paydo bo'lgan deb yozgan edi.

K. Shoniyozov bergan ma'lumotga ko'ra, qarluq til guruhi X-XI asrlarda emas, balki, IX-X asrlarda tashkil topgan. XI-XII asrlar davomida qarluq tili yana yana ham keng taraqqiy etib, shu davrning adabiy tili darajasiga ko'tarilgan. Bu tilda XI-XIII asrlar davomida ko'plab asarlar yozilgan. Shu asarlar ichida eng e'tiborlilari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Abu-l Abdulg'afur al-Almoniy "XI asr" tomonidan yozilgan "Tarixi Qoshg'ar", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviyning hikmatlari va boshqalardir.

Ma'lumki, XIII-XV asrlarda Movarounnahr va unga tutash hududlarda turg'un va yarim turg'unlikda yashovchi aholining katta qismi turkiy tilli etnoslar edi.

Bularning ko'pchiligi shu hududda qat'iylashib qolgan qarluq dialektida so'zlashgan. Bu davrlardagi qarluqlarning lug'aviy fondi arab va fors-tojik so'zlari bilan boyib, grammatik tizimi esa birmuncha takomillashib qolgan edi. Mazkur tilning taraqqiy etish darajasini XIII-XV va undan keyingi asrlarda yozilgan asarlardan bilib, tushunib olish qiyin emas. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu asrlarda yozilgan asarlarning tilida o'g'uz va qipchoq so'zlari ham sezilarli darajada bo'lgan.

**Xulosa va takliflar.** IX-X asrlarda Qarluq davlati hududida yashovchi xalqlar madaniyatida ham katta o'zgarishlar yuz bergan. Qarluq davlatida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning katta qismi o'troqlashadi, shahar va qishloqlar soni ko'payadi. Islom dini qat'iylashib, ilm-

ma'rifat taraqqiy eta boshlagan. IX-X asrlarda, ya'ni somoniylar hukmronligi va xorazmshohlar davrida Movarounnahr va Xorazmda madaniyatning turli sohalari, ilmu-fan oldingi asrlarga nisbatan bir necha marotaba o'sib, islom diniga e'tiqod kuchayib, Buxoro va Samarqand shaharlari Markaziy Osiyoning yirik diniy markazlari bo'lib qolgan edi.

Bu hududlarda yashovchi shahar va qishloq aholisi madaniyatining Sirdaryo sohillarida, Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga ijobiy ta'siri kuchli bo'lgan. Ilgari chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan qabilalarning ko'pchiligi o'troqlashadi, islom dinini qabul qilishadi, ilmga intilish kuchayadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shoniyozov K. Қарлуқ, давлати ва қарлуқлар: Ўзбек давлатчилиги тарихидан Масъул муҳаррир: А. Муҳаммаджонов). - Т.: Шарқ, 1999.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit turk, 1-jild.
3. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit turk, 1-jild.

## **MATEMATIK LINGVISTIKA VA UNING ASOSIY METODLARI**

Arapov G'ayrat Namozovich,  
Termiz davlat universiteti

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada matematik lingvistika va uning rivojlanishi hamda asosiy metodlari haqida so'z boradi.

**Аннотация.** В данной статье речь идет о математической лингвистике, ее развитии и основных методах.

**Abstract.** This article deals with mathematical linguistics and its development and main methods.

Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni hal qilishning kompyuter dasturlarini yaratishdir. Uning asosiy vazifalariga tillarga o'qitish, bilimlarni tekshirish matnlarni turli jihatdan tahrirlash va mashina tarjimasini uchun mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish kabilar kiradi. Bularni kompyuter tilshunosligining o'ziga xos yo'nalishlari deb atash mumkin. Ayni

vazifalarni kompyuter o‘z-o‘zidan amalga oshirmaydi, albatta. Buning uchun zarur dasturlarni muayyan algoritmik tilda inson, ya’ni tilshunos dasturchi yaratadi. U bu dasturlarni tuzishda maxsus sun’iy tillardan foydalanadi.

Hozirda internet ma’lumotlariga ko‘ra sun’iy tillarning quyidagi turlari mavjud:

- a) sintez qiluvchi dasturlar uchun: *Paskal, Si, Prolog, Lisp, Okkamyu* tillari;
- b) yig‘uvchi dasturlar uchun: *Modula-2, Ada, Eyfel, Component Paskal* tillari;
- v) aniqlashtiruvchi dasturlar uchun: *C++, Smallmalk, Oberon, Java, Clarron* tillari.

Xorijda kompyuter lingvistikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko‘lami juda keng. Ayniqsa, AQShda olib borilgan tadqiqotlar izchilligi, qamrab olingan muammolar doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Matematik va injener lingvistikasi, ya’ni hozirgi kompyuter lingvistikasining yo‘nalishlaridagi tadqiqot metodlari turkologiyada ham qo‘llanilgan. Afsuski, turkologiyada dastlabki ishlar amalga oshirilganiga qaramay, keyinchalik bu sohada fundamental tadqiqotlar olib borilmagan. Natijada turkiy xalqlarda kompyuter tilshunosligi nisbatan orqada qolgan. Ya’ni turkologiyaga yangi informatsion kompyuter texnologiyalari tatbiq etilmagan (turk va qozoq tilshunosliklari bundan mustasno). Bu, albatta, bugungi kun turkologlari oldida turgan eng dolzarb vazifadir.

Matematik va kompyuter lingvistikasi Qozog‘istonda izchil rivojlangan. Bu yerda dastlabki amalga oshirilgan tadqiqotlar, asosan, statistik yo‘nalishga oid bo‘lib, keyinchalik qozoq tilshunoslari mashina tarjimasini, avtomatik tahrir, tillarga o‘qitish kabi sohalarda ham keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishdi.<sup>1</sup> Qozoq kompyuter lingvistikasining shakllanishida prof. Q.B.Bektayevning xizmati katta deb aytish mumkin. Olim ilmiy faoliyati davomida matematik va injener lingvistikasiga oid o‘nlab asarlarni yaratgan. Bu asarlarda til va nutq birliklarini EHM yordamida tadqiq etishning har tomonlama muhimligi ta’kidlanib, ularda amaliy ishlar – dastur va lug‘atlar ham aksini topgan.

Dastlab matematik mantiq faqat tabiiy fanlarda qo'llanilib kelindi, keyinchalik u gumanitar sohalariga ham tadbiiq etilgan. Mantiq – muhokama yuritishning qonun- qoidalari, usullari va formalari haqidagi fan bo'lib, uning asoschisi qadimgi grek olimi Aristotel hisoblanadi. U birinchilardan lib deduksiya nazariyasini, ya'ni mantiqiy xulosa chiqarishning formal xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi.

Aristotelning ta'limoti Farobiy, Beruniy, U.Xayyom, A.Navoiy kabi buyuk olimlar tomonidan davom ettirildi. Nemis faylasufi va matematigi G.Leybnits (1646-1716) birinchilardan bo'lib mantiqiy fikrlashning hisob xarakteriga ega ekanligini ko'rsatdi. Uning fikricha, barcha ilmiy tushuncha va mulohazalarning asosini mantiqiy elementlar tashkil qiladi. Mana shu mantiqiy elementlarni muayyan simvollar bilan belgilash mumkin bo'ladi. Leybnits g'oyalari faqat XIX asrdagina amalga oshdi. Nemis olimi G.Fryoge, ingliz olimi J.Bul, rus olimi V.Poretsskiy ishlarida simvolik mantiq asoslari yaratildi. Xususan, J.Bul mantiq operatsiyalari uchun quyidagi simvollarni kiritdi:

1. Predmetlarning borligini belgilash uchun x, y, z harflarini kiritdi.
2. Predmetlarni sifatini belgilash uchun katta lotin X, Y, Z harflarini kiritdi.
3. Bir-biriga akslantirilgan mulohazalar uchun perpendikulyar belgisini kiritdi.
4. Bildirilayotgan mulohazalarda yo'qlikni bildiruvchi «0» beligini kiritdi.
5. Mulohazalarning mantiqiy qo'shilishini bildiruvchi belgi sifatida «Q» ni kiritdi.
6. Mulohazaga 2-mulohaza mutlaqo zid kelsa «-» belgisi qo'yiladi.
7. Muloqazada odatiy so'z birikuvlari mavjud bo'lsa «U» belgisi qo'yiladi.

Bu vazifalarni amalda bajarish uchun tilshunoslar va kompyuter mutaxassislari birgalashgan holda ish olib borishlari lozim. Bu vazifalarni bajarish uchun allaqachon ilk qadamlar tashlangan, ya'ni O'zMU Kompyuter texnologiyalari fakulteti tarkibida Kompyuter lingvistikasi laboratoriyasi tashkil etilgan. Mutaxassislar va tilshunoslar hamjihatlik bilan bir qancha masalalar ustida ish olib borishmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пулатов А.К., Жураева Н. Разработка формальной модели грамматики узбекского языка // Узбекский математический журнал, 2002, № 1. – С. 47-54; Пулатов А.К. Тексты лекций по математической и компьютерной лингвистике (электронный вариант). – Ташкент: УзМУ. 2003.
2. Muhamedova S. O'zbek kompyuter lingvistikasi: rivojlanish tarixi, buguni va kelajagi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent: 2004. № 2. – B. 77-81; Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo'llanma). – Toshkent: ToshDPU nashri, 2007. – 74 b.
3. Rizayev S. Kibernetika va tilshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston. 1976; Rizayev S. O'zbek tilshunosligida lingvostatistika muammolari. - Toshkent: Fan, 2006 va boshqalar.
4. Пиотровский Р.Г. Компьютеризация преподавания языков (учебное пособие по спецкурсу). – Л.: 1988. – С. 3-75.
5. Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. – Ташкент: Фан. 1986. – 164 с.

### TOPONIMLAR TASNIFI MASALASI

Zoitova Shoxista Asqarovna,  
O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini  
o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada toponimlarning lisoniy tasnifiga doir nazariy qarashlar va amaliy talqinlar yuzaga kelishi, toponimlarni leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko'ra tasnif qilish va toponimlarning barcha lingvistik va ekstralingvistik qamrovi nuqtai nazardan ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** toponim, urbanonim, nekronim, leksik-semantik. hududiy tasnif, xronologik tasnif, toponimlarning tuzilishiga ko'ra tasnifi.

Narsalar, voqeya-hodisalar yoki tushunchalarni ularning o'ziga xos belgi-xususiyatlariga ko'ra turli kategoriyalarga, sinflarga, guruh va turkumlarga ajratish tasnif (klassifikatsiya) deb ataladi[1.30]. Tasnif - bilish va o'rganishning asosi. Til birliklari va hodisalarining leksik- semantik, etimologik, grammatik, uslubiy hamda boshqa lisoniy belgi- xususiyatlariga ko'ra tur va guruhlarga ajratish esa lisoniy tasnif hisoblanadi.

Har qanday tilga mansub toponimlarni tahlil etishda dastlab, ularni tasnif etish masalasi turadi, chunki mukammal tasnifgina kuzatishlar olibbori shni yengillashtiradi, tadqiqotlarning samarali bo'lishiga ko'maklashadi. "... toponim muayyan ma'noni anglatadi, - deydi S.Qorayev, - toponimistlar ta'biri bilan aytganda, toponim informatsiyaga ega va u real hodisani aks ettiradi. Toponimlarning ana shu real voqelikni aks ettirishini hisobga olib, ularni qandaydir guruhlarga bo'lish kerak, albatta. Toponimlarni ana shunday klassifikatsiya qilish ularning semantik mohiyatini o'rganish ishini osonlashtiradi deb o'ylaymiz"[2.192].

A.V. Superanskaya: "Geografik nomlarni tasnifsiz tahlil qilish va sharhlash qiyin. Toponimist o'z tadqiqotida ma'lum bir tasnifdan foydalanibgina ilmiy xulosalar chiqarishi mumkin. Tasnif turlicha bo'lishi tabiiy", - deb yozgan edi[3.55]. Demak, til birliklari, jumladan, tildagi toponimlar tizimining lisoniy tasnifi muhim ahamiyatga ega.

O'zbek onomastikasida toponimlar tasnifi masalasiga bag'ishlangan bir qator maqolalar yozilgan. Toponimiyaga doir barcha dissertatsiyalarda toponim va uning turlari tasnif qilingan. Natijada toponimlarning lisoniy tasnifiga doir turli nazariy qarashlar va amaliy talqinlar yuzaga kelgan. O'zbek tilshunosligida ularning asosiysi Z.Do'simovning "Toponimlar tasnifi masalasiga doir" maqolasi hisoblanadi[4.17-21]. Maqola muallifi toponimlarni tasniflashda, asosan, ikki yo'nalish - leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko'ra tasnif qilish yaqqol ko'zga tashlanishini qayd etadi. Jumladan, leksik-semantik tasnif borasida ikki xil qarashning mavjudligini ko'rsatib o'tadi.

Birinchi qarashga ko'ra, toponimlar to'rt guruhni tashkil etadi: 1) etnonimlardan vujudga kelgan toponimik nomlar; 2) antroponimlar (kishi otlari)dan paydo bo'lgan toponimlar; 3) toifa - guruh nomlaridan paydo bo'lgan toponimlar; 4) yer tuzilishi, suv va qurilish inshootlari, o'simliklar dunyosi, aholining kasbi, turli xil voqyealar - yig'inlar va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar.

Ikkinchi qarash sakkiz guruhni qamrab oladi: 1) qabila nomini bildiruvchi toponimlar; 2) millat, xalq nomini bildiruvchi toponimlar; 3) kishilar ismiga qo'yilgan toponimlar; 4) kasb-hunarga nisbat berilgan toponimlar; 5) predmet belgisini ifodalovchi toponimlar; 6) o'simlik (daraxt)lar nomi bilan yuritiladigan toponimlar; 7) el-yurt, vatan nomi bilan bog'langan toponimlar; 8) geografik relyefni ifodalovchi toponimlar.

Ayni paytda, Z.Do'simov "toponimlarni bu tipda sistemalashda guruppalar orasida aniq chegara yo'q"ligini ham tanqid qiladi hamda Qashqadaryo viloyati va Shimoliy o'zbek shevalari toponimlarini o'rgangan T.Nafasov va L.Karimovalar leksik-semantik tasnifning ancha mukammal variantini taklif qilganligini maqullaydi. Ammo leksik-semantik prinsip bilan xronologik prinsip aralashtirilganligini ham e'tibordan chetta qoldirmaydi. Z.Do'simov fikricha, toponimlarni tasnif etishda tadqiqotning xarakteridan va tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, leksik-semantik prinsipdan foydalanish o'rinlidir. U struktur-morfologik tasnif qilishda ham ancha muvaffaqiyatli tadqiqotlar qilinganligini, bu borada, ayniqsa, L.Karimova yaxshi ishlarni amalga oshirganligini va o'z tasnifida modellashtirish metodi, formant metodi hamda stilistik metoddan juda unumli foydalanganligini qayd etadi[5.18]. Z.Do'simov bu boradagi fikrlarni umumlashtirib, o'z tasnifini quyidagi tartibda tavsiya etadi.

I. Leksik-semantik tasnif.

*1. Etnotoponimlar. 2. Antrotoponimlar. 3. Zootoponimlar. 4. Biotoponimlar. 5. Geomorfologik toponimlar.*

II. Struktur-tipologik tasnif.

1. *Affikssiz toponimlar yoki tub toponimlar.* 2. *Affiksal toponimlar yoki yasama toponimlar.* 3. *Prefiksal toponimlar.* 4. *Indikatorli toponimlar yoki toponim-kompozitlar.* 5. *Birikmali toponimlar.*

III. Xronologik tasnif.

1. *Toponim-arxaizmlar.* 2. *Toponim-istorizmlar.* 3. *Neotoponimlar.*

Garchi maqola muallifi kamtarlik bilan “yuqorida keltirilgan toponimik klassifikatsiya sxemalari to‘laligi va tugalligi bilan mezon sifatida qabul qilinmasligi kerak. Har qanday toponimik tasnif to‘plangan materialdan va ayni vaqtda tadqiqotning xarakteri, shuningdek, tadqiqotchining maqsadidan kelib chiqmog‘i lozim”, - deb yozgan bo‘lsa ham, uning birmuncha mukammal tasnif ekanligini e’tirof etish lozim[5.20].

K.Nazarov va T.Enazarov tavsiyalarni ham o‘ziga xos tasnif sifatida qarash mumkin. Ular joy nomlarini tasnif qilishning quyidagi turlarini ko‘rsatib o‘tishadi:

1. Joy nomlarining qo‘llanish xususiyatiga ko‘ra tasnifi: joy nomlarining takror qo‘llanishi; joy nomlarida toponimik indikatorlarning qo‘llanishi; qo‘llanish davriga ko‘ra farqlanadigan joy nomlari.

2. Joy nomlarining hududga nisbatan katta-kichikligi nuqtai nazaridan tasnif qilinishi: makrotoponimlar; mikrotoponimlar.

3. Joy nomlarining qanday tarkibiy qismlar, ya'ni komponentlardan iborat ekanligiga ko‘ra tasnifi: apellyativ nomlar; formantli toponimlar; TI (toponimik indikator)li joy nomlari.

4. Joy nomlarining leksik tasnifi: umumturkiy; *so‘g‘d; fors-tojik; arab; mo‘g‘ul; rus.*

5. Joy nomlarining leksik-semantik tasnifi:

a) joy nomlarining qanday va qaysi tur(tip)dagi ob'yektlarning nomlari ekanligiga ko‘ra ajratilgan guruhlari: *oykonimlar; gidronimlar; oronimlar; ogroonimlar; dromonimlar; paragomonimlar; yer ostidagi joy nomlari;*

b) joy nomlarining kelib chiqishi va nomlanishiga ko‘ra guruhlari: *etnotoponimlar; antropotonimlar; geotoponimlar; professionalizmlar asosida*

*yuzaga kelgan joy nomlari; sotstoponimlar; muqaddaslashtirilgan joylarning nomlari; fitotoponimlar; zootoponimlar; ko'chma joy nomlari.*

6. Joy nomlarining morfologik tasnifi: *toponimlar andozasi, ya'ni ularning shakllanishida asos bo'lgan vositalar - o'zak va qo'shimchaga xos xususiyatlar; joy nomlarining qanday so'z turkumlariga oid bo'lgan so'zlardan iboratligiga ko'ra guruhi; joy nomlarining yasalishiga ko'ra guruhlari: sodda va yasama toponimlar, qo'shma joy nomlari, birikmali toponimlar*[6.19-24]. Masalaga yondashishlar turlicha bo'lishidan qat'iy nazar har bir til yoki millat toponimikasiga oid namunaviy belgilangan tartibdagi tasnif shkli bo'lishi lozim. Toponimiya sohada olib borilayotgan barcha tadqiqotlar ob'yektlarning nomlanish xususiyatlari va etimologizatsiyasiga qaratilgan ekan, yuqoridagi bu tasniflarning barchasi ana shu masalalarning ilmiy va asosli hal etilishiga ko'mak berishi shubhasizdir.

Har qalay toponimlar tasnifida, avvalambor, dialektik qonuniyat - mazmun va shakl yaxlitligi hisobga olinishi va bunda shakldan mazmunga qarab borilishi maqsadga muvofiq. Mana shu ma'noda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazmun va shakl dialektikasi, toponimlarning barcha lingvistik va ekstralingvistik qamrovi nuqtai nazaridan K.Nazarov va T.Enazarovlarning tasnifi ham alohida ahamiyatga ega. Z.Do'simov tasnifida asosiy diqqat e'tibor toponimlarning leksik-semantik va grammatik tuzilishiga hamda xronologiyasiga qaratilgani tufayli uni ham shu tasniflar doirasida qarash mumkin. Shunday qilib, toponimlarni tasniflash borasida mavjud bo'lgan qarashlar va tajribalarni umumlashtirib, Toshkent shahri toponimlarini quyidagi guruhlarga ajratib o'rgansak bo'ladi deb hisoblaymiz.

- toponimlarning hududiy tasnifi: makrotoponimlar va mikrotoponimlar;
- toponimlarning xronologik tasnifi: tarixiy va zamonaviy toponimlar;
- toponimlarning tuzilishiga ko'ra tasnifi: sodda, qo'shma, murakkab; tub va yasama toponimlar;
- toponimlarning leksik-semantik tasnifi: agroonimlar, antropooykonimlar, antropotoponimlar, gelonimlar, gidronimlar, drimonimlar, drionimlar,

dromonimlar, komonimlar, limnonimlar, oykonimlar, oronimlar, paragomonimlar, pelagonimlar, polisonimlar (polionimlar), potamonimlar, speleonimlar, teotoponimlar, tepotoponimlar, urbonimlar, fitotoponimlar, fitooykonimlar, xoronimlar, etnooykonimlar, etnotoponimlar singari.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yuqoridagi tasniflar ichida leksik-semantik tasnif o'ziga xos yetakchi o'rin tutadi. Bu tasnif turi o'zbek toponimikasi sohasida ish olib borgan barcha olimlarning ishlarida ham yuqori cho'qqini egallaydi. Chunki bu tasniflashning asosiy turi sifatida boshqa tasnif turlaridan o'zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Usmonov O., Doniyorov V. Ruscha - internatsional so'zlar izohli lug'ati. - Toshkent: Fan, 1965.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati (5-J.) - Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?(toponomik lug'at). Toshkent: 1970.
4. Superanskaya A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. - Moskva, 1970. -S. 55.
5. Do'simov Z. Toponimlar tasnifi masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent: 1978. -№1.
6. Nazarov K., Enazarov T. Joy nomlarini yig'ish so'roqligi. - Toshkent: Universitet, 1995.

### **O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ZONIM KOMPONENTLI MAQOLLARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI**

Nazarov Qobilbek,  
O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası  
o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi zoonim komponentli maqollar tahlil qilingan va tavsiflash usulidan foydalanilgan. To'plamlardan tanlab olingan maqollar ijobiy va salbiy ma'nolardagi

konsepsiyalarga ega zoonim komponentli maqollar muloqot jarayonida nafaqat g'oyalarni yetkazishga, balki ushbu g'oyalar orqali o'z qarashlari, tajribalari va kundalik hayotidagi holatlarni turli ko'rinishda ifodalashga harakat qiladi.

**Kalit so'zlar:** manba maydoni, nishon maydoni, maqol, kognitiv-semantik tahlil, konsept, metaforik ma'no.

**Abstract.** In this article, proverbs with a zoonym component in Uzbek and English languages are analyzed and the method of description is used. The proverbs selected from the collections have positive and negative concepts. Proverbs with a zoonym component try not only to convey ideas in the process of communication, but also to express their views, experiences and situations in their daily life in different ways through these ideas.

**Key words:** source domain, target domain, proverb, cognitive-semantic analysis, concept, metaphorical meaning.

## **KIRISH**

Maqollar murakkab va har tomonlama tadqiq etishni talab qiladigan birliklar hisoblanadi. Maqollarni ilmiy jihatdan o'rganishda juda ko'p sohalarga murojaat qilish lozim. Bu soha tadqiqi ko'pincha mahalliy xalq va uning adabiyoti bilan bog'lanadi. Shuning uchun maqollar allaqachon xalqlar madaniyatining bir qismiga aylanib ulgurgan. Bu jarayonni maqollarning har bir xalqda o'ziga xos tarzda paydo bo'lishida ham ko'rish mumkin. Mieder fikriga ko'ra maqollar qisqa va formulali tildagi kundalik tajribalar va oddiy kuzatishlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, og'zaki hamda yozma nutq jarayonida xotirada oson saqlash va samarali qo'llash uchun tayyor birliklar hisoblanadi [1,11]. Maqollar kundalik tajribalar va insonlarning o'z hayoti davomidagi kuzatishlari natijasida paydo bo'lishi muayyan omillar ta'sirida yuz beradi. Ya'ni xalqning tafakkuri, madaniyati va dini bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun maqollar orqali mahalliy xalq madaniyati, dunyoqarashi, fikrlashi avloddan avlodga o'tib keladi.

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda maqollarning tillarda turli konseptlarga asoslanishini kuzatish mumkin. Konseptlarning paydo bo'lishi

bevosita idrok bilan bog‘liq. Lakoff va Johnson fikriga ko‘ra fikrimiz boshqaruvchi konsept nafaqat intellekt bilan bog‘liq, balki konseptlar ham bizning kundalik faoliyatimizdagi eng oddiy detallarga ta‘sir o‘tkazadi [2, 3].

Lakoff va Turner hayvonlar haqida bizning ongimizda bir nechta tushunchalar mavjudligi va bu hayvonlarni qanday tasavvur qilish, o‘ylash va ular haqidagi umumiy tushunchalar bilan bog‘liq metaforik sxemani tashkil qilishini ta‘kidlaydi. Masalan, *sher* oliyjanoblik va jasurlik, *bo‘ri* qasoskorlik va shafqatsizlik, *tulki* aqllilik va ayyorlik, *it* sodiqlik, *cho‘chqa* ifloslik va qo‘pollik ramzi deb tassavur qilinadi [3].

Sameer ingliz va arab tillari itlar va otlar bilan bog‘liq maqollarni qiyoslaydi. Natijalar ingliz va arab tillaridagi *it* va *ot* komponentli maqollarda tushunchalar, ijtimoiy qadriyatlar va aqliy jarayonlar bir xil ekanligini ko‘rsatdi. Ikki tilda ham otlarni olijanob, itlarni esa yomon va tartibsiz sifatida ko‘rsatadi [4,4].

Maqollar ustida olib borilgan ushbu tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollar kognitiv-semantik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bunda aynan zoonim komponentli maqollar tanlab olingan. Bunga sabab odamlarning ijtimoiy, ma‘naviy va diniy bilimlari shakllanishida hayvonlar ham muhim o‘rin tutishidir. Tarixan insonlar faoliyati hayvonlar bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun muloqot jarayonida hayvon nomlari qatnashgan maqollar ko‘chimga uchragan holda konseptuallashtirilgan. Har bir xalq tilida hayvon nomlari bilan bog‘liq konnotativ ma‘nolarni turli vaziyatlardan kelib chiqib turli shakllarda uchratishimiz mumkin.

## **2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODLARI**

Tadqiqot uchun ma‘lumotlar o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarni o‘z ichiga olgan K.M.Karamatova va H.S.Karamatov [5], Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov [6], T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov [7] kabi tilshunos olimlarning to‘plamlaridan tanlab olindi. Shuningdek, ingliz tilidagi maqollarni tahlil qilishda Jennifer Speake tahriridagi *The Oxford Dictionary of Proverbs* [8] nomli maqollar lug‘ati manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda zoonim komponentli o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollar kognitiv-semantik jihatdan tahlil qilingan.

Yuqoridagi to‘plamlardan tanlab olingan maqollar Lakoff va Turnerning manba maydoni (source domain) va nishon maydoni (target domain) nazariyasiga ko‘ra o‘rganilgan [3]. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan Lakoff va Turnerning konseptual metafora tahlil modeliga ko‘ra Buyuk zanjir metaforasi va metonimiyasi nazariyasiga ko‘ra maqollar ma‘nosi ko‘rib chiqildi [3, 162-173]. Bunday tavsiflash orqali o‘zbek va ingliz tillarida zoonim komponentli maqollarni kognitiv jihatdan tushunish modeli ishlab chiqiladi.

Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tillarida faol qo‘llaniladigan maqollar tanlab olingan. Maqollarni tanlab olishda ularning shu xalq tilida qay darajada ko‘p qo‘llanilishiga ham e‘tibor berildi.

### 3. TAHLIL NATIJALARI VA MUHOKAMA

O‘zbek va ingliz tillarida zoonim komponentli maqollarni bir qancha guruhlarga ajratgan holda tahlil qilish mumkin. Bularga sut emizuvchilar, qushlar, baliqlar, hasharotlar kabi guruhlar kiradi. Aynan ushbu tadqiqotda sut emizuvchi hayvonlar nomlari qatnashgan maqollar tahlil qilindi.

Shuningdek, hayvonlar bilan bog‘liq maqollarda ularning ma‘lum tana a‘zolari ham metafora va metonimiya modeli asosida interpretatsiya qilingan.

O‘zbek va ingliz tilida faol qo‘llaniluvchi maqollarda bir qancha sut emizuvchi hayvonlar ishtirok etgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra it, ot, tuya, bo‘ri kabi HAYVON konseptiga kiruvchi leksemalar ijobiy va salbiy ko‘chimlarga uchragan.

#### **It komponentli maqollar:**

3.1. *It hurar — karvon o'tar - Dogs bark, but the caravan goes on [5, 390].*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>IT– DOG</b>	<b>g‘iybat qiluvchi, doimo voqelikka salbiy munosabat bildirib turuvchi inson</b>
HAYVON	INSON

Ushbu maqolning o‘zbek va ingliz tilidagi varianti juda o‘xshash va bunda xalqlarning qadimiy hayotiga oid ma’lumotlar aks etadi. Hozirgi kunda bu maqolda qo‘llangan *it* leksemasi *g‘iybat qiluvchi, har qanday voqelikka salbiy munosabat bildirib turuvchi inson* sifatida tushuniladi. Ya’ni *it* hayvonining harakatdagi narsa-predmetni sezganda vovullab turish holati metafora modeli asosida insonga ko‘chirilgan va adresat tomonidan salbiy ma’noda interpretatsiya qilinadi.

3.2. *Qari it ko‘p yo‘l bilar - An old dog barks not in vain [5, 69].*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>QARI IT-OLD DOG</b>	<b>Tajribali, ko‘pni ko‘rgan inson</b>
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

Yuqoridagi maqolda *it* hayvon nomi sifatida tushunilmaydi. Ikki tildagi maqolda ham *it* leksemasi orqali tajribali, ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazgan inson nazarda tutiladi. Bunga sabab *it* hayvoni azal-azaldan odamlarga yaqin uy hayvoni hisoblanadi. Aynan *it*ning odamlarga yaqin ekanligi uchun uni ko‘chimga uchratish holati maqollarda ko‘p uchraydi va bu maqolda ham metafora modeli asosida ma’no ko‘chirilgan.

3.3. *Qopag'on it tishini ko'rsatmas - Barking dogs seldom bite [5, 18].*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>QOPAG‘ON IT</b>	<b>Jim yuruvchi, kek saqllovchi</b>
<b>BARKING DOGS</b>	<b>Sirlarini yashira olmaydigan</b>
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

Ushbu maqolning o‘zbek tilida “*yuvosh it hurmay tishlar*”, “*sinalmagan otning sirtidan o‘tma*” [6,472] kabi variantlari mavjud. Maqolning o‘zbek tilidagi shaklida *qopag'on it*, ingliz tilidagi variantida esa *barking dogs - huradigan itlar*

birikmalari qo‘llanilgan. Itga xos qopag‘onlik, hurish harakatlari insonga metafora orqali ko‘chirilgan va salbiy harakat oldidan ogohlantirish mazmunida ishlatiladi. It haqida keltirilgan yuqoridagi maqollarning o‘zbek va ingliz tillarida tarjimalari va kognitiv modellari bir-biriga o‘xshash. Ikki tilda ham *it* bilan bog‘liq shunday maqollar borki, ularning muqobili boshqa tillarda uchramaydi. *It* hayvoni o‘zbek tilidagi maqollarda asosan salbiy ma’noda konseptuallashtiriladi. Buni quyidagi maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin.

### **It komponentli o‘zbek maqollari:**

(1) *It itga buyuradi, it quyrug‘iga* [6,164-165]

Manba maydoni (source domain)	→	Nishon maydoni (target domain)
<i>it</i>		Buyurilgan ishni qilishga erinadigan, ishyoqmas, mas’uliyatsiz , dangasa inson

(2) *It ko‘zi tutun bilmas* [6, 166]

Manba maydoni (source domain)	→	Nishon maydoni (target domain)
<i>it</i>		Sha’ni va obro‘sigacha achchiq gaplar aytilsa ham jim turaveradigan inson

(3) *It oydinga o‘ynashar* [6,166]

Manba maydoni (source domain)	→	Nishon maydoni (target domain)
-------------------------------	---	--------------------------------

(4) <i>it</i>	Tuni bilan sang‘ib , shovqin solib , boshqalarga uyqi bermaydigan inson
---------------	---

*It qutursa, egasin qopar* [6, 169]

Manba maydoni (source domain)	→	Nishon maydoni (target domain)
-------------------------------	---	--------------------------------

<i>it</i>	Katta mansabga chiqib yoki boyib tarbiya bergan ota-onasi, ta’lim bergan ustoziga nisbatan hurmatsizlik qilgan inson
-----------	--

Yuqoridagi o‘zbek xalq maqollarida *it* leksemasi salbiy xarakter va xatti-harakatlarga ega insonlarni nazarda tutmoqda. Itga xos dangasalik, sayoq yurish kabi harakatlar metaforik ma’no ko‘chishiga uchramoqda. Ingliz tilidagi *it*

leksemasi qatnashgan maqollarda ham xuddi shunday ko'chimlar kuzatiladi va ular ijobiy va salbiy holatlarni aks ettiradi.

**It komponentli ingliz maqollari:**

(1) *A dog that will fetch a bone will carry a bone* [8,143 ]

*Suyak olib keladigan It suyakni olib yuradi*

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*it* g'iybatchi va gap tashib yuruvchi inson

(2) *He is a good dog who goes to church* [8,224 ]

*U cherkovga boradigan yaxshi it*

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*it* Odobli, xushxulq kishi

(3) *It is a poor dog that's not worth whistling for* [8, 400]

*Bechora it hushtakbozlikka arzimaydi.*

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*it* kambag'al, chorasiz odam

**Ot va tuya komponentli maqollar:**

3.4. *It is the last straw that breaks the camel's back - Tuya elakka kelganda oqsar* [5, 180]

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>CAMEL</b>	<b>Ko'p ishlab charchagan kishi</b>
<b>TUYA</b>	
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

*Tuya* leksemasi maqolning o'zbek va ingliz tilidagi variantlarida bir xil ma'noda metaforaga uchratilgan. Ya'ni tuyadagi horish, charchash eng oxirgi nuqtasiga

yetganda, hattoki, arziyas elak yoki bir tomchi suv unga og‘irlik qilishi mumkin. Bu holat HAYVON manba maydonidan INSON nishon maydoniga metaforik yo‘l bilan ma’no ko‘chishiga sabab bo‘lgan.

3.5. *Load on the willing horse, All lay - Barcha yukni ko'targan tuya cho'michni ham ko'tarar [5, 212]*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>TUYA</b>	<b>Itoatkor, bo‘ysunuvchi kishi</b>
<b>HORSE</b>	
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

Ushbu maqolning o‘zbek tilidagi variantida *tuya* , ingliz tilidagi variantida esa *ot* leksemalari HAYVON manba maydoni tarkibiga kiradi. Ushbu hayvonlarga xos itoatkorlik, yuvoshlik INSON nishon maydoniga metaforik yo‘l bilan ko‘chirilgan.

3.6. *colt may make a good horse, A ragged - Toychani toy deb xo'rlama, erta-indin ot bo'lar [5,50]*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>TOYCHA, TOY</b>	<b>Yosh, tajribasiz kishi</b>
<b>COLT</b>	
<b>OT</b>	<b>Tajribali, yetuk kishi</b>
<b>HORSE</b>	
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

Ushbu maqolning har ikki tildagi variantida ham kontrast holat orqali kamtarlikka chaqiruvchi ma’no aks etmoqda. Maqollardagi *toycha, toy va ot (colt and horse)* leksemalari HAYVON konseptining kognitiv maydoniga kiradi va *toycha (colt)* leksemasidagi *yoshlik, yetilmaganlik* semalari, *ot (horse)* leksemasidagi *yetilganlik, baquvvatlik* semalari metaforik ko‘chimga asos bo‘lgan.

Yuqoridagi semalar orqali *toycha, toy va ot (colt and horse)* leksemalari INSON konseptining kognitiv maydoniga ko‘chish hodisasi yuz bergan.

Yuqorida mazmunan biri-biriga teng keluvchi maqollar ko‘rib chiqildi. Ammo o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham *ot* va *tuya* leksemalari qatnashgan maqollar mavjud va ushbu maqollardan ba‘zilari kognitiv-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

### **Ot va tuya komponentli o‘zbek maqollari:**

(1) *Tuyaga yantoq kerak bo‘lsa, bo‘ynini cho‘zadi* [6, 402].

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*tuya*

Ehtiyojmand kishi

Manba maydoni bo‘lib xizmat qilgan *tuya* leksemasi maqolda yantoq yeyish holati orqali nishon maydoni bo‘lgan INSONga metaforik yo‘l bilan ko‘chirilgan. Shuningdek, hayvon tana a‘zosi bo‘lgan *bo‘yin* leksemasi *cho‘zmoq* leksemasi bilan birikma hosil qilib Lakoff va Turnerning SPECIFIC REPRESENTATIVES GENERIC (Aniqlikdan mavhumlik tomon) nazariyasiga asosan mavhum tushunchaga, ya’ni *mehnat, tirikchilik* tushunchalariga ko‘chirilmoqda[3].

(2) *Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r* [6, 402].

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*tuya*

Boy va o‘ziga to‘q kishi

*echki*

Kambag‘al, yupun kishi

Yuqoridagi maqolda *tuya* va *echki* leksemalari HAYVON manba maydonidan o‘rin olgan va *tuya* leksemasidagi *og‘irlik* semasi, *echki* leksemasidagi *yengillik* semasi INSON deb nomlanuvchi nishon maydoniga metaforik ma’no ko‘chish yo‘li bilan o‘tgan. O‘z navbatida maqolda qo‘llangan *shamol* leksemasi ham TABIAT HODISASI deb nomlanuvchi manba maydonidan QIYINCHILIK nishon maydoniga ko‘chirilgan. Natijada *tuya* leksemasidagi *og‘irlik* semasi boy insonga, *echki* leksemasidagi *yengillik* kambag‘al insonga ishora qilmoqda va maqol orqali qiyinchilik, qahatchilik kelsa , boyga ta’sir kamroq, kambag‘alga esa ko‘p ta’sir qiladi qabilidagi ma’no nazarda tutiladi.

(3) *Ot qarisa – oxurda, It qarisa chuqurda* [6, 313].

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*ot Umri davomida boshqalarga yaxshilik qilgan inson*

*it Odamlarga ozor yetkazgan, ularning qahr-g‘azabiga uchragan inson*

Ushbu maqolda ot va it leksemalari HAYVON manba maydonidan salbiy va ijobiy ma’no ko‘chishi orqali INSON nishon maydoniga metaforik yo‘l bilan ko‘chirilgan. Maqol orqali kim boshqalarga yaxshilik qilsa umrining oxirida yaxshilik, huzur topadi, kim atrofdagilarga yomonlik qilsa va ularning qahr-g‘azabiga uchragan bo‘lsa xor bo‘lishi haqidagi ma’no anglashiladi.

**Ot va tuya komponentli ingliz maqollari:**

(1) *Horses for courses- Davralar uchun otlar* [8,258]

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*horses (otlar) Har xil qobiliyatga ega insonlar*

(2) *The grey mare is the better horse - Kulrang biya yaxshiroq ot* [8,232]

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*mare(biya ot) Eridan ko‘ra yaxshiroq fikrga ega xotin*

*horse (ot)*

(3) *A good horse cannot be of a bad colour- Yaxshi ot yomon rangli bo‘lmaydi* [8, 224]

Manba maydoni (source domain) —————> Nishon maydoni (target domain)

*ot Xushmuomala, yaxshi inson*

Yuqoridagi ingliz xalq maqollarida *ot* leksemi HAYVON manba maydonidan INSON manba maydoniga metaforik ko‘chim asosida o‘tgan va asosan *ot* ijobiy ma’noda tushuniladi.

**Bo‘ri komponentli maqollar:**

3.7. *Wolf, Greedy as a - Bo'rining o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymas* [5, 385 ]

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>BO‘RI</b>	<b>Ochko‘z, nafsi buzuq inson</b>
<b>WOLF</b>	

<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>
---------------	--------------

Ushbu maqolning har ikki tildagi variantida ham *bo'ri* leksemasi qatnashgan va *bo'ri* leksemasining tarkibidagi ochko'zlik semasi INSON nishon maydoniga metafora orqali ko'chirilgan.

3.8. *Wolf to keep the sheep, Set the – Bo'ri bor bolsin desang, qo'y but bo'lmas [5,385]*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>BO'RI</b>	<b>Amaldor yoki boy inson</b>
<b>WOLF</b>	
<b>INSON</b>	<b>HAYVON</b>

Bu maqolda qo'llangan *bo'ri* leksemasi HAYVON manba maydonidan shu leksemadagi zulmkorlik, vahshiylik semalari orqali INSON nishon maydoniga metaforik yo'l bilan ko'chgan. *Bo'ri* tabiatan vahshiy va yirtqich hayvon hisoblanadi va bu maqolda aynan amaldorlarga imkon berilsa, kambag'al yoki oddiy qora xalq ustidan vahshiy-larcha zulmkorlik bilan ularning haqlarini olib qo'yish holati nazarda tutilmoqda. Ikki tildagi maqolning variantida ham *bo'ri* salbiy ma'noda konseptuallashtirilgan.

3.9. *Bo'ri qarisa, itga kulgi bo'lar - Wolf, Who's afraid of the big bad? [1,385]*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>BO'RI</b>	<b>Kuchli, barchaga so'zio'tadigan inson</b>
<b>WOLF</b>	
<b>IT</b>	<b>Atrofdagilarning ojizligidan foydalanib uning ustidan kuluvchi inson</b>
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

Yuqoridagi maqolning o‘zbekcha variantida *bo‘ri* leksemasi bilan birga *it* leksemasi ham qatnashgan. Bu shundan dalolatki qadimdan *bo‘ri* va *it* bir-biri bilan kelishmaydi va azaliy dushman hisoblanadi. Buni hatto o‘zbek xalqiga xos “*Bo‘ri podaga chopganda itni bog‘loqda boqish paytimas*”, “*It bilan bo‘ri tug‘ma dushman*” kabi maqollarda ham kuzatish mumkin. Maqolning ingliz tilidagi variantida esa *it* leksemasi qatnashmagan. *Bo‘ri* leksemasi HAYVON manba maydonidan *kuchlilik* semasi bilan INSON nishon maydoniga metaforik tarzda o‘tgan va *qarimoq* leksemasi yordamida kuchli insonning kuchdan qolishi, hech kimga so‘zi o‘tmay qolish holati nazarda tutilmoqda. Maqolda qo‘llangan *it* leksemasi bevosita yuqoridagi holatdan foydalanib uning ustidan mazax qiluvchi sifatida INSON nishon maydoniga ko‘chgan.

#### **4. XULOSA**

Ushbu maqolada sut emizuvchi hayvon nomlari qatnashgan 30 dan ortiq o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollar kognitiv-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Bu jarayonda HAYVON konseptiga kiruvchi *it*, *ot*, *tuya*, *bo‘ri* kabi leksemalar va ularga xos harakat, holat, tashqi ko‘rinish tushunchalarining Lakoff va Turnerning manba maydoni (source domain) va nishon maydoni (target domain) nazariyasiga ko‘ra metaforik ma‘no ko‘chishi yo‘llari ishlab chiqildi. Ushbu nazariyaga ko‘ra yuqoridagi leksemalar qatnashgan maqollarning o‘zbek va ingliz tilidagi variantlarida quyidagi farqlar aniqlandi.

- *It* leksemasi o‘zbek tilidagi maqollarda asosan salbiy ma‘noni ifodalash uchun ishlatiladi. Ingliz tilidagi maqollarda esa *it* leksemasi nisbatan ijobiy metaforik ko‘chimga uchragan.

- *Ot* va *tuya* leksemalari o‘zbek tilidagi maqollarda ijobiy va salbiy ma‘noni aks ettirishga xizmat qiladi va bu leksemalarni maqollarda boshqa hayvonlar bilan solishtirish holati ko‘p uchraydi. Ingliz tilida esa *ot* leksemasi qatnashgan maqollar asosan ijobiy ma‘noni ifodalaydi va boshqa hayvonlar bilan qiyoslash kam uchraydi

- *Bo‘ri* leksemasi har ikki tildagi maqollarda ham ochko‘z, vahshiy, zo‘ravon sifatida INSON nishon maydoniga ko‘chirilgan.

Ushbu tadqiqot orqali o‘zbek va ingliz tilidagi hayvon nomlari qatnashgan ayrim maqollar tahlilga tortildi va bu yo‘nalishda yanada kengroq tadqiqot olib borish maqollarning kognitiv-semantik xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganilishi yo‘lida yangi sahifani ochadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mieder W. Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, 2002. –P. 321.
2. Lakoff G. and Johnson M. Metaphor We Live By: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. -P. 242.
3. Lakoff G. and Turner M. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. Chicago: University of Chicago Press, 1989. -P. 237.
4. Sameer I. H. A Cognitive Study of Certain Animals in English and Arabic Proverbs: A Comparative Study. *International Journal of Language and Linguistics*, 2016. –P. 133 - 143.
5. Karomatova K.M, Karomatov H.S. PROVERBS-MAQOLLAR-ПОСЛОВИЦЫ: Toshkent: Mehnat, 2000. 400 b.
6. Shorahmedov Sh, Shomaqsudov Sh. Hikmatnoma: Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990. 527 b.
7. Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari: Toshkent: “Sharq”. 2005. 509 b.
8. Speake J. The Oxford Dictionary of Proverbs: Oxford University Press, 2008. –P. 625.

## GAZETA-PUBLISISTIK USLUBNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Saidnazarova Saodat Kurbonboyevna,  
O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada gazeta va jurnalistik uslubning tavsifi uni ta'riflashning asosiy yondashuvlari kontekstida keltirilgan. O'rganilayotgan funksional uslubning tuzilishi va kichik turlari tavsiflanadi. Gazeta va publitsistik uslubning asosiy kompozitsion, lingvistik va funksional elementlari aniqlanadi.

**Аннотация.** В статье представлена характеристика газетно-публицистического стиля в контексте основных подходов к его определению. Описаны структура и подтипы изучаемого функционального стиля. Определены основные композиционные, языковые и функциональные особенности газетного публицистического-стиля.

**Abstract.** The article presents a description of newspaper and journalistic style in the context of the main approaches to its definition. The structure and subtypes of the functional style under study are described. The main compositional, linguistic and functional features of the newspaper journalistic style are determined.

Ma'lumki, publitsistik uslub - bu adabiy tilning o'ziga xos funksional xilma-xilligi bo'lib, u ommaviy axborot vositalari (OAV) tilida: gazeta va jurnallarda, radio va televideniya, Internetda, shuningdek, ma'lum darajada ommaviy nutqlarda o'z aksini topadi. Publitsistik uslub - adabiy tilning bir qancha funksional uslublari xususiyatlari kesishadigan sohadir. Unda publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyatlarini ham, badiiy, ilmiy yoki rasmiy ishbilarmonlik va hatto so'zlashuv uslublarini ham topish mumkin.

Gazeta-publitsistik uslub gazetalar, jurnallar, reportajlar, nutqlar, suhbatlar, nutqlar, muhokamalar, radio va televidenie dasturlari, hujjatli-publitsistik filmlar tili bilan ifodalanadi. Gazeta-publitsistik uslubi barcha funksional uslublar ichida eng ko'p qo'llaniladi, chunki uning tarqalishiga odamlarning ongi, dunyoqarashi va dunyoqarashi ustidan sezilarli kuchga ega bo'lgan OAV- matbuot, radio, kino, televideniya yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Internet hozirda biz o'rganayotgan uslubdan kontent yaratish uchun foydalaniladigan media vositadir. Bugungi kunda Internetda mavjud bo'lmagan bosma nashr, radio yoki telekanalni topish qiyin masala bo'lib qoldi.

Mavjud voqealarga tezkor munosabat bildirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan media matnlarni yaratish tezligi gazeta-publisistik uslubning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Til vositalarini tanlashga va gazeta-publisistik matnning tuzilishiga uning cheklangan hajmi va axborot funksiyasi va media matnining boshqa funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan barcha materiallarni o'z ichiga olish zarurati sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

“Ingliz tili stilistikasi” kitobi mualliflari M.D. Kuznes va Yu.M. Skrebnev gazeta tilining o'ziga xos xususiyatlarini gazeta uslubi tushunchasiga birlashtirishni noqonuniy deb hisoblaydi<sup>39</sup>, chunki funktsional uslubning xususiyatlari janr xususiyatlari bilan almashtiriladi. Bu mualliflar, shuningdek, gazetaning turli bo'limlari: tahririy maqolalar, siyosiy hujjatlar va nutqlar matnlari, madaniy hayot, fan va texnikaning turli masalalariga bag'ishlangan maqolalar - tilning turli stilistik tizimlarini aks ettirishini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, gazetada gazeta-publisistik uslub bilan bir qatorda umumiy ahamiyatga ega hujjatlarni chop etishda rasmiy-ishbilarmonlik uslubini, ilmiy va badiiy uslublarni ham uchratish mumkin.

Ba'zi mualliflar gazeta-publisistik uslubni emas, balki gazetalarda ham, radio va televideniya ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot uslubini ajratishni taklif qiladilar: bu ommaviy muloqot uslubi deb ataladi<sup>40</sup>.

Bizning fikrimizcha, gazeta-publisistik uslub deganda biz hozirda OAV tomonidan qo'llaniladigan, bu nomni boshqasiga almashtirmasdan (masalan, informatsion) va gazeta-publisistik uslubning asosiy xususiyatlariga javob beradigan funktsional uslubni tushunishimiz mumkin. OAV matnlarida uslublarni

---

<sup>39</sup> Скребнев, Ю.М. Кузнец, М.Д. Стилистика английского языка / Ю.М. Скребнев. - М., 1960. С. 379.

<sup>40</sup> Арнольд, И. В. Стилистика. Современный английский язык: учебник для вузов / И. В. Арнольд, П. Е. Бухаркин. – М. : Флинта, 2009. С. 388.

aralashtirish keng tarqalgan hodisa bo'lib, ko'pchilik olimlar tomonidan matnning ma'lum bo'limlariga e'tiborni jalb qilish, shuningdek, targ'ibotni amalga oshirish uchun ataylab qilingan harakat sifatida qaraladi.

Biroq, gazeta va jurnallarda uchraydigan barcha materiallarni ham gazeta-publisistik uslubga kiritish mumkin emasligiga e'tibor qaratish lozim. Biz faqat o'quvchini xabardor qilish va taqdim etilgan ma'lumotlarni baholash funksiyasini bajaradigan materiallarni kiritishimiz mumkin. Fikrni ifodalash shakllari ikki turdagi maqolalar o'z ichiga oladi: dolzarb gazeta maqolasi va tahririy maqola.

Tadqiqotchilarning fikricha, gazeta-publisistik uslub 18-asr o'rtalarida alohida lingvistik uslubga aylangan. Boshqa uslublardan farqli o'laroq, u ikkita og'zaki turga ega, xususan: oratorik pastki uslub va radio va televideniya diktori matnlarining pastki uslubidir. Ushbu funksional uslubning asosiy maqsadi jamoatchilik fikriga ta'sir qilish, o'quvchi yoki tinglovchini faqat berilgan ma'lumot va uning talqini yagona to'g'ri ekanligiga ishontirish, shuningdek, ushbu shaxsni taqdim etilgan nuqtai nazarni qabul qilishga undashdir.

Notiqlik uslub - gazeta va publisistik uslubning og'zaki kichik toifasi. Tinglovchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa yozma va og'zaki nutqning lingvistik xususiyatlarining kombinatsiyasidan foydalanishga imkon beradi. To'g'ridan-to'g'ri jamoatchilikka murojaat qilish vaqti-vaqti bilan so'zlashuv so'zlari va iboralarni qo'llash imkonini beradi. Stilistik vositalar har doim kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi, ularning barchasi tinglovchilarga tushunarli bo'lishi uchun an'anaviydir: bular takrorlash, o'xshashlik, metafora va ritorik savollar.

Gazeta-publisistik uslub bog'lovchi so'zlarning keng qo'llanilishi va ma'lumotlarni paragraflarga bo'lishning aniq va mantiqiy sintaktik tuzilishi bilan tavsiflanadi. Gazeta-publisistik uslubning kompozitsion xususiyatlariga sarlavha dizaynidagi o'zgaruvchanlik va asosiy ma'lumotlarni asosan matn boshida taqdim etish ham kiradi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, bu uslub lakonik ifodalar bilan ajralib turadi. Shuningdek, ish joyidagi muxbir o'zining ma'lumotga ishonchi yo'qligini yoki

javobgarlikdan qochish istagini bildiruvchi sintaktik tuzilmalardan foydalangan holda e'lon qilingan faktlarga shubha bildirishi mumkin.

Gazeta-publisistik uslub quyidagi leksik vositalardan foydalanish bilan ham tavsiflanadi:

1. professionallik: maxsus siyosiy va iqtisodiy atamalar;
2. terminologik bo'lmagan siyosiy lug'at (respublika, monarxiya, prezident, millat);
3. qisqartmalar (NATO, EEC);
4. neologizmlar;
5. frazeologik birliklar;
6. adabiy va kitob so'zlari;
7. mavhum so'zlar;
8. ma'lum fakt va hodisalarga ishora.

Shunday qilib, gazeta-publisistik uslub leksik, grammatik, stilistik va kompozitsion darajalarda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Buning sababi, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu funksional uslub estetik va aloqa o'rnatishdan tashqari barcha lingvistik funksiyalar bilan tavsiflanadi. Biroq, bu, albatta, barcha gazeta va jurnal materiallariga to'g'ri kelmaydi. Maqolalar va jurnalistika ma'lum darajada ilmiy, badiiy matnga, rasmiy ish uslubiga, so'zlashuv nutqiga yaqinlashishi va tegishli funksiyalar to'plamiga ega bo'lishi mumkin. Bu zamonaviy matbuot sahifalarida o'z yoritilishini topadigan ijtimoiy faoliyatning ko'plab turli sohalari bilan izohlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Арнольд, И. В. Стилистика. Современный английский язык: учебник для вузов / И. В. Арнольд, П. Е. Бухаркин. – М. : Флинта, 2009
2. Гальперин, И.Р. Очерки по стилистике английского языка / И.Р. Гальперин. М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. -462 с.

3. Наер, В.Л. Функциональные стили английского языка / В.Л. Наер. – М., 1981.
4. Скребнев, Ю.М. Кузнец, М.Д. Стилистика английского языка / Ю.М. Скребнев. - М., 1960.
5. Гельгардт Р. Р. Избр. статьи. Языкознание, Фольклористика. Калинин, 1968.
6. Киселева Л. А. Некоторые проблемы изучения эмоционально-оценочной лексики современного русского языка // Уч. зап. Ленингр. пед. ин-та. Проблемы русского языкознания. Л., 1968, т. 281.
7. Полякова Г. П., Солганик Г. Я. Частотный словарь языка газеты. М., 1971.

## **TALABALARNING OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR XUSUSIDA**

F.Yuldashev,  
O‘zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedراسи  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantiruvchi omillar xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** axborot, texnologiya, interfaol, innovatsiya, ta’lim, metod, omillar, pedagogik texnologiyalar, tushunchalar tahlili, xayoliy xarita, rezyume, usullar, tizim.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются факторы, формирующие навыки устной речи студентов.

**Ключевые слова:** информация, технология, интерактив, инновации, образование, метод, факторы, педагогические технологии, концептуальный анализ, воображаемая карта, резюме, методы, система.

**Abstract.** This article discusses the factors that shape students' oral speech skills.

**Key words:** information, technology, interactive, innovation, education, method, factors, pedagogical technologies, concept analysis, imaginary map, resume, methods, system.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, oldimizga qo'yilgan muhim topshiriqlar, ilgari surilayotgan natijaga asoslangan g'oyalar kelajak yoshlarning ma'naviyatini, huquqiy madaniyatini, jamiyat oldidagi burchini, mas'uliyat bilan yondashish tamoyilidan borishiga, to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan.

Bu borada amalga oshirilayotgan yangi islohatlar o'zimizga mos va xos bo'lgan milliy ta'lim tizimini shakllantirish, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lishiga erishish, jamiyatga har tomonlama yetuk, barkamol kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

Berilgan vazifalarni ijobiy hal etish natijasidagina aqlan yetuk, axloqan barkamol, jismonan sog'lom, dunyoqarashi keng va teran, yaxlit shakllangan, ilmi jihatidan raqobatlashadigan komil insonni shakllantirishimiz mumkin.

Rivojlanish jarayonida kompyuter texnologiyalar asrida ta'limda shiddat bilan kirib kelayotgan axborot oqimini to'liq o'zlashtirishda, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishni talab etmoqda. Shu boisdan ham ta'limni yanada rivojlantirish, taraqqiy ettirish va o'qitish samaradorligini oshirish uchun an'anaviy ta'limga har tomonlama yordam beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiya o'qitish tizimining shartlari, barcha talablariga javob beradigan ta'limiy dastur desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'limga kirib kelgan innovatsiya, interfaol, pedagogik texnologiya kabi terminlarning mohiyatini barchamiz birdek tushunamizmi? Ular qanday maqsadlarda qo'llanilishini bilamizmi? degan haqli sabol tug'iladi. Keling, dastavval shu terminlar mohiyati haqida fikr yuritsak.

Internet ma'lumotlariga ko'ra, **innovatsiya (inglizcha (innovation) innovatsion)** – yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish. Bugungi

kundagi innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimida, pedagogik jarayonga, ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyatiga yangilik kiritish, sifat o'zgarishlarini kiritishni anglatadi, shuningdek, bu jarayonni amalga oshirishda interfaol usullardan keng foydalaniladi.

**Interfaol (Inter (Inter) – bu o'zaro, akt (akt) –** harakat qilmoq) o'zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo'lish)ni anglatadi. Demak, ko'rinadiki, o'zaro muloqotga asoslangan o'qitish tizimi. Bu o'qitish tizimining samaradorligi ikki tamonlama muloqotga asoslanadi va shundagina natijani ko'rish mumkin.

**Interfaol** – bu ta'limning mohiyati bo'lib, o'quvchilarni bir-birlaridan o'rganishlariga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchining faolligi va o'quvchilarni to'g'ri yo'naltira olish mahorati muhim omil hisoblanadi.

**Pedagogik texnologiya** – ixtisoslashtirilgan innovatsion yondashuv bo'lib, ta'lim jarayonini ma'lum darajada standartlashtirish hisoblanadi va bu tushuncha kompyuterlashtirish bilan bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayondir. Bu jarayonda pedagogik texnologiyalardan qanday va qay yo'sinda foydalana olish nazarda tutiladi.

Hozirgi kundagi zamonaviy ta'limda o'zaro muloqot pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi va o'qitish tizimini to'liq qamrab olishi kerak. Bunda o'qituvchi va o'quvchi faolligi tushunchasi yetakchi hisoblanadi. Chunki bu jarayon o'quvchi-talabalarni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Bunda pedagog - shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik, maslahatchi, baholovchi vazifalarini bajaradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi barcha fanlarni o'qitishda quyidagi innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalarini qo'llab, mashg'ulotdan ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Bular: “Xayoliy xarita”, “Tushunchalar tahlili”,

“Rezyume”, “Muloqot”, “Zinama-zina”, “Charxpalak”, “Muammo”, FSMU, “Besh daqiqalik esse”, “Blits – so‘rov”, “Domino”, “Interfaol suhbat”, “B-B-B” chizmasi, “Venn diogrammasi”, “T – chizma”, “Insert jadvali”, “Nima uchun?” chizmasi, “Baliq skeleti”, “Qanday?” jadvali, “Munozara”, “O‘z o‘rningni top”, “Davra suhbat”, “Munozarali davra suhbat”, “Klaster” metodi, “Assesment” texnikasi, “O‘yin” texnologiyalari kabi metodlar. Shu o‘rinda pedagogik texnologiyalardan ba’zilar xususida fikr yuritmoqchimiz.

**“Tushunchalar tahlili” metodi.** Ushbu metod fan bo‘yicha o‘tilgan mavzularni talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirganliklarini tahlil etish uchun foydalanish mumkin.

Mavzular bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni baholay olishga yo‘naltirilgan. Ushbu metoddan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki predmetning biron-bir bo‘limi tugallanganda) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu metodni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka, kichik hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Metoddan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro‘yxati, qalam (yoki ruchka), slayd kabilar asosida olib borishi mumkin.

Quyida “Tilshunoslik” fanida “Til va nutq. Til va tafakkur. Til va madaniyat.” mavzusini o‘qitishda “Tushunchalar tahlili” metodi asosida foydalaniladigan tarqatma materiallar namunasini keltiramiz:

Tushunchalar	Mazmuni
Til	Til ijtimoiy mahsulot, lisoniy tizim, undan inson bolaligidan boshlab foydalanadi, u orqali fikrlashni

	o'rganadi.
Nutq	Nutq lisoniy birlikning jamiyat a'zolari ongida o'rnashgan me'yor asosida muayyan moddiy (yozma, og'zaki va h.) shakllardan birida voqelanishidir.
Tafakkur	<b>Tafakkur</b> — <u>inson</u> aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning <u>ongda</u> aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U <u>sezgi</u> , <u>idrok</u> , <u>tasavvurlarga</u> qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir
Nutq madaniyat	Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok etish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir.
Til va nutq	Til va nutq o'zaro dialektik bog'liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixologik hodisalar bo'lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Ushbu tarqatma materiallardan o'tiladigan fanning barcha mavzularida foydalanish mumkin. Talabalarning olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan metod hisoblanadi.

**Rezyume texnologiyasi.** Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Bu texnologiyada bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Shuningdek, ularning ayrim elementlari muhokama qilinadi. Ijobiy va salbiy, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Texnologiyaning maqsadi o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini

topishga, kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, o‘tilgan mavzular yuzasidan olgan bilimlarini muammoli jarayonda qo‘llay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiyani ma’ruza darslarida, seminar yoki amaliy mashg‘ulotlarda ham qo‘llash mumkin. Shuningdek, yakka yoki guruhlar asosida o‘tkazish mumkin. Uyg‘a vazifa sifatida ham berish mumkin.

№	Alisher Navoiyning til haqidagi fikrlarining		Tafakkur haqidagi olimlar qarashlarining		Madaniyat tushunchasi haqida olimlar qarashlarining	
	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning barchasida o‘quvchilarni amaliy mashg‘ulotlarda o‘tilgan mavzularni egallaganliklari va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganliklari aniqlash, shuningdek, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olishlari, o‘zlarining bilim darajalarini baholayo olishi, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarashi kabi qator maqsadlar qo‘yilgan. O‘qituvchilar bunday maqsadlarni to‘g‘ri anglagan holda dars jarayonida o‘rinli foydalanishsa, shundagina dars samaradorligiga erishgan bo‘lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Тошкент, Ўқитувчи 1992.
2. Ишмухамедов Р., М.Юлдошев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Тошкент. 2013.
3. Jiyanova N. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent, 2018.
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## **O‘ZBEK TILINI XORIJLIKLARGA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘RGATISHDA SHAKLLANTIRILADIGAN KOMPETENSIYALAR**

Usmonova Zamira Jahongirovna,  
O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilini xorijliklarga lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rgatishda shakllantiriladigan kompetensiyalar xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** chet tili, o‘qitish, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, tili o‘rganilayotgan mamlakat, udumlari, an‘analar, ko‘nikmalar, bilim, malaka.

Til muayyan ijtimoiy-madaniy voqelikni aks ettiruvchi vosita bo‘lib, uni egallash orqali madaniyatga tegishli olam manzarasi ham egallanadi. Otabobolarimiz qadimdan ikki, uch tilni bilganlar. Bu esa ularga boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish va hamnafas yashash imkonini bergan. Bugungi kunda chet tillarni o‘qitishda tillarni lingvokulturologik yondashuv asosida, ya‘ni til egalarining milliy-madaniy xususiyatlarini e‘tiborga olib o‘rganish keng tatbiq qilinmoqda. Tillarni o‘qitishda lingvokulturologik yondashuvning yuzaga kelishi metodika fanida lingvokulturologik kompetensiya, uni shakllantiruvchi omillar, tarkibiy qismlari va qo‘llanish tamoyillarini o‘rganib chiqish ehtiyojini ham yuzaga keltirdi.

Tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisining turmush tarzi, urf-odatları, milliy madaniyati va tabiati bilan tanishtirib borish ikki tomonlama murakkab integrar jarayon bo‘lib, bunda nafaqat tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisi, balki ayni paytda o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt urf-odatları, o‘z xalqining milliy madaniyati ham o‘rganib boriladi va zarur hollarda chet mamlakat xalqiga taqdim qilinadi. Mazkur jarayonda tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisi va o‘z xalqiga xos umumiy va farqli belgilar, xususiyatlar qiyoslab borilishi o‘sha mamlakat bilan yaqinlashish, uni tushunishga, shu yurt odamlari, an‘analariga yaxshi munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Shu tarzda, o‘zi bilmagan holda bir-biridan andoza olish tili va

madaniyatlari boshqa-boshqa bo'lgan xalqlar o'rtasida tez-tez uchrab turadigan hodisadir.

Chet tilini o'qitishda ijtimoiy-madaniy kompetensiya tili o'rganilayotgan mamlakatning udumlari, an'analari haqidagi bilimlar asosida shakllanadi. Bunda nutqiy kommunikatsiya faoliyatida kommunikativ hulq-atvor haqidagi bilimlar va ko'nikmalar, verbal va noverbal hulq-atvor ko'nikma va malakalari milliy madaniyat mazmunini tashkil qiladi<sup>31</sup>. Bu o'rinda tili o'rganilayotgan xalq va talabaning madaniyatida o'ziga xos farqlar ham yuzaga chiqadi. Jumladan, G'arbda og'zaki muloqot chog'ida insonlar odatda bir-birining ko'ziga qarab fikr almashadilar. Sharq madaniyatida esa begona erkak bilan ayolning bir-biriga ko'z tikilib gaplashishi odob me'yoridan chetga chiqish hisoblanadi. Turli xalqlar madaniyatida yana shu narsa ham kuzatiladiki, erkak va ayol tanishish jarayonida qo'l berib so'rashadi va muloqot jarayonida tabassum ularni tark etmaydi. Sharq madaniyatida esa ayol begona erkak bilan uchrashganda oddiy bir tavoze bilan cheklanadi xolos. Muloqot jarayonida ayol kishining doimiy jilmayib turishi, boshqalar tomonidan yengiltaklik deb hisoblanish ehtimolini keltirib chiqaradi. O'zaro muloqot jarayonida doimiy duch kelinadigan bu kabi milliy-madaniy xususiyatlarni bilmaslik muomalada noqulay vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ko'rinadiki, ijtimoiy-madaniy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish lingvomamlakatshunoslik va mamlakatshunoslik bo'yicha bilimlar hajmini yangi mavzu va nutqiy muloqot muammolari hisobidan hamda tanlangan kasb xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kengaytirishga ham sabab bo'ladi. Mavjud ilmiy-metodik fikrlar tahlili lingvomadaniy kompetensiya tarkibida quyidagi BKMLar bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

---

<sup>31</sup> Оманов П. Инглиз тилини ўқитишда талабалар ижтимоий-маданий компетенциясини аутентик видеоматериаллар воситасида ривожлантириш: фалс. фан.д-ри ....дис-я (PhD). -Тошкент, 2021.- 24-б.

**Bilimlar:** - o'zga til vakillari bilan muloqot yuritish jarayonida ko'p uchraydigan turli nutq vaziyatlariga xos qoliplashgan milliy-madaniy leksik birliklarni bilish;

- madaniyatlararo muloqot jarayonida muloqot ishtirokchilarining qadriyatlarini bilish va e'tiborga olish;
- kommunikativ intensiyalarni ifodalash vositalarini bilish;
- til egalarining muomala odobiga oid asosiy me'yorlar va qoidalarni bilish;
- til egalarining olamni tasavvur qilishiidagi asosiy konseptlarni bilish.

**Ko'nikmalar:**

- muloqot matnidagi madaniy qoliplashgan leksik birliklarni aniqlay olish, shuningdek, ushbu leksik birliklarni madaniyatlararo muloqot jarayonida o'rinli qo'llash ko'nikmasi;
- kommunikativ intensiyalarni til vositasida ifodalash ko'nikmasi;
- o'z fikrini ifodalashda o'rganilayotgan tildagi nutqiy etiket iboralarini muloqot jarayonida to'g'ri qo'llash ko'nikmasi;
- madaniyatlararo muloqotning turli vaziyatlarida muloqotdagi turli buzilishlarini identifikatsiyalash ko'nikmasi.

**Malakalar:**

- madaniy qoliplashgan leksik birliklarni madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida o'rinli qo'llash malakasi;
- madaniyatlararo muloqot jarayonida ona tilidagi va o'rganilayotgan tildagi madaniyatga oid fonli bilimlarni o'z o'rnida qo'llash malakasi;
- nutq odobi iboralarini etnoijtimoiy madaniyat nuqtai nazaridan mos tarzda qo'llash malakasi<sup>33</sup>.

Yuqorida qayd etilganlar lingvomadaniy yondashuv asosida chet tillarni o'rganish mazmuni quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi zarurligini ko'rsatadi:

---

<sup>33</sup> Бабаева В.Г. Обучение учащихся старших классов гимназий с гуманитарным профилем культуроведческому дискурсу на основе медиа ресурсов. Дис-я на соис. канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2016. –С.32-37..

- o'rganilayotgan xorijiy tilning o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bilan bog'liq orfoepik, orfografik, morfologik, sintaktik va uslubiy me'yorlar.
- o'rganilayotgan xorijiy til sohiblarining milliy-madaniy xususiyatlari - lingvomadaniyatshunoslikka oid materiallar.
- o'rganilayotgan xorijiy til sohiblarining bevosita turmush tarzidan kelib chiqadigan xususiyatlar - lingvoolkashunoslikka oid materiallar.

Shundan kelib chiqqan holda, xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda quyidagi ma'lumotlar berilishi maqsadga muvofiq:

- *O'zbekistonning geografik joylashuvi, iqlimi*
- *O'zbekistonning poytaxti, qadimiy shaharlari va yirik sanoat markazlari;*
- *respublikaning siyosiy tizimi va milliy timsollari;*
- *o'zbek tilining kelib chiqishi, adabiy til va shevalari;*
- *o'zbek xalqining milliy bayramlari, an'ana va urf-odatlari;*
- *o'zbek xalqining shonli tarixi va qadimiy obidalari*
- *o'zbek xalqining milliy kiyimlari va milliy taomlari;*
- *o'zbek hunarmandchiligi va amaliy san'ati;*
- *o'zbek xalqining san'ati va madaniyati;*
- *o'zbek shoir va yozuvchilari;*
- *O'zbekistonning ta'lim tizimi*
- *O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi.*

Biroq ushbu ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri nazariy ma'lumotlar sifatida emas, balki turli mavzular kesimida taqdim etiladigan autentik – hayotiy vaziyatlarga mos suhbat matnlari, ko'rgazmali vositalar, multimedia ilovalari tarzida berilishi va suhbatlar, savol-javoblar vositasida singdirib borilishi ko'zda tutiladi. Shu bois xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish mashg'ulotlarida o'zbek tili grammatikasiga oid nazariy qoidalar alohida mavzu sifatida emas, balki o'lkashunoslik, mamlakatshunoslikka oid materiallar qatorida grammatik sharhlar sifatida taqdim etiladi. Bunda mashg'ulotlarni asosiy qismi dialoglar, autentik audio va video materiallardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

## KELISHIK VA KO'MAKCHILAR SINONIMLIGI HAQIDA

Z.Sharipov,  
O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kelishik va ko'makchilar sinonimligi va ularning uslubiy vazifalari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kelishiklar, ko'makchilar, sinonimligi, ot kesim, qaratqich, tushum, jo'nalish, chiqish, o'rin-payt, kelishik.

Biz bilamizki, kelishik qo'shimchalari otlashgan so'zlar va olmoshlarni boshqa so'zlarga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bunda ular har doim tobe qismga qo'shilib keladi. Kelishik qo'shimchalari otlarning gapdagi sintaktik vazifalarini aniqlab beradi. Bosh kelishikning maxsus qo'shimchasi yo'q, gapda ko'pincha ega, ot kesim vazifasida keladi.

Qaratqich kelishigi –ning qo'shimchasi doim ot bilan bog'lansa-da, gapda qaratqichli aniqlovchi bo'lib keladi. Qaratqich kelishigi ba'zan belgisiz qo'llanishi mumkin, moslashuv yo'li bilan birikkan sodda birikmalarda, ya'ni qaratqich bilan qaralmish o'rtasida boshqa so'z ishtirok etmasa, belgisiz holda keladi: *maktab hovlisi, bahor havosi*<sup>41</sup>. Qaratqich kelishigi ayrim holatlarda, asosan, she'riy matnlarda –im shaklida ham qo'llaniladi: *O'zbekiston vatanim manim* (A.O.) kabi.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi o'zi qo'shilib kelgan so'z bilan birgalikda aniq xoslik, umumiy xoslik, butunning bo'lagi, to'dadan ajralganlik, o'xshatish, qiyos qilish kabi semantik-uclubiy ma'nolarni ifodalab keladi. Shuningdek, kelishiklar bilan sinonimlikni tashkil etadi: *Qizlarning biri so'zladi – qizlardan biri so'zladi, Kelinlardan biri ish boshladi – Kelinlarning biri ish boshladi* kabi. She'riy shakllarda qaratqich –ning va tushum –ni kelishiklari sinonim bo'ladi:

Tepasida uchar gala qush, Arg'imchog'in daryoga solib (Z.)

So'zlashuv va badiiy asarlarda obraz nutqida –ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni tushum kelishigi qo'llaniladi. Bunday qo'llanish kelishiklar sinonimligi

---

<sup>41</sup> Jiyanova N. O'zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent, 2018.

hisoblanadi: *Shamol bo'lmasa daraxtni(ning) uchi qimirlamaydi. Beayib bo'lsangiz eringiz nega orqangizdan kelmaydi* (D.Zaripova). *Buzoqni (ning) yugurgani somonxonagacha* kabi. Murakkab so'z birikmalari holatida esa qaratqich kelishigining qo'shimchasi so'z tarkibida saqlanib qoladi: kuzning salqin havosi, oilaning bosh farzandi, ishning asosiy qismi.

Tushum kelishigidagi ot doim o'timli fe'l bilan bog'lanadi, gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladi: kitobni o'qish, ertakni tinglash kabi. Tushum kelishigi qo'shimchasi og'zaki nutqda -in,-n, -i shakllarda ham qo'llanadi. Bunday qo'llanish badiiy nutq uslubida yoki poetik nutq uchun musiqiylikni shakllantiruvchi vosita sifatida foydalaniladi:

...Uch pahlavon, uch pari

Paykarga qul edilar.

Otarning bunday do'stin

Tanimaymiz, dedilar...(M.Yu.).

Tushum kelishigi shakli belgili va belgisiz ham qo'llaniladi: *kitob o'qimoq – kitobni o'qimoq, she'r yodlamoq – she'rni yodlamoq* kabi.

Tushum kelishigi belgili ishlatilganda so'zlovchi va tinglovchiga ma'lum predmet yoki voqea-hodisani ifodalaydi: *men kitobni oldim, men she'rni yodladim* kabi.

Tushum kelishigi belgisiz ishlatilganda esa noma'lumlik yoki umumiylik ifodalanadi: *Men kitob oldim (nechta olganlik ma'lum emas), men she'r yodladim (nechtaligi ma'lum emas)* kabi.

Tushum kelishigi qo'shimchasi quyidagi kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar bilan o'zaro sinonimlikni tashkil etadi:

1. Tushum va jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'zaro sinonim bo'ladi: *O'qishni o'rganmoq – o'qishga o'rganmoq, velosipedni minmoq – velosipedga minmoq, og'zini yopdi – og'ziga yopdi.*

2. Tushum va chiqish kelishigi qo'shimchasi o'zaro sinonim bo'ladi: *Yuzlarimni silab-siypalab – yuzlarimdan silab-siypalab, qulog'ini cho'zib qo'ymoq – qulog'idan cho'zib qo'ymoq, daryoni kechib o'tmoq – daryodan kechib o'tmoq,*

*kamchiliklardan gapirmoq – kamchiliklarni gapirmoq, eshitganlarini gapirmoq – eshitganlaridan gapirmoq.*

3. Tushum kelishigi o‘rin-payt kelishigi bilan sinonim bo‘lib keladi: *ko‘chani izg‘imoq – ko‘chada izg‘imoq.*

4. Tushum kelishigi ko‘makchilar bilan o‘zaro sinonimlikni tashkil etadi: *Sevgisini so‘zladi – sevgisi haqida so‘zladi, ko‘rpachani oyog‘iga yopdi – ko‘rpacha bilan oyog‘ini yopdi.*

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi –ga (-ka, -qa) shakllarda, shuningdek, sheva va tarixiy variantlarda esa (-ga, -a,-na,-garu,-karu,-nar) kabi shakllarda ham qo‘llanadi. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi nasriy asarlarda turli qahramonlar nutqini individuallashtirish vositasi sifatida ham ishlatiladi.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi she‘riy matnlarda she‘r qofiyasi va vazniga mos holda qo‘llaniladi:

*...Quyosh chiqar, quyosh botar, sog‘inaman,*

*Ko‘kragimda bir tosh yotar, sog‘inaman.*

*Tokay chiday bu judolik dog‘ina man,*

*Qani o‘sha qoziqdagi to‘nim mening!..(M.Yu.).*

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi quyidagi kelishiklar bilan sinonimlikni tashkil etadi:

1. Jo‘nalish (-ga) va o‘rin-payt (-da) kelishigi sinonim bo‘ladi: *maktabda direktor – maktabga direktor, zavodda boshliq – zavodga boshliq.*

2. Jo‘nalish (-ga) va chiqish (-dan) kelishigi qo‘shimchasi o‘zaro sinonim bo‘ladi: *Akasi kelganiga xursand - akasi kelganidan xursand, bayram bo‘lganiga shodlandi – bayram bo‘lganidan shodlandi.*

3. Jo‘nalish va tushum kelishigi qo‘shimchasi o‘zaro sinonim bo‘ladi: *gapingizni tushunmadim – gapingizga tushunmadim, aytganingizni angladim – aytganingizdan angladim.*

4. Jo‘nalish va ko‘makchilar o‘zaro sinonim bo‘ladi: *ukamga oldim – ukam uchun oldim. O‘qishga bordim – o‘qish uchun bordim. Boshiga nur sochdi – boshi uzra nur sochdi.*

O‘rin-payt (-da) kelishigi o‘rin ma’nosidan tashqari, payt bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib keladi va paytga munosabat ma’nosini ifodalaydi: *Tongda esgan mayin shaboda.*

O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi quyidagi qo‘shimchalar va ko‘makchilar bilan sinonimlikni tashkil etadi:

1. O‘rin-payt va chiqish kelishigi qo‘shimchalari o‘zaro sinonim bo‘ladi: *O‘qish sentyabr oyida boshlanadi – o‘qish sentyabr oyidan boshlanadi. Asosiy ishlar bahorda boshlanadi – asosiy ishlar bahordan boshlanadi.*

2. O‘rin –payt kelishigi qo‘shimchasi ko‘makchilar bilan sinonimlikni tashkil etadi: *telefonda gaplashdi – telefon orqali gaplashdi, noxush xabar telegramda yetib keldi – noxush xabar telegram orqali yetib keldi, poezdda keldi – poezd orqali keldi kabi.*

Chiqish kelishigi (-dan) qo‘shimchasi –din, -nan,-tan shakllarga ham ega. She’riy nutqda –din shaklidan, so‘zlashuv nutqida esa –nan va –tan shakllaridan foydalaniladi: *G‘urbatda ota-onadin ayrilish ustiga suyukli yordan ayrilish o‘limdan ming marta qattiqroq (H.H.).*

Chiqish kelishigi qo‘shimchasi quyidagi kelishik va ko‘makchilar bilan sinonim bo‘lib keladi:

1. Chiqish va qaratqich kelishigi qo‘shimchasi o‘zaro sinonim bo‘ladi: *Qarindoshlardan biri – qarindoshlarning biri, do‘stlardan biri keldi – do‘stlarning biri keldi.*

2. Chiqish va o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchalari o‘zaro sinonim bo‘ladi: *men go‘zalning hajridan kuydim – men go‘zalning hajrida kuydim, ishqingdan yondim – ishqingda yondim.*

3. Chiqish kelishigi ko‘makchilar bilan sinonimlikni tashkil etadi: *Armiyadan gapirdi – armiya haqida gapirdi. Radiodan bildi – radio orqali bildi, kulganidan*

*ko‘zlari yoshlanib ketdi – kulgani uchun ko‘zlari yoshlanib ketdi, qo‘rqqanidan ovozi chiqmadi – qo‘rqqani uchun ovozi chiqmadi.*

Xullas, kelishiklar bilan kelishiklar va ko‘makchilar bilan kelishirlar matn tarkibida o‘zaro sinonimlikni tashkil etadi. Bunday qo‘llanish ularning uslubiy vazifaga xoslanganligini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adaboyotlar ro‘yxati:**

1. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Тошкент, Ўқитувчи 1992.
2. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Тошкент, Фан, 2007.
3. Jiyanova N. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. Toshkent, 2018.

### **ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД ИБОРАЛАРДА МЕТАФОРИЗАЦИЯ ХОДИСАСИ**

Абдухалилова Гулбаҳор Карабаевна,  
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети  
2-чет тили кафедраси катта ўқитувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақола инглиз тилидаги туризм соҳасига оид сўз ва ибораларда метафораларни ишлатилишига бағишланган бўлиб, автор бир неча метафорали ибораларни таҳлил қилган. Метафоралар тингловчи эътиборини жалб қилиш, эмоционал баҳоловчи сифатида, ахборот узатиш, суҳбатдошлар ўртасида коммуникатив ишончни ўрнатиш, мажозийликни ошириш, эстетик завқни етказишга хизмат қилувчи илғор лингвистик воситалардан бири эканлигига амин бўлган. Мақоладаги изланиш натижалари инглиз тилини чуқур билишда ва туризм соҳасини ўрганишда фойдали манба сифатида хизмат қилади.

**Калит сўзлар:** нутқ беаги, лингвистик восита, маданий ҳодиса, прагматик хусусиятлар, эстетик завқ, идрок, ахборот узатиш, когнитив лингвистика

**Аннотация.** Данная статья посвящена использованию метафор в словах и фразах, связанных со сферой туризма в английском языке. Автор проанализировал несколько метафорических фраз и был убежден, что метафоры являются одним из передовых языковых средств, служащих для привлечения внимания слушателя, как эмоциональный оценщик, для передачи информации, установления коммуникативного доверия между собеседниками, повышения образности, для передачи эстетического удовольствия. Результаты исследования в статье служат полезным ресурсом для углубленного знания английского языка и изучения туризма.

**Ключевые слова:** речевой орнамент, языковой инструмент, культурное событие, прагматические особенности, эстетический вкус, восприятие, передача информации, когнитивная лингвистика

**Annotation.** This article is devoted to the use of metaphors in phrases related to the field of tourism. The author has analyzed several metaphorical phrases. He was convinced that metaphors are one of the advanced linguistic tools that serve to attract the listener's attention as an emotional evaluator, transmit information, establish communicative trust between interlocutors, increase figurativeness, and convey esthetic pleasure. The research results in the article serve as the useful resource for learning English and studying of tourism.

**Key words:** speech ornament, linguistic instrument, cultural event, pragmatic features, esthetic taste, perception, information transfer, cognitive linguistics

### **Кириш**

Эрамиздан аввалги 384-322 йилларда яшаган грек файласуфи Аристотел: “Яхши метафоралар яратиш - ўхшашликни кўра олиш демакдир. Ўхшашликни кўра олишлик эса инсон истеъдодидан далолат” дейди [1].

Ўтган асрнинг бошига қадар метафора фақатгина бадий асарларга хос ҳодиса деб қаралган бўлиб, уни тафаккур жараёни билан узвий боғлиқ ҳолда ўрганиш ўтган асрнинг йигирманчи йилларидан бошлаб кучайди. Бу стилистик воситанинг имкониятлари шу қадар кенги, ҳатто XX асрнинг иккинчи ярмига келиб баъзи тилшунослар тилшуносликда янги йўналишларни шаклланишида метафоранинг аҳамияти юксак эканлигини кўришади.

Когнетив метафора назарияси А. Потебня, Ч. Кукин, Хосе Ортега-и Гассет, Э. Кассирер, У.Э. Холназаров, метафоранинг миллий маданий хусусиятлари З. Худойберганава ва О. Каримов каби олимлар томонидан ўрганилган. Хусусан, Н.Д. Арутюнова, “метафорага қизиқиш илмий тафаккурнинг турли соҳаларини ўзаро таъсирига, уларнинг ғоявий мустақамланишига ёрдам берди, натижада когнитив фан шаклланди” деб таъкидлайди [2].

Бинобарин, аввал нутқ беағи сифатида тушунилган метафора эндиликда фикрий фаолиятнинг барча кўринишларига ҳам бирдек хос эканлиги аён бўлиб бормоқда. Когнитив лингвистикада метафорага тушунтириш, баҳолаш, қабул қилиш ва идрок этиш каби психик жараёнларнинг асоси сифатида қаралади.

### **Адабиётлар таҳлили ва методология**

Метафора кўп ҳолларда эстетик мақсадда қўлланилиб, сўзнинг асл маъносини сиқиб чиқаради. Масалан, Шекспирда гапнинг асл кундалик маъноси эмас, балки унинг кутилмаган метафорик маъноси - янги маъно муҳим аҳамиятга эга бўлган: “Давлат-кема”, Давлат-боғ”, “фуқаролар жанжали-давлатни ичидан кемирувчи захарли қуртдир” [3].

Бундан ташқари, Шекспирнинг “Гамлет” асрида Гамлет Клавдияни таърифлашда “латта-путтадан ясалган қирол” метафорасини қўллаб уни давлатни бошқаришга салоҳияти паст бўлган ноқобил қирол эканлигини айтмоқчи бўлган. Гамлет Клавдиянинг ташқи кўриниши ҳам бадбашара,

совуқ эканлигини “қурбақа”, “кўршапалак”, “моғор босган бошоқ” каби метафоралар орқали ифодалаган [4].

Шунингдек, метафоралар сўзловчи ва тингловчи ўртасидаги ҳиссий алоқани яратиш, жозибали суҳбат қиёфасини сақлаб қолишга хизмат қилади. Ўзбек тилидаги қуйидаги иборалар бунга мисол бўлади: “ойдек гўзал”, “кўзлари мунчоқ”, “денгиздай чайқалиб”, “гулдеккина экан”, “қуйдирган калладай”, “девдек барзанги”, “ишонган тоғи”, “азроилнинг ўзгинаси”, “ипакдайин мулойим”, “амамнинг бузоғидай”.

Метафорани нафақат лингвистик ҳодиса, балки маданий ҳодиса ҳам эканлигини унутмаслик даркор. Метафораларни таржима қилганда унинг лингвомаданий хусусиятларига катта эътибор берилади. Зеро, бир халқнинг тилида яратилган метафора, ўша халқнинг дини, маданияти ва қадимдан шаклланиб келган, ўша миллатга хос тушунчаларни ўзида акс эттиради [5].

Ўгирилган тилда метафора асли ўз маъносида эмас, бошқа тушунчалар орқали ифодаланиши мумкин. Бу каби ҳолатлар таржима муаммоларини келтириб чиқариши мумкин:

*Her words were a knife that cut deep* – Унинг гаплари юрагимга ханжардек ботди. *Our driver wears his heart on his sleeve* – Хайдовчимиз сир-асрорсиз инсон. *The guard was as strong as an oak tree* – Қўриқчи чинордек бақувват эди. *Susan seems to be as cool as a cucumber* – Назаримда Сюзан оғир-босиқ инсон.

Айтиш керакки, таржимада метафорани ўқувчига қай тарзда етказиш матн ва метафоралар турларига ва таржимон қарорига боғлиқ.

### **Муҳокама ва натижалар**

Инглиз тили ҳам метафорали ибораларга бой тилдир. Тадқиқот жараёнида туризм соҳасидаги метафорали ибора ва терминларни кўплаб учратдик:

1.	airport hotel - аэропорт қошидаги меҳмонхона	“қош” сўзи инсон аъзоси номидан бири, аммо бу мисолда у аэропорт сўзига
----	--	---

		нисбатан қўлланилиб “аэропортга яқин меҳмонхона” ни англатади
2.	alfresco - очик ҳавода тушлик қилмоқ	"очик ҳаво" сўз бирикмаси "тоза ҳаво" деган маънони англатган
3.	aisle seat - йўлак бўйидаги жой	“йўлак бўйидаги” сўз бирикмаси таъсирчанликни ошириш мақсадида қўлланган
4.	heavy food - оғир таом	“оғир” сифати бирорта кўтариш қийин бўлган нарса буюм ёки юкка нисбатан ўз маъносида қўлланилади, бу сўз таомга нисбатан қўлланган эса ҳазм бўлиши қийин бўлган таом деган маънони англатади
5.	bon voyage - оқ йўл	оқ ранг - бахт, омонлик, тинчлик, умуман олганда яхшилик белгисидир. “Оқ йўл” сўз бирикмаси “бехатар йўл” маъносида қўлланган
6.	big operators - катта лавозимдаги амалдорлар	катта сифати бирор буюмга нисбатан қўлланса, ўз маъносида келади бу мисолда эса у амалдорларга нисбатан кўчма маънода қўлланган, яъни “юқори мансабли” деган маъно ифодаланган
7.	cash flow - пул оқими	оқим сўзи сувга нисбатан қўлланса, ўз маъносида келади, “пул оқими” дейиш орқали эса кўп пулларга ишора
8.	chilling message - совуқ хабар	совуқ сўзи “ёмон” маъносида ифодаланган
9.	cold attitude - совуқ муносабат	муносабат сўзига нисбатан совуқ сифатидан фойдаланишдан мақсад

		таъсирчанликни янада оширишдир
10.	amusement parks - арғимчоқларга бой бўлган истироҳат боғлар	арғимчоқларга бой бўлган дейиш орқали "арғумчоқлари кўп бўлган" деган маъно ифодаланган
11.	heaven on earth - ердаги жаннат	ер юзидаги энг яхши, энг чиройли жой деган маънога ишора қилган
12.	the prime of life - ҳаётнинг гуллаган даври	бу бирикмада метафора усулида маъно кўчган, таъсирчанликни, бадий экспрессивликни янада ошириш мақсадида қўланган
13.	low season - паст мавсум	паст сифати инсоннинг бўйига нисбатан қўлланса ўз маносида ишлатилади, "паст мавсум" сўзи орқали эса кам фойда келтирувчи мавсумга ишора қилинган
14.	highway hotel - катта йўл ёқасидаги меҳмонхона	инсон кийимининг ёқаси ўз маъносида қўлланилади, йўлнинг ёқаси кўчма маънони англатади

### Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, юқорида келтирилган туризм соҳасига оид ибора ва терминлар мисолида, метафора - матннинг образлилигини ошириш, тингловчи эътиборини жалб қилиш, эмоционал баҳоловчи сифатида, ахборот узатиш, суҳбатдошлар ўртасида коммуникатив ишончни ўрнатиш, мажозийликни ошириш, эстетик завқни етказиш ва тингловчи онгининг ҳиссий-иродавий ва интеллектуал қисмларига мурожаат қилишда нутқ ҳаракатларини тежаш имконини берар экан. Шундай қилиб, метафора - туризм мулоқотининг прагматик хусусиятларни кенгайтиришга хизмат қилувчи илғор воситалардан бири экан.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Аристотель., Риторика, Поэтика.- М.: Лабиринт. 2000. С- 173. [1]
2. Дьякова М.Л., Метафора в деловом английском как средство воздействия на целевую аудиторию //Российский внешнеэкономический вестник УДК 811.111 ББК 81.2 АнглД-931, №1, С - 116. [2]
3. Комарова В., «Метафоры и аллегории в произведениях Шекспира», Издательство ЛГУ имени А.С. Пушкина, 1989. С -199. [4]
4. Fayzieva A.A., Linguistic and cultural features of the translation of metaphors //International Journal of World Art, № 2. 2022. 27-30 p. [5]
5. <http://www.w-shakespeare.ru> [3]

## **ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ КАК ВТОРОГО ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА**

Бойсариева Фотима,  
УзГУМЯ

**Аннотация.** В настоящее время, изучение иностранных языков получает всеобщее внимание. В национальных университетах студенты факультета иностранных языков изучают два-три иностранных языка, что соответствует требованиям современного мультикультурного мира. В результате обучения формируется поликультурная личность, способная практически общаться с представителями различных сообществ на общие и профессиональные темы, решать возникающие проблемы.

**Ключевые слова:** лингвистический, социокультурный, социолингвистический, психологический, социальный, процесс обучения, языковые навыки, языковая личность.

Столетие постоянных конфликтов и войн, неправильное толкование одной нации близко ее наций, и нетерпимости братских народов друг в направлении друга, результат изучения языков особенно похож, не только как инструмент для коммуникации между представителями различных обществ, но как мощное оружие перемещения от политики, войн, и захватывают к культуре мира, сотрудничества, и взаимопонимания. К тому же, признано, что понимание языков - одна из предпосылок общества и эффективный социально-экономический, технический, и культурный рост страны. Однако, расширение международных контактов, введение ИЯ в наших жизнях, возможности широкого доступа к обширному информационному пространству, трудовой миграции, культурно-воспитательные программы игрока сборной формируют новые общественные и социальные потребности. В будущем, специалисту нужно будет знать не только английский язык, но и два, а возможно и три иностранных языка.

Необходимость изучения иностранных языков на всех этапах развития человечества рассматривалась со многих точек зрения и решалась по-разному. В определенных обстоятельствах студентов обучали исключительно грамматике или чтению текстов. Цели изучения иностранных языков различались в зависимости от возраста студентов, их карьеры и жизненной ситуации.

Целью на современном этапе, этапе социокультурных преобразований XXI века, является формирование иноязычной коммуникативной компетенции, включающей лингвистический, социокультурный, социолингвистический, психологический, социальный и другие компоненты. (Н.Д. Гальскова, А.А. Миролубов, Е.И. Пассов, В.В. Сафонова, Е.Н. Соловова, Е.Ф. Тарасов, И.И. Халеева, А.В. Щепилова, А.Н. Щукин и др.). Учет и сочетание вышеперечисленных компетенций позволяет учителю добиваться положительных результатов в преподавании ИЯ на всех уровнях образования: от дошкольного до вузовского. Помимо изучения языковых

навыков, таких как фонетика, лексика и грамматика, учащиеся также должны освоить речевые навыки, такие как аудирование, чтение, говорение и письмо на иностранных языках. (Пасов, 1999; Соловова, 2005; Соловова, 2008).

Однако если процесс обучения студентов основам иностранных языков не осуществляется одновременно с изучением культуры страны, где они изучают язык, их знания не будут основательными и всесторонними. Несомненно, поскольку язык отражает культуру, национальный характер и дух народа, невозможно понять глубину и сущность языка, не понимая также его культурных особенностей, обычаев и традиций. Хорошо известный факт (ныне признанный учеными) заключается в том, что изучение иностранных языков не только важно, но и имеет фундаментальное значение для понимания иностранной языковой культуры. (Белая, 2014).

Сегодня изучению иностранных языков уделяется то внимание, которого оно заслуживает. Родители стараются как можно раньше познакомить своих детей с иностранными языками и культурами, чтобы помочь им развиваться не только интеллектуально, но также эмоционально и морально. По этой причине по всей стране созданы и продолжают создаваться школы раннего развития, языковые центры и лингвистические центры; там детей помимо родного языка и русского учат английскому, немецкому или французскому языку. На разные курсы обучаются разные возрастные группы студентов. Поскольку английский язык используется практически во всех аспектах жизни мирового сообщества и почти достиг глобального значения, ему уделяется особое внимание.

В настоящее время бесконечное количество людей разного возраста изучают английский язык – язык международного значения. Методы обучения в разных возрастных группах неодинаковы в зависимости от целей обучения. Однако во всех методиках необходимо соблюдать одно требование – это обучение речи на иностранном языке. Студентам необходимо овладеть

не только языковыми навыками, но и в достаточной степени овладеть речевыми навыками, чтобы иметь возможность разговаривать с партнерами.

Помимо общения с носителями языка, существует множество других ситуаций, в которых необходимо знание языка и культуры. К ним относятся общение по телефону и переписка в социальных сетях с иностранными представителями, чтение художественной и научной литературы, просмотр фильмов и так далее.

Однако из-за широкого распространения преподавания английского языка в нашей стране исторически преподаваемые европейские языки — французский и немецкий — начали постепенно исключаться из академической программы. Языки «малых» наций быстро исчезают, что отчасти объясняется глобальным доминированием английского языка. Некоторые ученые утверждают, что существует значительный перекос в пользу английского языка и что идея многоязычного образования не может быть должным образом реализована с использованием только одного иностранного языка.

Ученые разработали концепции обучения немецкому и французскому языкам на основе русского и английского языков.

По мнению авторов, массовое изучение второго иностранного языка могло бы принести большую пользу: способствовать развитию языковых и интеллектуальных наклонностей учащихся. По мнению многих психологов и методистов, изучение второго иностранного языка на базе первого иностранного языка и по сравнению с ним занимает меньше времени, а выучить язык гораздо проще, чем изучение первого иностранного языка. Известно, что имея общую индоевропейскую основу, французский, английский и русский языки относятся к разным группам языков (римским, немецким и славянским), имеют ряд как соответствий, так и различий.

Целью данного исследования является продемонстрировать на нескольких примерах, что изучение иностранного языка (ИЯ) невозможно

без понимания культуры целевой страны. Поскольку язык является полным проявлением культуры, то существование языка вне культуры народа, говорящего на нем, невозможно. По мере того, как студенты получают знания о культурах стран изучаемого языка, их лингвистический кругозор расширяется, и они становятся более компетентными в межкультурном общении. Учащиеся лучше ценят и понимают культуру своей страны. Сопоставляя культурные особенности людей, говорящих на этих языках, учащиеся расширяют свой кругозор, освежают воспоминания и развивают мультикультурную языковую личность, которая демонстрирует такие черты, как толерантность, открытость новому и гостеприимное поведение по отношению к людям разного происхождения. (Тер-Минасова, 2000).

### **Вопросы исследования**

Международные контакты предоставляют нашей молодежи большие возможности для обучения и работы за рубежом, приобщения к мировым культурным ценностям, использования в будущем положительного опыта других культур.

Изучение словарного запаса английского языка связано, прежде всего, с многозначностью лексем, а в ряде случаев с несоответствием объема значений лексических единиц английского, русского и родного языков, связанным с культурными особенностями разных народов. Это можно продемонстрировать на примере лексемы «пожалуйста». В английском языке этой лексеме соответствуют следующие словосочетания, в зависимости от значения словосочетания.

Преподаватель должен объяснить, что в британской национальной традиции нет подобных ассоциаций с четными числами. Студентам это кажется абсурдным, но, рассмотрев ситуацию, они приходят к выводу, что у разных народов разные традиции, что не может быть единого правила для всех, потому что все народы имеют разную историю и разные пути развития и становления. Следует помнить, что в английском языке нет различий

между местоимениями второго лица единственного и множественного числа –и (множественное число). В английском языке есть местоимение, которое употребляется в обоих случаях и не несет в себе такого смыслового разграничения, как в русском языке. Соответственно, если дети в английском произведении называют отца по имени, это не значит, что они его не уважают. Здесь можно привести еще один пример – обращение по имени и отчеству в русской национальной традиции и отсутствие отчества в западных странах.

Многие учебники содержат тексты, рассказывающие о традициях празднования Нового года в Великобритании, США, России и многих других странах. В праздновании самого любимого праздника можно проследить много общих черт. Есть одна традиция, которая практически одинакова в Шотландии и Осетии, и этот факт кажется удивительным всем студентам. Эта традиция связана с первыми минутами и часами Нового года. В Шотландии в первые часы Нового года первым в дом должен войти темноволосый мужчина, что принесет семье удачу. Эта традиция называется «первый футер». В нашей республике во многих семьях существует подобный обычай, когда первым гостем в доме должен быть темноволосый мужчина, что сулит счастье и благополучие на целый год. Несмотря на большое количество особенностей и различий в традициях, с которыми сталкиваются студенты в период обучения, существует немало сходств, свидетельствующих о том, что мир един в своем многообразии.

Наряду с различиями существует множество сходств, показывающих, что люди всегда общались и делились своими знаниями и традициями, учились друг у друга, принимали другую культуру и тем самым обогащали свою культуру и свои знания.

В начале студенты первого курса знакомятся с английским фольклором, народными сказками, некоторые из них уже не воспринимаются как иностранные. По мере изучения английского языка знания учащихся о

культуре страны изучаемого языка обогащаются. Чтение литературных произведений на уроках домашнего чтения знакомит учащихся с жизнью, традициями и обычаями другой страны, существенно отличающейся от привычной, родной среды. Знакомство с особенностями культуры способствует лучшему пониманию и усвоению языковых знаний, поскольку сам язык отражается в людях и их культуре.

Как уже говорилось выше, без знания культуры страны изучаемого языка трудно понять и объяснить некоторые языковые явления. В то же время глубокое понимание фонетических, грамматических и лексических особенностей изучаемого языка помогает лучше понять культурные особенности. Это два взаимосвязанных и взаимозависимых процесса, которые требуют тщательного исследования. Преподаватель должен знать об этих особенностях и стараться объяснить учащимся несоответствия языковых явлений ИЯ с явлениями родного языка в процессе изучения фонетических, грамматических явлений, а также при введении лексических единиц. В настоящее время английский язык востребован как второй иностранный язык как на школьном, так и на университетском уровне обучения. Многоязычный подход в языковом образовании предусматривает изучение нескольких языков, помимо английского. Внедрение ИКТ в сферы человеческой деятельности, в том числе преподавание и изучение иностранных языков и культур, делает этот процесс более эффективным и качественным, предоставляя учащимся возможность практиковать несколько языков.

Интернет также предоставляет большие возможности: любая информация становится доступной, если есть желание понять и изучить другую культуру. Разнообразие программ обучения языку позволяют студентам сделать выбор в пользу того или иного метода. В ходе работы над развитием сторон речи, видов речевой деятельности формируется межкультурная компетенция, которая связана со знанием языка другого

общества, освоением культурного опыта и расширением языковой картины мира. и в связи с этим формирование вторичной языковой личности.

Цель исследования – показать, что полноценное изучение первого и второго языка осуществляется на основе лингвокультурологического подхода. Цель будет реализована с помощью практического опыта преподавания английского языка на специальном факультете университета.

**В ходе исследования использовались следующие методы:**

- а) изучение и анализ лингвистической, методической, педагогической, культурологической литературы по проблеме;
- б) имманентный (описание, анализ); г) метод сбора фактов;
- д) обобщения.

**Описание методов, использованных при проведении исследования.**

Изучение культурных особенностей страны изучаемого языка помогает более глубоко понять языковые явления и факты, что способствует обогащению не только языковых знаний, но и расширению языковой картины учащихся, формирование межкультурной компетентности. Это поможет им увидеть разнообразие многоэтнического и многорелигиозного мира. Изучение культуры страны изучаемого языка должно осуществляться на всех уровнях школьного и университетского образования, поскольку без культуры невозможно полноценное изучение ИЯ. Именно в процессе изучения иностранного языка студенты усваивают тот факт, что разные народы по-разному смотрят на одни и те же явления, по-разному интерпретируют и воспринимают их.

**Заключение**

В настоящее время во всех цивилизованных странах изучению иностранного языка уделяется большое внимание. Любой желающий выучить ИЯ может найти tutorиалы, видеокурсы, аудиокурсы и т.д. Обучение иностранному языку и коммуникативной компетентности основано не только на изучении языка и речевых навыков. Студентов

необходимо знакомить с культурой страны изучаемого языка, которая подразумевает не только литературу и искусство, но и историю, традиции, обычаи, быт и модели поведения жителей данной страны в различных ситуациях.

### **Литература:**

1. Белая, Е.Н. (2014). Теория и практика межкультурной коммуникации, Москва: «Форум».
2. Мурьева, М.В. (2015). Формирование социолингвистической компетентности в процессе изучения иностранного языка в вузе. Историческая и социально-педагогическая мысль, С2, 72-77.
3. Пассов, Э.И. (1999). Основы коммуникативных методов. Москва: Русский язык.
4. Соловова, Е.Н. (2005). Методика преподавания иностранных языков. Базовый курс лекций. Москва, Просвещение.
5. Соловова, Е.Н. (2008). Методика преподавания иностранных языков. Курс повышения квалификации, Москва, «Астрель».
6. Тер-Минасова, С.Г. (2000). Язык и межкультурное общение. Москва: Слово.
7. Фремлин, К. (1988). Я буду ждать. Предательство. Книга для чтения на английском языке. Ленинград: Просвещение.

## **MASOFAVIY TA'LIM VA UNI TASHKIL ETISH YO'LLARI HAQIDA**

Umarov Abdurasul Abduraxmanovich,  
O'zDJTU Zamonaviy axborot texnologiyalari kafedrası  
o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada masofaviy ta'lim tushunchasi, uni tashkil etishning usul va yo'llari, o'qitish tizimidagi amaliy ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, kompyuter, axborot texnologiyalar, o'qitish usullari, vosita, rivojlantirish, umumiy qoidasi, onlayn, muloqoti, zamonaviy internet tarmog'i, elektron pochta, masofaviy o'qitish, masofaviy o'qitish tizimi, masofaviy ta'lim modellari, elektron ta'lim, videoma'ruzalar.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается понятие дистанционного образования, методы и способы его организации, а также его практическое значение в системе образования.

**Ключевые слова:** дистанционное образование, компьютер, информационные технологии, методы обучения, инструмент, разработка, общее правило, онлайн, коммуникация, современная сеть Интернет, электронная почта, дистанционное образование, система дистанционного образования, модели дистанционного обучения, электронное обучение, видеолекции.

**Abstract.** This article discusses the concept of distance education, methods and ways of its organization, and its practical importance in the educational system.

**Key words:** distance education, computer, information technology, teaching methods, tool, development, general rule, online, communication, modern Internet network, e-mail, distance education, distance education system, distance learning models, e-learning, video lectures.

Eng avvalo, masofaviy ta'lim nima? Biz undan qanday maqsadlarda foydalanishimiz kerak? degan savollarga javob axtarishimiz lozim. Chunki bugungi kunda ta'limning bir turi sifatida masofada ta'lim olish imkoniyatlari shakllantirildi. Bu o'zini nechog'li oqlashini kelajakda vaqt ko'rsatadi. O'ylaymizki, oldimizga qo'yilgan maqsadlarimiz, albatta, ijobiy natijalarni beradi. Farzandlarimiz, kelajak avlod, ushbu o'qitish turidan unumli foydalanadi.

Mustaqil respublikamizda bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning texnika asrida texnologiyalardan o'rinli foydalanishlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. O'qitish tizimida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shulardan kelib chiqqan holda Respublikamiz Prezidenti tomonida 2002-yil 30-mayda "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Shu asosda respublikamizning barcha o'qitish tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, ulardan oqilona foydalanishning barcha usul va yo'llari ishlab chiqildi, shuningdek, keng ko'lamda amalga oshirildi va oshirilmoqda. Chunki bugungi kunda zamonaviy bilimlarga ega yoshlarni tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishning sifat darajasiga erishish zamon talabiga aylandi. Natijada o'qitishning zamonaviy yo'llari va usullari ham ishlab chiqilib o'qitish tizimlarida tatbiq etilib kelinmoqda.

Texnika asrida ta'limning turlari va shakllari kengayib bormoqda. Shulardan biri o'qitishni masofaviy ta'lim asosida olib borishdir. Bunday o'qitish usuli xorij tajribalari asosida shakllantirilgan. Qaysidir ma'moda bu ta'lim qisman bo'lsa-da o'zini oqlamoqda.

Masofaviy ta'limda o'qitishning bitta umumiy qoidasi mavjud, u ham bo'lsa, o'qituvchilar vatalabalar (o'quvchilar) bir-biridan uzoqda turib muloqot qilishadi. Ularni faqat internet tarmog'i bog'lab turadi. O'qituvchi fan mavzulari bo'yicha topshiriqlarni yuklaydi, talaba (o'quvchilar) berilgan topshiriqlarni belgilangan vaqt bo'yicha topshirib boradi.

Bu ta'limda o'qituvchi va talaba (o'quvchi) larning bir-birlari bilan tizimli o'zaro muloqot jarayonidagi ta'siri nazarda tutiladi. Unda, asosan, talabalarning mustaqil ishlarini bajartirish va topshirishlari uchun berilgan imkoniyatlar, talabalarning mustaqil faoliyati uchun berilgan qo'shimcha vazifalar hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga asos bo'ldi deyish mumkin. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'lishadi. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkoniyatini ham beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum sifatida yangi vazifalarni bajaradi.

Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagida bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkoniyatini ham yaratib beradi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil bajarishlari uchun tizimga kiritilgan o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtirib boradi va qo‘shimcha topshiriqlarni bajaradi, o‘tilayotgan fanlari bo‘yicha nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida turlicha nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa “virtual o‘quv guruhi” talabalari bilan muloqotda bo‘ladi. Talaba uchun ikki tomonlama muloqotning shakllanishi ham qaysidir ma’noda o‘qitish jarayoni uchun ijobiy natijalar beradi.

Masofaviy ta’limning o‘qituvchi va talabalarni onlayn tarzda birlashtirib turuvchi 3 turi mavjud va shu turlar asosida internet tarmoqlari yordamida o‘zari muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bular:

**1. O‘qituvchi bilan o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqoti.** Bunday muloqot o‘zaro tajriba almashish imkoniyatini beradi. Darslarni kuzatish, o‘qituvchilar uchun tajriba sinov muhitini yaratadi.

**2. O‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi muloqoti.** Masofaviy ta’limning asosiy maqsadi ham o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi jonli muloqotni shakllantirish va keng yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Bu jarayonda, zamonaviy elektron aloqa, internet tarmoqlarining talab darajasida bo‘lishini talab etadi. Elektron o‘qitish tizimlarining barchasidan unumli foydalanish imkoniyati yaratiladi.

**3. Talabalarning bir-biri bilan o‘zaro muloqoti.** Masofaviy ta’limda talabalar bilan talabalar o‘rtasidagi jonli muloqotda zamonaviy internet tarmog‘i muhim hisoblanadi. Bu jarayon guruhda talabalarning topshiriq sifatida berilgan fan mavzularini o‘zlashtirishlari uchun ham imkoniyat paydo bo‘ladi.

Jamiyat rivoji, internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida barcha sohalarda o‘zgarmay kelgan holatlarni o‘zgartirib yubordi. Bular odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo‘ldi. Endilikda esa ta’lim tizimida ta’lim

olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lim elementlari ham o'qitishning yangi tizimi sifatida kirib keldi.

Masofaviy o'qitishda turli axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni, o'qitishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqilgan holda texnologiyalarning turlaridan foydalaniladi. Masalan, interaktiv **audio va video** konferentsiyalar ma'lum vaqt oralig'ida ikki yoki bir necha kishilar o'rtasida o'zaro muloqotda bo'lishga yordam beradi. Bunda vaqt tejiladi, uzoqda bo'lishidan qat'iy nazar muloqot oynasi orqali jonli va do'stona munosabatlar shakllanadi. Ilmiy ma'lumotlarni olish, ularga munosabat bildirish, ilmiy yo'nalishdagi hamkorlik kabi masalalarda tez va oson hal etiladi.

**Elektron pochta** esa to'g'ri aloqa o'rnatishda muhim manba hisoblanadi. Chunki elektron pochta xabarlarini jo'natish va qabul qilish xizmatini bajaradi. Mustaqil ta'lim vazifalari o'qituvchi tomonida yuboriladi talaba tomonida natijasi qayta yuboriladi. Shuning uchun ham elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa vositasi deb ham yuritiladi. Bu aloqa vositasidagi muloqot har doim amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi do'stona muhitning vujudga kelishida amaliy ahamiyatga ega.

**Videoma'ruzalardan** foydalanish masofaviy ta'limda juda muhim vosita hisoblanadi. Talabalar ma'ruzalarni tinglashlari va ko'rishlari mumkin bo'ladi. Yuborilgan xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish imkoniyati kengroq bo'lib, bunda talabalarni tezkor aloqa vositasida o'qitish imkoniyatini beradi. Bu esa o'qitish tizimida berilgan topshiriqlarni tez va sifatli bajarishning qulay usullaridan biri hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, aslida masofaviy o'qitish bu – innovatsion usullar, o'qitishning turli vositalari asosidagi o'qitish tizimi hisoblanadi. Undan oqilona foydalanish va masofaviy dars o'tish samaradorligini oshirish har bir o'qituvchining texnik qurilmalardan qay darajada foydalanishlariga va bilishlariga bog'liq bo'ladi. Istagimiz, rivojlanish davrida yoshlarni texnika

asrida texnik qurilmalardan o‘rinli foydalangan holda sifatli dars o‘tish ekan, shunga barchamiz intilmog‘imiz va amalda bajarishni ham o‘rganmog‘imiz darkor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ибраймов А.Е. Масофавий ўқитишнинг дидактик тизими. Методик қўлланма. – Т.: “Lesson press”, 2020.
2. Турсунов С.Қ. Таълимда электрон ахборот ресурсларини яратиш ва уларни жорий қилишнинг методик асослари. Монография. -Т.: Адабиёт.
3. Турсунов С.Қ. Таълимда электрон ахборот ресурсларини яратиш ва уларни жорий қилишнинг методик асослари. Монография. -Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
4. <http://natlib.uz> – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.

## **AYOLLARGA XOS BO‘LGAN FITONIM KOMPONENTLI O‘XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

Xudayarova Solihaposhsho,  
O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasida stajor-o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilida ayollarga xos bo‘lgan o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Ayollarning tashqi ko‘rinishi, holatini ifodalashda fitonim komponentli o‘xshatishlarning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** lingvokulturologiya, lingvomadaniy tadqiq, fitonim, fitonim komponentli o‘xshatishlar

Ayol yaralibdiki, uni gul-u gulg‘unchaga qiyos etamiz. Bu bizga mumtoz adabiyot an‘analaridan, qadimiy ohanglardan me‘ros bo‘lib kelmoqda. Darhaqiqat, ayol jamiki mavjudotlar orasida o‘zining nozik xilqati, kelishgan qaddi-qomati, husn-u jamoli ila ajralib turadi va shu sabab ham mana necha ming yillarki shoir, yozuvchilar uchun ilhom manbayi bo‘lib kelmoqda. Sharq xalqlarida ayolni

ulug‘lash, hurmat qilish, uni muqaddas deya e‘zozlash bobome‘rosdir. Ayol va uning psixologiyasini o‘rgangan olimlar uni yechilmas tilsim deya ta‘riflashadi.

Barcha davrlarda, dunyodagi jamiki xalqlarda ayollarni gul-u gulg‘unchaga qiyos etmoq an‘anaviydir. Qolaversa, xalqimizda ayollarga bahor, go‘zallik timsoli sifatida ham ehtirom ko‘rsatishadi. Fitonim komponentli o‘xshatishlar orasida ayolni gul va uning turlariga qiyoslash salmoqli o‘rin egallaydi. Dastlabki boblarda ayollarni aynan gulga qiyos etilgani tahlilga tortildi, ushbu faslda gul tushunchasini kengroq qamrab olamiz. Dastavval gul turlari bilan bog‘liq o‘xshatishlarga diqqat qaratsak.

O‘zbek xalqi bolajon xalq, bu xalq tilidan doim shirin so‘z, erkalamalar tushmaydi. Kuzatgan bo‘lsangiz bobo-buvilar jajji qizaloqlarni, nabiralarini gulim, rayhonim, binafsham, boychechagim, atirgulim deya erkalashadi. Bunda mitti farishtalarni ushbu gullarning ham iforiga, ham chiroyiga qiyoslash mavjud. Onalar allasida shunday satrlar mavjud:

*Gul ichidan tanlab olgan **gulrayhonim**, allayo, alla.*

*Dur ichidan tanlab olgan dur marjonim, allayo, alla.*

***Rayhon isli** bolamning iforlari taralsino, alla.*

*Quchog‘imda **gulday qalb** orom olsin allayo, alla. ( O‘zbek allalaridan)*

Ushbu misralarda ona o‘z bolasini erkalar ekan, uni gullar ichidan tanlab olingan gulrayhonga, dur ichidan saralangan durmarjonga qiyos etadi. Uning ifori shu qadar yoqimlik, uni rayhon iforiga qiyos etadi, xuddi rayhondek muattar bo‘yi bilan atrofni xushbo‘y qilmog‘ini tilaydi. Bolaning hali gard-g‘ubor qo‘nmagan mittigina qalbini gulga qiyos etadi.

Ayollarga oid o‘simlik nomlari bilan bog‘liq o‘xshatishlarda ham asosan uning chiroyiga, iforiga va rangiga taqqoslash salmoqlidir. Badiiy ijodni kuzatar ekanmiz, ayolning yuzlarini lola yoxud qizil gulga, labini g‘unchaga, sochlarini sunbulga, ko‘zlarini bodom yoki pistaga, qoshlarini o‘smaga, yanoqlarini olma yoki anorga, muattar iforini xushbo‘y hidli gullar atirgul, binafshaga, qaddi-

qomatini sarvga, yanog'idagi qop-qora xolini anbar yoki rayhonga qiyoslash barcha davrlar adabiyoti uchun an'anaviydir.

*Loladek yuzing xayolidin to'la qondur ko'zum,*

*Balki lola jomidek qon ichra pinhondir ko'zum.(Bobur)*

Ushbu baytda shoir yorini ta'riflar ekan, sening lola kabi qizil yuzing xayoli sabab ko'zlarim qonlidir, yo'q, yo'q balki lola jomi ya'ni kosasidek ko'zlarim qon ichra yashiringandir deydi. Lola guliga e'tibor qilsangiz qizil yaproqlari jom ya'ni idishni yodga soladi. Lolaning ichki qismi, tubiga nazar tashlasangiz ko'zni eslatuvchi qora, sariq tusli aylana mavjud. Shoir lola kosasini qonli jomga, kosa ichidagi ushbu aylanalarni esa ko'zga qiyos etyapti.

Yuzni lola yoki qizil gulga qiyoslash Mashrab ijodida ham uchraydi. Shoir bir nechta g'azallarida ushbu tashbehdan foydalangan. Masalan, " Qachon ko'rdim qizil guldek yuzingni", "Lablaring erur la'ldek, yuzlaring qizil guldek" , "Yuzing misli qizil guldur, ko'ngil chun bulbuli shaydo", "Ikki yuzing qizil guldurmu yo bargi suman" kabi g'azallarida yuz ta'rifida qizil gul o'xshatish obyekti bo'lib kelgan.

Lola guli eslanganda hamisha qizg'aldoq yodga keladi. Qarangki, bu gul ham ayollar jamolini ta'rif etishda keng qo'llaniladi. Qizg'aldoqdek yuz birikmasi uyatdan, xijolatdan qizarmoqlikni ifodalaydi.

*Oygul uning so'zlarini eshitib, qizg'aldoqdek qizarib o'tirardi («Toshkent oqshomi»).*

*Shu borsa, Hojar buvi kiyim kiyib, qizg'aldoqday yashnab o'tirgan ekan (Yusuf va Ahmad).*

Yuzning qizarmoqligi, undagi tabiiy qizillik olmaga ham qiyos etiladi. Olmadedek qizil birikmasi ayollarning yuzini hamda labini tasvirlashda ishlatiladi.

Asqad Muxtorning "Opa-singillar" romanidan olingan parchada yuzning tabiiy qizilligi olmaga qiyos etilgan.

*Kampir nima qilganini o‘zi ham payqamay, tez borib yoshli ko‘zlarini qizning **olmaday** qizil yuziga bosdi*<sup>42</sup>.

Ayollarga oid o‘simlik nomlari bilan bog‘liq o‘xshatishlarda ham asosan uning chiroyiga, iforiga va rangiga taqqoslash salmoqlidir. Badiiy ijodni kuzatar ekanmiz, ayolning yuzlarini lola yoxud qizil gulga, labini g‘unchaga, sochlarini sunbulga, ko‘zlarini bodom yoki pistaga, qoshlarini o‘smaga, yanoqlarini olma yoki anorga, muattar iforini xushbo‘y hidli gullar atirgul, binafshaga, qaddi-qomatini sarvga, yanog‘idagi qop-qora xolini anbar yoki rayhonga qiyoslash barcha davrlar adabiyoti uchun an’anaviydir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ayol obrazi va uning tashqi ko‘rinishi, ruhiy holati bilan bog‘liq fitonim komponentli o‘xshatishlar asosan gullardan tarkib topgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. 3-сон. – Б.19-24.
2. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори дисс.автореф. – Тошкент. 2020. 57 б
3. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент. 2013.
4. Мухтор Асқад. Опа-сингиллар: роман. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1955.
5. <http://www.ziyonet.uz/>

---

<sup>42</sup> Мухтор Асқад. Опа-сингиллар: роман. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1955. – Б.14.

## ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТЕРМИНОЛОГИЯНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚИ

Гаппаров Алибек Қаршибоевич,  
СамДВМЧБУ хорижий тиллар  
кафедраси катта ўқитувчиси

**Аннотация.** Тилшуносликда бугунги кунда социолингвистик тадқиқотларнинг зарурий шартларидан бири сифатида нутқ ишлаб чиқаришдаги ижтимоий омилларни ҳисобга олиш ва тавсифлаш ҳисобланиб шахсининг нутқий хулқ-атвориغا таъсир этувчи турли омилларга ажратиб кўрсатилади: ижтимоий табақа, ёш, маълумот, касб, яшаш жойи, жинс, алоқа канали, муҳит, мулоқот мавзуси, шакли, мақсади, мулоқот характери ва ҳок.. Шунини алоҳида қайд этиш лозимки, замонавий социолингвистика доирасида тилнинг ижтимоий томонларини тавсифловчи тушунчалар тизими ишлаб чиқилган. Улар орасида: тил ҳамжамияти, тил коди, ижтимоий-коммуникатив тизим ва тил вазияти ажратилади.

**Калит сўзлар:** социолингвистика, сиёсат, тил тизими, услубшунослик, терминология, матбуот, нутқ, матн.

**Аннотация.** В лингвистике сегодня, рассматривая и описывая социальные факторы речеобразования как одну из предпосылок социолингвистического исследования, выделяют различные факторы, влияющие на речевое поведение человека: социальный класс, возраст, образование, профессия, место жительства, пол, общение. канал, среда, общение, тема, форма, цель, характер общения и др. Следует отметить, что в рамках современной социолингвистики разработана система понятий, описывающих социальные аспекты языка. Среди них выделяют: языковую общность, языковой код, социально-коммуникативную систему и языковую ситуацию.

**Ключевые слова:** социолингвистика, политика, языковая система, методология, терминология, пресса, речь, текст.

**Abstract.** In linguistics today, considering and describing social factors in speech production as one of the prerequisites of sociolinguistic research, it is distinguished into various factors that affect the speech behavior of a person: social class, age, education, profession, place of residence, gender, communication channel, environment, communication. topic, form, purpose, nature of

communication, etc. It should be noted that a system of concepts describing the social aspects of language has been developed within the framework of modern sociolinguistics. Among them are distinguished: language community, language code, socio-communicative system and language situation.

**Key words:** sociolinguistics, politics, language system, methodology, terminology, press, speech, text

Маълумки, социолингвистиканинг вазифаси – жамият фаолияти ва ривожланишида ижтимоий омиларнинг тил тизимига таъсирини ўрганишдир. Албатта, бунда социолингвистиканинг диққат марказида бўлган *стратификация* (жамиятнинг ижтимоий синфий тузилиши билан боғлиқ) ва *ситуацион* (коммуникатив акт иштирокчиларининг мулоқот ҳолати ва роль муносабатлари билан боғлиқ) тил ўзгарувчанлиги ётади.

Жаҳон тилшунослигида тилнинг социолингвистик хусусиятларига оид мавзуда Бодуэн де Куртене, Е.Д.Поливанов, Е.П.Якубинский, В.М.Жирмунский, Б.А.Ларин, А.М.Селищев, В.В.Виноградов, Р.О.Шор, М.В.Сергиевский, Т.Г.Винокур, Ф.Брюно, А.Мейе, П.Лафарг, М.Коэн, Б.Гавранек, А.Матезиус, Ж.Вандриес, ўзбек тилшунослигида Р. Қўнғуров, Э.Бегматов, Б.Ўринбоев, А.Нурмонов, Ё.Тожиев, Н.Махмудов, Ш.Искандарова, М.Саидхонов, А.Омонтурдиев, Қ.Расулов каби олимлар бир катор изланишлар олиб борганлар [Бел Р.Т. 1980].

Сиёсий фаолият жамият ҳаётида доимо алоҳида ўрин тутган. Мамлакатнинг халқаро майдондаги ўрни, бошқа давлатлар билан муносабатлари, жаҳон ҳамжамияти фаолиятидаги ўрни маълум бир сиёсий позиция ёки вазиятга боғлиқ. Шу билан бирга, мамлакат имиджини аниқлашда ушбу давлатларнинг сиёсий раҳбарлари томонидан жаҳон ҳамжамиятига тақдим этилиши муҳим роль ўйнайди. Сиёсатчилар чиқишлар орқали ҳам халқаро ҳамжамиятга, ҳам ўз мамлакати фуқороларига мурожаат қилиш имкониятига эга бўладилар [Тибинько Н.Д. 2011:134–137].

Нутқнинг характеристикаси ижтимоий мавқени тасдиқлаш воситаларидан биридир. Ижтимоий йўналтирилган мулоқотда нутқ хатти-ҳаракатларининг энг муҳим омиларидан бири сўзловчи ва

тингловчиларнинг ижтимоий роллари ҳисобланади. Шу билан бирга, куйидаги функционал боғлиқлик мавжуд: нафақат ролли вазият нутк иштирокчиларининг хатти-ҳаракатлари характерини белгилайди, балки танланган тил воситалари ҳам ижтимоий вазиятни тузади ва тасдиқлайди. Тил – иштирокчиларнинг ижтимоий мавқеини тасдиқловчи асосий восита эканлигига шубҳа йўқ.

Маълумки, тил ҳамжамияти – бу тил ва ижтимоий алоқалар билан бирлаштирилган жамоа ҳисобланади. Тил ҳамжамиятининг асосий хусусияти мулоқот ҳамда, ушбу жамоа аъзолари ўртасида барқарор алоқаларнинг мавжудлиги ҳисобланади [<http://tapemark.narod.ru/les/607a.html>]. Дарҳақиқат, мулоқот жараёнида тил жамоасини аниқлаш учун унинг ҳам лингвистик, ҳам ижтимоий жиҳатларини ҳисобга олиш керак. Тил ҳамжамиятини бир хил тилда гаплашадиган жамоалар сифатида тавсифлаш тўғри бўлмас эди. Бу битта тилда сўзлашадиган одамлар гуруҳи бирон бир тил жамоасини ифодаламаслигида мумкин.

Ижтимоий ўзаро таъсирларни таҳлил қилиш билимлар тизимини ўрганиш билан боғлиқ. Билимларни авлоддан – авлодга ўтказишда дунёда содир бўлаётган воқеаларни хужжатли аниқлик билан акс эттирувчи журналистик матнлар муҳим роль ўйнайди. Шу билан бирга, улар дунёнинг ҳам актуал, ҳам мифологик тасвирини оммавий аудиторияга етказиши мумкин. Матбуот аниқ мафкуравий қарама – қаршиликка эга бўлиб, ўзининг лингвостилистик тизими тубида оддий фуқораларнинг дунёқарашига таъсир кўрсатувчи кўплаб риторик воситалар яъни риторик савол, савол ва нутқ демонологиясининг намуналарини ишлаб чиқди. Фақат ошкоралик даврида “матн қабул қилувчининг онгида дунё моделини, тасвирини қанчалик ўзгартиришга” қодир эканлигига кўпчилик амин бўлди [Маслоу А.Х. 1964:59]. Кўриниб турибдики, бу ҳолда матн нафақат публицистик асарни, балки ижтимоий-сиёсий, қадрий-маданий воқеликни ҳам англатадики, булар

кенг контекстуал макон бўлиб, уларда мазмун – маъно табиати аниқланади [Лысакова И.П. 2005:43].

Ижтимоий лингвистика бугунги кунда тилшунослик, социология, ижтимоий психологиянинг сўнги ютуқларини ўзлаштириб, фанлараро йўналиш сифатида ривожланмоқда. Ижтимоий ва лингвистик фактлар ўртасидаги сабаб – оқибат алоқаларини ўрганар экан, тадқиқотчилар лингвистик таҳлилда социология фанининг жамиятнинг ижтимоий тузилиши, ижтимоий вазият, ижтимоий фаолият соҳаси, ижтимоий роль, ижтимоий норма каби тушунчаларидан фойдаланадилар.

Жамиятнинг ижтимоий – психологик тузилиши тилнинг ижтимоий дифференциациясида ҳам ўз ифодасини топганлиги сабабли, социолингвистика психология фанининг тушунчалар билан ҳам фаолият олиб боради. Турли хил, бир – бирига боғлиқ ижтимоий фанлар билан бирлик лингвистик тавсифни лингвистик фактни талқин қилишнинг кенглиги билан бойитади ва тилни ўрганишнинг янги усулларини (математик статистика элементлари билан коррекция таҳлили, ижтимоий диалектларни ва умумий ядрони таққослаш, ижтимоий аҳволни олдиндан айтиш ва бош.) ишлаб чиқишга ҳисса қўшади.

Тилшунослик фанларни ичида социолингвистиканинг энг яқин йўналиш бу функционал услубшуносликдир. Маълумки, функционал услуб – бу ижтимоий фаолиятнинг маълум бир соҳасининг лингвистика билан ўзаро боғлиқлигидир. Стилистик фаолият нутқ субъектини унинг ижтимоий гуруҳига (мақомига) мансублиги, алоқанинг роль таркибидаги ўрни (ижтимоий роли), нутқ предмети ва қабул қилувчига муносабати (ижтимоий йуналтириш, кўрсатма) нуқтаи назаридан тавсифловчи ижтимоий маълумотларга асосланади [Долинин К. А. 1978:43].

Социолингвистикада ижтимоий мақом бошқа тушунчалар (рол, қадриятлар мажмуи, нутқ ҳодисаси, алоқа соҳаси ва ҳолати, алоқа тармоғи ва унинг турлари) билан боғлиқ бўлган марказий тушунчадир.

Социолингвистикадаги ижтимоий мақом категориясининг ўзагини нутқий хулқ-атвор ва турмуш тарзи белгилари орқали очиладиган хулқ-атворнинг роли, масофаси ва меъёрий хусусиятлари ташкил этади. Ижтимоий мақомни социолингвистика категорияси сифатида икки нуқтаи назардан кўриб чиқиш мумкин: бу ижтимоий мақомни кўрсатиш ва баҳолашдир. Ижтимоий мавқени аниқлаш талаффуз, сўз танлаш, меъёрий грамматика қоидаларига риоя қилиш орқали кўриб чиқилади.

Социолингвистика ва стилистиканинг ўзаро таъсири стилистик ҳодисаларни чуқурроқ ва аниқроқ ўрганишга ёрдам беради. Шундай қилиб, коммуникатив акт “адресат – хабар” “адресат” формуласини ижтимоий конкретлаштириш муайян мулоқот услубининг лингвистик элементларини аниқ тасдиқлашга имкон беради ва ижтимоий – коммуникатив таҳлил усуллари матн лингвистикасининг методлари арсеналини бойитади [Швейцер А.Д. 1976:109-113].

С.В.Федорова нуқтаи назаридан манипуляция технологиясини амалга оширишни таминлайдиган алоқа тактикасига қуйидагилар киради: реал фактларни ахборот ҳодисаларига айлантириш тактикаси (хронологияни манипуляция қилиш, вақт буйича локализация, тизимли ва таркибий боғланишлар, иштирокчиларнинг манипуляцияси) ва тузатилган воқеликни идрок этишга оммавий аудиторияни тайёрлаш тактикаси (ҳақиқатнинг коммуникатив принципини манипуляция қилиш, тафсилотлар, ахборот манбасининг ишончлилиги, ваколоти) [Федорова, С.В. 2006:242-248].

Сиёсий тил сиёсий тилшуносликнинг асосий тушунчаларини ёки сиёсий мулоқотга алоқадор лингвистик сиёсатшуносликни англатади. Ижтимоий-сиёсий лексика ҳозирги адабий тилнинг махсус лексик ва фразеологик қуйи тизими сифатида сиёсий тилнинг таянчи вазифасини бажаради.

Шундай қилиб, ижтимоий-сиёсий терминология махсус лексиканинг ядроси сифатида оммавий онгда дунёнинг ижтимоий-сиёсий тасвирини

яратиш учун махсус тил воситаларига эга бўлган махсус ахборот таъсир тилидир.

Дарҳақиқат, билишнинг ижтимоий-сиёсий параметри, унинг қадрият-маданий жиҳати ижтимоий-сиёсий атамада энг яққол намоён бўлади, чунки бу терминнинг асосини шахснинг ижтимоий-сиёсий воқелик ҳақида маълумот алмашиш истаги ташкил этади. Бинобарин, ижтимоий-сиёсий терминлар информацион жиҳатдан тўйинган тил бирликлари сифатида коммуникатив жиҳатдан талабга эга бўлиб, дунёнинг ижтимоий-сиёсий манзарасини бойитишга хизмат қилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Бел Р.Т. Социоллингвистика. Цели, методы и проблемы, пер. с англ. - М., 1980.;
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. - Тошкент: Фан, 1985. - Б.199.
3. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. - М.: Просвещение, 1987 - С.6-7.
4. Долинин К. А. Интерпретация текста. – Л., ЛГПИ, 1978. - с.43
5. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. - Самарканд, 1993. - Б.26.
6. Лысакова И.П. Язык газеты и типология прессы. Социоллингвистическое исследование. – СПб.: Филологические науки СГБГУ. 2005. – С.43.
7. Махмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. - Б.ПО.;
8. Маслоу А.Х. Мотивация и личность. М., 1964. – С.59.
9. Муминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. - Филол. фанлари. доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этган диссерт. - Тошкент, 2000.

## O‘ZBEK TILINI NOTIL MUHITIDA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH/O‘RGATISHNING MAVJUD TAJRIBALARI

**D.Pulatova,**  
**O‘zDJTU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası**  
**katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilganligi sababli xorijliklarning o‘zbek tilini o‘rganishga nisbatan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Shu bois, ushbu maqolada o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasining ta‘lim usulining umumiy didaktik tushuncha sifatida hamda o‘qitish usulining xususiy uslubiy tushuncha sifatida amalga oshirilishi qayd qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim tizimi, notil muhiti, xorijiy til sifatida, o‘qitish, o‘rgatish, tajribalar, o‘qitish metodikasi.

Ta‘lim tizimi, aslida, ikki birlikni: tashkiliy-struktur, ya‘ni mashg‘ulotlarni tashkillashtirish hamda vazifaviy, ya‘ni nutqiy faoliyatni qamrab oluvchi o‘quv jarayoni sanaladi. Shu o‘rinda, ta‘kidlash joizki, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasi quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi:

- 1) ona tiliga asoslangan usullar;
- 2) til va madaniy hodisalarni taqqoslash uchun ona tilidan foydalaniladigan usullar;
- 3) ona tili butunlay chetlab o‘tiladigan usullar.

Xususan, o‘zbek tilining xorijiy til sifatida o‘qitilishida qiyosiy til sifatida ko‘pincha ingliz tili yoki rus tili asos qilib olinadi.

Barchamizga ma‘lumki, metodologiyada asosiy tushuncha – bu usuldir. Metod tushunchasi (yunoncha “methodos” so‘zidan – tadqiqot yoki bilish usuli, nazariya, o‘qitish yo‘li) qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan ma‘lum darajadagi tartibli faoliyatni anglatadi. Ushbu atamaning bir nechta ta‘riflari mavjud.

1. **Ta‘lim usuli umumiy didaktik tushuncha sifatida.** Ushbu yondashuv orqali ta‘limni amalga oshirish usuli deganda o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro

hamkorligi, ya'ni ta'lim oluvchilarni tarbiyalash, nutq madaniyati bilan yaqindan tanishtirish va nutqni rivojlantirish maqsadlariga erishishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullari nazarda tutiladi; ular universal va turli fanlarni o'qitishda qo'llaniladi, ammo har bir aniq fanda ular o'ziga xos ifodaga ega. O'qitish usullari o'zaro bog'liq holda quyidagi guruhlariga birlashtiriladi: o'qitish usullari (namoyish, tushuntirish, ta'limni tashkil etish, amaliyotni tashkil etish, tuzatish, baholash) va o'qitish usullari (tanishish, tushunish, mashg'ulotlarda ishtirok etish, amaliyot, o'z-o'zini baholash, o'zini o'zi boshqarish) kabilar. Chet tillarni o'qitish metodikasi uchun esa – namoyish, tushuntirish, amaliyot kabi ta'lim usullari yetakchi hisoblanadi. O'qitish usullari turli mezonlardan kelib chiqib tasniflanadi:

a) bilim olish va ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish manbai bo'yicha (o'qituvchining so'zi, hikoyasi, suhbat, tilni tahlil qilish, mashqlar, kitob bilan ishlash, ekskursiyalar, ko'rgazmali qurollardan foydalanish);

b) talabalarning o'quv jarayonidagi ishtiroki darajasi (faol, passiv daraja, o'quv faoliyati jarayonida talabalarning mustaqilligi) alohida ajralib turadi;

c) talabalar faoliyati turlari (og'zaki va yozma, auditoriya yoki uydagi, individual va jamoaviy ta'lim) kabilardir.

Hozirgi kunda o'qitishning faoliyat turiga asoslangan o'qitish usullarini tasniflash keng tarqalgan. Shu munosabat bilan quyidagilar ajralib turadi:

1) ta'lim fanini o'zlashtirishni ta'minlaydigan usullar (og'zaki, vizual, amaliy, reproduktiv, muammoli izlanish, induktiv, deduktiv);

2) ta'lim faoliyatini rag'batlantiradigan usullar (kognitiv o'yinlar, o'quv munozaralari, muammoli vaziyatlar va boshqalar);

3) ta'lim faoliyatini nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish usullari (so'rov, test, imtihon va boshqalar)<sup>43</sup>.

---

<sup>43</sup> Азимов Э.Г., Шукин А.Н. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков). М.: ИКАР, 2009. 137с.

**2. O‘qitish usuli xususiy uslubiy tushuncha sifatida.** Umumiy didaktik o‘qitish usullaridan farqli o‘laroq, ular juda universal va turli fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladi, xususiy uslubiy o‘qitish usullari ma’lum bir o‘quv predmeti yoki fanlar guruhining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Chet tillarini o‘qitish metodologiyasida usulning ma’lum bir uslubiy tushuncha sifatidagi ikki ta’rifi mavjud:

- 1) keng qamrovli o‘rganish metodi;
- 2) tor ma’noda til aspektlarini yoki nutq faoliyati turlarini o‘rgatish usuli.

Usullarni umumiy didaktik va xususiy metodologiyaga ajratishda ona tilini o‘qitish usullariga tilni o‘qitishning maqsadlari, vazifalari va mazmunini amalga oshiradigan va ularga erishish yo‘llari va vositalarini belgilaydigan ta’lim yo‘nalishining ahamiyatini belgilash mumkin. Bunday holda, har bir mashg‘ulot usuli o‘ziga xosdir:

a) o‘quv maqsadiga erishish yo‘llari va vositalarini belgilaydigan yetakchi g‘oyaning mavjudligi; ish uchun tanlangan usul doirasida umumiy ta’lim strategiyasi haqida tushuncha berish (masalan, ongli ta’lim usuli guruhlarini ongli ravishda tilni egallashga bo‘lgan munosabat bilan tavsiflanadi);

b) ma’lum bir maqsadga erishishga (masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish usulining og‘zaki muloqot shaklida tilni o‘zlashtirishga, tarjima va grammatikaga asosan yozma shakli) e’tibor qaratish;

c) lingvistik, psixologik, didaktik konsepsiyadan metod (yoki metodlar guruhi) uchun nazariy asos sifatida foydalanish (masalan, faoliyatning psixologik nazariyasi va aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi o‘qitishning ongli-amaliy usulining asosi sanalib, shu bilan birga usulning lingvistik asoslanishi L.V. Shcherba nomi va kommunikativ tilshunoslikning zamonaviy tendensiyalari bilan bog‘liq);

d) ta'lim shartlari va bosqichidan kelib chiqadigan mustaqillik, chunki ta'lim metodi uning taktikasini emas, balki o'qitish strategiyasini belgilaydi<sup>44</sup>.

O'qitish usuli, ta'lim yo'nalishi bo'lib, tanlangan yo'nalish doirasida o'qituvchi va talabalarning o'quv harakatlari tabiatini aks ettiruvchi o'quv modeli shaklida auditoriyada amalga oshiriladi.

Chet tillarini o'qitish tarixida jamoatchilikning til o'rganishga bo'lgan ehtiyojlariga javoban paydo bo'lgan va jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida fan va texnikaning rivojlanish darajasini aks ettiruvchi bir necha o'nlab o'qitish usullari ma'lum. Yangi usullar paydo bo'lganda, ular ko'pincha o'qitishning maqbul va universal usulini yaratishni nazarda tutadi. Biroq, ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, universal optimal usulni yaratish deyarli mumkin bo'lmagan vazifa emas, chunki optimallik aniq maqsad, vazifalar va o'quv sharoitlari bilan belgilanadi. Shunday qilib, biz qisqa vaqt ichida, asosan og'zaki muloqot shaklida va cheklangan leksik va grammatik materiallarda tilni o'zlashtirishdagi faollashtirish usulining optimalligi haqida gapirishimiz mumkin.

Ta'limga to'g'ridan-to'g'ri, ongli va kommunikativ faoliyat sifatida yondashuvlarga asoslanib, zamonaviy o'qitish usullarini ta'lim faoliyatiga joriy qilish hozirgi dolzarb usullardan biridir. Shu o'rinda, ta'limda ijobiy natijalarga erishish uchun har bir pedagogdan alohida ijodkorlik talab qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков). М.: ИКАР, 2009.
2. Казаренков В.И. Основы педагогики: Интеграция урочных и внеурочных занятий школьников: учебное пособие. М.: Логос, 2005.

---

<sup>44</sup> Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков). М.: ИКАР, 2009. 138-с.

<sup>44</sup> O'sha yerda

## TA'LIM JARAYONIDA ISH QOG'OZLARIDAN FOYDALANISH

Eshpulatova Saodat Maxmatovna,  
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv  
va texnologiyalar universiteti  
Xorijiy filologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ta'lim jarayonida o'quvchilarni rasmiy hujjatlardan foydalanishga o'rgatishning nazariy masalalariga bag'ishlanadi. Hujjatlardan foydalanishga o'rgatish modulini interfaol ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish yuzasidan aniq tavsiyalar beriladi.

**Annotatsiya.** Данная статья посвящена теоретическим вопросам обучения студентов использованию официальных документов в учебном процессе. Даны конкретные рекомендации по преподаванию модуля обучения использованию документов на основе интерактивных образовательных технологий.

**ANNOTATION.** This article will focus on the theoretical issues of teaching students to use official documents in the educational process. Specific recommendations are given on the teaching of the module for teaching the use of documents on the basis of interactive educational technology.

**Kalit so'zlar:** interfaol, innovatsiya, ta'lim, samaradorlik, texnologiya, muammo.

**Ключевые слова:** интерактивность, инновации, образование, эффективность, технология, проблема.


**Key words :** interaction, innovation, education, efficiency, technology, challenge.

Bugungi kunda ta'limning samaradorligiga erishish maqsadida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga qiziqish kundan kunga kuchayib bormoqda. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rnini qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi<sup>45</sup>.

---

<sup>45</sup> Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент: 2013. – В.11.

Jahon ta'lim tizimida interfaol ta'lim texnologiyalarining quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum:



Innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol uslubdagi darslar xorij tajribasi sifatida pedagogikaga hamda barcha fanlarning o'qitish metodikasiga kirib kelgani hech kimga sir emas. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda "innovation" – "yangilik kiritish"<sup>46</sup> degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida "innovatsiya" tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Innovatsiyalarning ko'rinishlari: yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar; odatiy bo'lmagan tashabbuslar; ilg'or ish uslublaridir<sup>47</sup>.

Ta'lim innovatsiyalari ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar sanaladi. Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. U ilk

<sup>46</sup> Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. –Тошкент: Фан ва технология. 2009. – В.154.

<sup>47</sup> Сайидахмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – В.56.

bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan. Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra: pedagogik jarayonda yoki ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur<sup>48</sup>.

Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – bu mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda<sup>49</sup>.

**Interfaollik** ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An’anaviy ta’limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchilarga etkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchilar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi.

---

<sup>48</sup> Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Тошкент: ТДПУ. – В. 2005.

<sup>49</sup> Муслимов Н., Усмонбекова У., ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари. –Тошкент: 2015. – В.58.

Shunga ko‘ra, interfaol o‘qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol ta’lim mohiyatiga ko‘ra suhbatning “o‘quvchi – axborot - kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi<sup>50</sup>.

Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda:

Bugungi kunda barcha fanlarni o‘qitishdagi kabi ona tili o‘qitishda ham ilg‘or xorijiy tajribalardan, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosiy o‘rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi. Ushbu ta’lim pedagog va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, talabani qadriyat sifatida e’tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi:  
1. Modulli ta’lim texnologiyasi. 2. Muammoli ta’lim texnologiyasi. 3. Interfaol

---

<sup>50</sup> Муслимов Н., Усмонбекова У., ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари. – Тошкент: 2015. – В.60.

